Denesiniń uzınlıǵı 70 sm ge jetedi, reńi qara daqlar menen kúl reń formada keledi. Bul túr denesindegi aq torlı jayları menen ajralǵan, júdá keń qońır qaraltım dene formaları menen xarakterlenedi. Bul jılanlar Crotalidae tuqımlasına tiyisli bolıp, olar jaqsı rawajlanǵan termorecepciya qásiyetine iyeligi menen ajıralıp turadı. Jılan basınıń aldıńǵı ushında bet oyıqları bar bolıp, olar ishinde sezgir membranalar ajratılǵan. Bul oyıqshalar kózge jaqın jaylasqan. Bul oyıqlar arqalı jılanlar 0,2 °S qa shekem bolǵan temperatura ózgeriwin ajrata aladı. Bul qásiyeti qalqan tumsıqlı jılanlardıń hár túrli ortalıqlardı tańlap ómir súriwine úlken járdem beredi. Toǵaylarda, otlaqlı jerlerde, dalanlıqlarda, saz hám maydalanǵan taslı yarım shól hám shól aymaqlarda jasaw qábiletine iye. Ádebiy maǵlıwmatlar boyınsha Qaraqalpaqstan Respublikası sharayatında Ústirt tegisliginde, Qızılqum shóllerinde, Ámiwdárya deltasında hám Aral teńizi aymaǵındaǵı Vozrojdenie atawında júdá kem sanda ushırasadı dep keltirilgen [Jumanov h.b. 1]. Bizler bul *Agkistrodon halys* qalqan tumsıqlı jılandı Aral teńiziniń Qaraózek rayonı tárepinda Aqbetkey arxipelagında ushırattıq (1-súwret). Bul túr teńiz betinen 4000 m ge shekem bálentlikte taw eteklerinde jasaydı. Baspana sıpatında jarıqlar hám kemiriwshilerdiń uyalarınan paydalanadı. Kópshilik jaǵdaylarda qábiristanlarda hám burınları xalıq jasaǵan eski aymaqlarda jasaydı. Qáwip qáter payda bolǵan jaǵdaylarda quyrıǵınıń ushın oynatadı. Olar mayda kemiriwshiler hám quslar menen azıqlanadı, olardı tabıwdı oljasınıń dene temperaturasına qarap baǵdar aladı. Bunnan tısqarı olar, gesirtkeler hám omırtqasız haywanlar menen de azıqlanıwı múmkin. Hár bir qalqan tumsıqlı jılannıń awǵa shıǵatuǵın aymaǵı boladı, olar onnan sırtqa shıqpaydı. Awǵa shıǵıw waqtında jılan aldın oljasınıń temperaturası járdeminde gúzetip baradı, soń onı tisleydi hám záhárin jiberedi. Onnan keyin olja qashıp ketedi, biraq tez arada záhárden nabıt boladı. Qalqan tumsıqlı jılan ele suwıp úlgermegen oljanı tawıp, jutıp jiberedi. Jaz aylarında túnde, báhár hám gúz aylarında bolsa kúndizi aktiv boladı. Juplasıwı mart hám iyun' ayları aralıǵında júz beredi. Qalqan tumsıqlı jılan urǵashısı 2-12 átirapında bala tuwadı. Qalqan tumsıqlı jılannıń adamlardı tislewi adamlarda kúshli awırıwlı halda ótiwine alıp keledi. Tislegennen keyin kúshli awırıw adamlarda 5-7 kún dawamında seziledi. Biraq onıń záhári awır jaǵdaylarǵa, qorqınıshlı

aqıbetlerge alıp kelmeydi [Орлов h.b. 2].



1-súwret. Qalqan tumsıqlı jılan *Agkistrodon halys*
(Aqbetkey arxipelagı 18-oktyabr 2022-jıl).

Paydalanǵan ádebiyatlar

1. Jumanov M.A., Asenov G.A., Vekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. Qaraqalpaqstannıń haywanat dúnyası // - Nóis: «Qaraqalpaqstan», 2020. - 640 s.
2. Орлов Б.Н., Гелашвили Д.Б., Ибрагимов А.К. Ядовитые животные и растения СССР - М.: Высшая школа, 1990. - С. 120. - ISBN 5-06-001027-9

STEPHANOFILARIA STILESI VA *S.ASSAMENSIS* NEMATODASI QORAMOL PARAZITLARI

M.Atajonova, K.Kızılbaeva, P.Kongratbaeva
Ajinyoz nomidagi NDPI Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari

Qoramollarda asosan, *Stephanofilaria stilesi* va *S.assamensis* turlari parazitlik qiladi. Ularining uzunligi 3-8 mm va yo'g'onligi 0,100-0,117 mm keladi. Bu nematodalar qoramollarning qorin terisini, yelinini hamda quloq ichki tomonining o'rta qismini zararlaydi. Terining bunday qismlarida kattaligi 7 mm dan 100 mm gacha boradigan sal qizargan yaralar paydo bo'ladi.

*Stefanofilariya*lar teri orasiga kirib dermotidlar hosil qiladi. Hayvonning kasallangan joylari qattiq qichiydi va hayvon bezovtalanadi, natijada mahsuldorligi anchagina pasayadi. O'zbekistonning turli mintaqalarida qoramollarning stefanofilarioz bilan umumiy zararlanishi 4,65 % dan 78,1 % gacha boradi. Aksari bitta hayvonda nematodalarning ikki turi ham uchraydi. Stefanofilariyaning oraliq xo'jayinini aniqlash maqsadida Respublikaning har xil mintaqalarida qon so'ruvchi pashshalarning 3 turi chaqqir sigir pashshasi, kichik sigir pashshasi va kuzgi pashshalar oraliq xo'jayin sifatida aniqlandi. Pashshalarda stefanofilariy lichinkasi birinchi marta aprel oyi oxirida topilgan. Pashshalar stefanofilariy lichinkalari bilan may oyida eng ko'p (5 %), iyunda esa ancha kam (0,8 %) zararlanadi. Ikkinchi marta ko'payishi (1,5 %) sentyabrda ro'yxatga olingan. Stefanofilariyning rivojlanish tsikli quyidagicha boradi. Jinsiy etuk stefanofilariylarning urg'ochilari qoramol terisi ostida parazitlik qilib, tuxum qo'yadi. Stefanofilariozli hayvonlarda oziqlanayotgan qon so'ruvchi pashshalar parazitning tuxumlarini yutib yuboradi. Pashshalarda parazit tuxumlaridan lichinkalar rivojlanadi, ular hasharotning xartumchasiga etib keladi va pashshaning navbatdagi oziqlanishida xartumchadan asosiy xo'jayini-qoramolning terisiga o'tadi. Muntazam olib borilgan tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, oraliq xo'jayin organizmdagi stefanofilariy lichinkalari 26-30 graduss issiqda 25-27 kunda invazion davrga yetadi. Qon so'ruvchi pashshalar bahor, yoz, kuz fasllarida, asosan may va sentyabr oylarida stefanofilariy tuxumlari bilan zararlanadi. Definitiv xo'jayinlarning stefanofilariy bilan zararlanishini aniqlash uchun qoramollardan olingan qariyb 3500 ta teri namunalari tekshirildi. Ma'lum bo'lishicha, hayvonlarning stefanofilariy bilan zararlanishi yil fasllariga bog'liq bo'ladi va respublikamizning turli hududlarida jiddiy farq qiladi. O'zbekistonning tadqiq qilingan hamma tumanlarida stefanofilarioz topilgan.

Stefanofilyarioz kasalligiga yo'liqqan qoramollarni davolash uchun ko'plab miqdorda preparatlar sinab ko'rilgan. 40% li xlorofos malhami eng samarali hisoblanadi. Uni terining shikastlangan qismlariga surtiladi. Har bosh molga 10 g preparat sarflanadi. Yaylov mavsumida mazkur dori ishlatilsa terapevtik samara olishdan tashqari hayvonlarning qayta zararlanishiga ham barham beriladi, chunki preparatning insektitsid sifatida ta'sir qilishi 20-25 kungacha davom etadi. Shu bilan birga necha bor dorilanishi pashshalarning tabiatda qancha vaqt yashashiga qarab belgilanishi lozim. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, O'zbekiston sharoitidagi yaylov

mavsumida qoramol terisining zararlangan joylarini 3-4 marta dorilash kifoyadir.

Kasallikning oldini olish uchun stefanofilyariyning oraliq va definitiv xo‘jayinlarini bog‘laydigan vositalarni yo‘qotishga imkon beradigan tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bunda yaylov faslida sigir pashshasi va kuzgi pashshalarga qarshi kurash ishlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular respublikamiz sharoitida aprelda ucha boshlab, noyabrda to‘xtaydi. Pashshalarni yo‘qotish maqsadida mollarga fenotiazin yediriladi. Qoramol uchun sutkalik dori miqdori tirik vaznining har bir kg hisobiga 0,02 g ni tashkil qilishi kerak. Bu preparat tuzga yoki yemga aralashtirib beriladi.

Adabiyotlar

2. Dadaev S.D. Parazitologiya. Oliy o‘quv yurtlari biologiya ixtisosligi talabalari uchun ma’ruzalar matni. T., 2002.
3. Dadaev S.D. Kanalar va ularga qarshi kurash choralari. Oliy o‘quv yurtlari biologiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv metodik qo‘llanma. T.,2004.
4. Dadaev S.D. Parazitologiya. Oliy o‘quv yurtlari biologiya ixtisosligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T., «O‘zbekiston».2006
5. Dadaev S.D. va bosh. O‘zbekistonda hasharotlar orqali rivojlanadigan chorva mollari parazitlari va ularning oldini olish choralari. Oliy o‘quv yurtlari biologiya ixtisosligi talabalari uchun o‘quv metodik qo‘llanma. Toshkent., 2008.

EKOLOGIK TARBIYA ORQALI YOSHLARNING TABIATGA ONGLI MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH

Aytmuratova M.E - Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi.
Matkarimova H.A – NDPI qoshidagi akademik licey talabasi.

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu ekologik muammolardir. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi holatlar nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlod hayoti uchun ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli ekologik muammolarni hal etishda faqat texnik va iqtisodiy choralar yetarli bo‘lmay, balki inson ongini, ayniqsa yoshlar dunyoqarashini o‘zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi.Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash jarayonida ekologik tarbiya alohida o‘rin egallaydi. Chunki aynan yoshlar kelajak jamiyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ular orqali ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Ekologik tarbiya – bu insonda tabiatga nisbatan ongli, ehtiyotkor va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. U nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Yoshlarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish, avvalo, ularning ekologik bilimlarini boyitish, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushuntirish orqali amalga oshiriladi. Inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat buzilgan sari ekologik muammolar chuqurlashib boradi. Shuning uchun ham ekologik tarbiya yoshlarning ongida “inson – tabiat – jamiyat” tizimi yagona ekanligini anglashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ekologik mas’uliyat hissini rivojlantirishga olib keladi.Shuni ta’kidlash joizki, ekologik tarbiya faqat ta’lim muassasalarida olib boriladigan darslar bilangina cheklanib qolmasligi kerak. U oilada, jamiyatda, ommaviy axborot vositalari orqali ham muntazam ravishda olib borilishi lozim. Ayniqsa, yoshlarning kundalik hayotida ekologik odatlarni shakllantirish – chiqindilarni to‘g‘ri saralash, suv va energiya resurslaridan tejab foydalanish, tabiatni asrashga doir faoliyatlarda ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimdir.

Zamonaviy ta’lim tizimida ekologik tarbiyani tashkil etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar, loyihaviy ishlar, amaliy mashg‘ulotlar, ekologik aksiyalar va ekskursiyalar yoshlarning qiziqishini oshiradi hamda ularni faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Ekologik tarbiya – bu yosh avlodni tabiatga nisbatan ongli, ehtiyotkor va mas’uliyatli munosabat ruhida tarbiyalashga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Uning asosiy mazmuni yoshlarning ekologik bilimlarini shakllantirish, tabiat qonuniyatlarini tushuntirish hamda inson va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashga yordam berishdan iborat.

1. Ekologik tarbiyaning nazariy asoslari bir qator fanlar, jumladan, ekologiya,

pedagogika, psixologiya va sotsiologiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu fanlar asosida yoshlarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va qiziqishlarini inobatga olgan holda ekologik tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarda ekologik ongni shakllantirish ularning keyingi hayot faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tushuntirish;
- ekologik muammolar mohiyatini anglashga o‘rgatish;
- tabiatni asrashga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- ekologik madaniyat va mas’uliyat hissini rivojlantirish.

Shu nuqtai nazardan, ekologik tarbiya yoshlarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasini ham shakllantiradi.

2. Yoshlarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish omillari. Yoshlarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirish ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular o‘zaro uzviy aloqada namoyon bo‘ladi. Eng avvalo, oila muhitining roli katta ahamiyatga ega. Bola ilk ekologik tasavvurlarni aynan oilada oladi. Ota-onaning tabiatga bo‘lgan munosabati, kundalik hayotdagi ekologik odatlari farzand tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Ikkinchi muhim omil – ta’lim tizimidir. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologik bilimlarni tizimli ravishda berish orqali yoshlarning ekologik savodxonligini oshirish mumkin. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlarga ham alohida e’tibor qaratish lozim.Yana bir muhim omil – ijtimoiy muhit va ommaviy axborot vositalaridir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, televideniye orqali berilayotgan ekologik ma’lumotlar yoshlarning dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ekologik targ‘ibot ishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, ekologik muhitning o‘zi ham tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Tabiat qo‘ynida o‘tkazilgan sayohatlar, ekskursiyalar, amaliy kuzatuvlar yoshlarning tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uni chuqurroq anglashga yordam beradi.

3. Ekologik tarbiyani amalga oshirishning samarali usullari. Yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda samarali pedagogik usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlar keng qo‘llanilib, ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Shunday usullardan biri – loyihaviy ta’limdir. Bu usul orqali o‘quvchilar muayyan ekologik muammo ustida mustaqil ishlaydi, uni o‘rganadi va yechimlar ishlab chiqadi. Natijada ularning nafaqat bilimlari, balki tahliliy fikrlash qobiliyatlari ham rivojlanadi.Amaliy mashg‘ulotlar ham ekologik tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Masalan, daraxt ekish aksiyalari, hududlarni tozalash tadbirlari, chiqindilarni saralash bo‘yicha mashg‘ulotlar yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, ekologik o‘yinlar, munozaralar va treninglar orqali ham yoshlarning qiziqishini oshirish mumkin. Bunday faoliyatlar ularni mustaqil

fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga o‘rgatadi.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham bugungi kunda muhim yo‘nalishlardan biridir. Turli videoroliklar, taqdimotlar, onlayn platformalar orqali ekologik bilimlarni yetkazish yanada samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya orqali yoshlarning tabiatga ongli munosabatini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, ekologik muammolarni kamaytirish hamda kelajak avlod uchun sog‘lom muhitni ta’minlash bevosita yoshlarning ekologik bilim va madaniyat darajasiga bog‘liqdir.Tadqiqot davomida aniqlanganki, ekologik tarbiya yoshlarning nafaqat bilimlarini boyitadi, balki ularda tabiatga nisbatan mas’uliyat, ehtiyotkorlik va mehr-muhabbat kabi muhim fazilatlarni ham shakllantiradi. Ayniqsa, ekologik ongni erta yoshdan boshlab rivojlantirish ularning kelajakdagi hayot tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ekologik tarbiyani samarali tashkil etishda oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy pedagogik usullar va axborot texnologiyalaridan foydalanish esa ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. To‘xtayev A.S. Ekologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012.
3. Xolmatov Sh., Rasulov A. Atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA KONSTRUKTIVISTIK YONDASHUV: ZAMONAVIY DARS MODELLARINING SAMARADORLIGI

Ashikbaeva Umida Salauat qizi, 1-kurs magistranti
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh.
Qoraqalpogiston. umidasalavatovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda biologiya fanini o‘qitish jarayonida konstruktivistik yondashuvning o‘rni va 5E hamda 7E modellarini amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida talabalarning mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatini oshirishda ushbu modellar an’anaviy metodlardan ko‘ra samaraliroq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Metodika, biologiya ta’limi, 5E va 7E modellari, konstruktivizm, kognitiv rivojlanish, fanlararo bog‘lanish.

KIRISH. Bugungi kunda biologiya ta’limi tizimida innovatsion pedagogik metodikalarni qo‘llash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Binobarin, talabalarga faqatgina tayyor ilmiy faktlarni yodlatish kutilgan natijani bermaydi. Zamonaviy yondashuv o‘quvchi-talabani darsning markaziga olib chiqishni va unda mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirishni talab etadi. Shu boisdan ham, konstruktivizm nazariyasiga asoslangan 5E va 7E kabi instruksional modellar biologiya darslarining sifatini tubdan yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi [Turdiyev, 2021: 45].

METODOLOGIK ASOSLAR. Tadqiqotimizning maqsadi — biologiya yo‘nalishidagi laboratoriya mashg‘ulotlarida 7E modelini qo‘llash orqali talabalarning bilish faolligini dinamikasini tahlil qilishdir. 7E modeli nafaqat darsni tizimlashtiradi, balki talabaning har bir bosqichda faol ishtirok etishini ta’minlaydi [Eisenkraft, 2003: 56]. Ushbu modellar o‘quvchi dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi [Bybee, 2009: 12].

ASOSIY QISM VA TAHLIL. Biz o‘z tajribamizda biologiya darslarini, xususan mikrobiologiya va o‘simliklar fiziologiyasi bo‘limlarini o‘rganishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirdik:

Elicit (Aniqlash): Mashg‘ulot boshida talabalarning mavzu bo‘yicha bazaviy bilimlari tekshirildi. Masalan, bakteriyalarning roli haqidagi tushunchalar "Aqliy hujum" orqali aniqlandi [G‘ofurov, 2020: 32].

Engage (Jalb qilish): Vizual materiallar yordamida talabalarda darsga nisbatan ichki motivatsiya uyg‘otildi.

Explore (Tadqiq etish): Talabalar laboratoriya sharoitida mikroskop bilan mustaqil ishladilar. Bu bosqichda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi [Lawson, 2010: 88].

Explain (Tushuntirish): Kuzatilgan natijalar ilmiy terminologiya bilan bog‘landi.

Elaborate (Mustahkamlash): Olingan bilimlar amaliyotga, masalan, biotexnologiya va qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqildi [Karimov, 2023: 14].

Evaluate (Baholash): Talabalarning nafaqat yakuniy bilimi, balki tadqiqot o‘tkazish jarayonidagi faolligi ham baholandi.

Extend (Kengaytirish): Mavzu fanlararo bog‘lanish bilan yakunlandi. Xalqaro baholash tizimlari ham tabiiy fanlarni amaliyot bilan bog‘lashni tavsiya etadi [PISA, 2022: 21].

ILMIY NATIJALAR. O‘tkazilgan pedagogik tajribalarimiz shuni ko‘rsatadiki, ushbu metodika qo‘llanilgan guruhlarda talabalarning materialni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy metodga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlash va laboratoriya jihozlari bilan ishlash madaniyati yuksalgani kuzatildi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, biologiya darslarida 7E modelini tizimli qo‘llash o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa bo‘lajak biolog-mutaxassislarning professional kompetensiyalarini shakllantirishda muhim drayver bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Bybee, R. W. (2009). The BSCS 5E Instructional Model. NSTA Press.
2.Eisenkraft, A. (2003). Expanding the 5E Model. The Science Teacher journal.
3.Turdiyev N.Sh. (2021). Biologiya o‘qitish metodikasi. Toshkent: "Universitet".
4.G‘ofurov A.T. (2020). Biologiya o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
5.Lawson, A. E. (2010). Teaching Inquiry Science. Sage Publications.
6.Karimov I.A. (2023). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. "Pedagogika" jurnali.
7.Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) bo‘yicha metodik qo‘llanmalar. (2022).

Gavur qalada o‘sayotgan Anabasis aphylla ning bioekologik xususiyatlari

Ajiniyaz nomidagi NDPI
4-kurs talabasi Ashirova M.

Annotatsiya. Ushbu ishda Gavurqala hududida tarqalgan Anabasis aphylla o‘simligining bioekologik, anatomik va fiziologik xususiyatlari o‘rganildi. O‘simlikning ekologik moslanishlari, fitotsenozdagi o‘rni hamda edifikator tur sifatidagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ushbu turning cho‘l ekotizimida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar**: Anabasis aphylla, kserofit, galofit, edifikator, fitotsenoz, pioner tur, transpiratsiya, adaptatsiya.*

Kirish. Cho‘l hududlari keskin kontinental iqlimi, kam yog‘ingarchiligi va sho‘r tuproqlari bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda faqat maxsus moslashgan o‘simliklar yashay oladi. Gavurqala hududi ham ana shunday ekologik zonalardan biri bo‘lib, bu yerda o‘suvchi Anabasis aphylla o‘zining yuqori moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu o‘simlik nafaqat o‘z hayot faoliyatini saqlab qoladi, balki boshqa turlar uchun ham yashash muhiti yaratib, edifikator sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologiya (Tadqiqot materiallari va uslublari):

Ushbu tadqiqot 2025-yil kuz mavsumida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi (xususan, Gaur qala atrofidagi) tabiiy ekotizimlarda olib borildi. Tadqiqot jarayonida Anabasis aphylla o‘simligining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida quyidagi usullardan foydalanildi:

Dala kuzatuv usuli: O‘simliklarning tabiiy o‘sish muhiti, tuproq tarkibi va iqlimiy sharoitlar vizual hamda tahliliy kuzatuvdan o‘tkazildi.

Morfologik tavsiflash: O‘simlikning yer ustki qismi, ildiz tizimi va barg tuzilishi (reduksiya darajasi) ilmiy nomenklatura asosida tahlil qilindi.

Ekologik baholash: Anabasis aphylla ning kserofit va galofit xususiyatlari, uning ekstremal qurg‘oqchilikka va sho‘rlangan tuproqqa moslashuvchanlik darajasi taqqoslama tahlil asosida o‘rganildi.Anabasis aphylla ko‘p yillik, bargsiz, butasimon o‘simlik bo‘lib, asosan sho‘r va qumli tuproqlarda o‘sadi. Uning yashil poyasi fotosintez jarayonini bajaradi, barglarning reduksiyaga uchrashi esa transpiratsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Ildiz tizimi chuqur rivojlangan bo‘lib, yer osti namligini o‘zlashtirish imkonini beradi."A.M. Mabutovning ta'kidlashicha, Anabasis aphylla Qoraqalpog'istonning arid zonalarida 8dominant turlardan biri bo'lib, u tuproqning sho'rlanish darajasiga qarab o'z morfologik tuzilishini o'zgartiradi [Mabutov, 1994; 49-bet]."

O‘simlikning anatomik tuzilishi ham ekstremal sharoitlarga moslashgan. Unda qalin kutikula qavati mavjud bo‘lib, suv yo‘qotilishini kamaytiradi. Mexanik to‘qimalar yaxshi rivojlanganligi sababli o‘simlik kuchli shamollarga bardosh bera oladi. O‘tkazuvchi to‘qimalar, xususan ksilema va floema tizimi rivojlangan bo‘lib, suv va oziqa moddalarning samarali tashilishini ta’minlaydi. Shuningdek, suv saqlovchi hujayralar mavjudligi qurg‘oqchilik sharoitida yashash imkonini oshiradi.

Fiziologik jihatdan Anabasis aphylla suvni tejab sarflash xususiyatiga ega. U

galofit o‘simlik sifatida tuzlarni to‘plash yoki chiqarish qobiliyatiga ega. Fotosintez jarayoni ham qurg‘oqchilik sharoitiga moslashgan holda kechadi. Bundan tashqari, o‘simlik yuqori haroratga chidamliligi bilan ajralib turadi.

Gavurqala hududida o‘simlik sho‘r va qumli tuproqlarda, kam yog‘ingarchilik va yuqori harorat sharoitida o‘sadi. Ushbu muhitda Anabasis aphylla nafaqat yashaydi, balki ekologik tizimda muhim rol o‘ynaydi. U fitomeliorativ o‘simlik sifatida tuproqni mustahkamlaydi, eroziyani kamaytiradi va tuproq unumdorligini yaxshilaydi. Shu bilan birga, u pioner tur sifatida yangi yoki buzilgan hududlarda birinchi bo‘lib o‘sib chiqadi.

Mazkur o‘simlikning muhim xususiyatlaridan biri uning edifikatorlik roli hisoblanadi. U atrofida mikroiqlim hosil qiladi, namlikni saqlaydi va boshqa o‘simlik turlarining o‘sishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli u fitotsenozning strukturasi va barqarorligini ta’minlovchi asosiy komponentlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, u hasharotlar va mikroorganizmlar uchun ham yashash muhiti yaratadi.Anabasis aphylla asosan urug‘ orqali ko‘payadi. Uning urug‘lari noqulay sharoitlarda ham unish qobiliyatiga ega. Biroq so‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, yaylovlardan ortiqcha foydalanish va antropogen omillar ta’sirida uning tabiiy areali qisqarib bormoqda. Anabasis aphylla L. turining Gaur qala hududidagi bio-ekologik holati

2025-yil 23-sentabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasining Gaur qala arxeologik yodgorligi atrofidagi tabiiy ekotizimlarda Anabasis aphylla L. (bargsiz anabasis) o‘simligi ustida kompleks dala tadqiqotlari olib borildi. Tadqiqot jarayonida hududning iqlimiy ko‘rsatkichlari, tuproq (edafik) sharoitlari, o‘simlikning morfologik va biometrik xususiyatlari hamda populyatsion holati o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.



2-rasm. Anabasis aphylla L. turining Gaur qala hududidagi bio-ekologik holati.

Dala tadqiqotlari davomida o‘simlikning morfometrik ko‘rsatkichlari aniqlanib, ularning o‘rtacha qiymatlari quyidagicha qayd etildi:

O‘simlik balandligi: 30–60 sm. Bu farq populyatsiyada turli yosh guruhlari mavjudligi bilan bog‘liq. Yosh (yuvenil) o‘simliklar past bo‘yli, generativ bosqichdagilari esa balandroq bo‘ladi.


Poya tuzilishi: markaziy poya yaxshi rivojlangan, diametri 0,8–1,0 sm atrofida, pastki qismi yog‘ochlangan. Bu xususiyat o‘simlikka mexanik mustahkamlik beradi.Novdalar: joriy yilda hosil bo‘lgan novdalar uzunligi o‘rtacha 10–13 sm bo‘lib, faol vegetativ o‘sishni ko‘rsatadi.Barglarning reduksiyasi: barglar evolyutsion jihatdan reduksiyaga uchrab, fotosintez funksiyasi yashil novdalarga o‘tgan. Bu holat suv yo‘qotilishini kamaytiradi va transpiratsiyani cheklaydi.

Rangi: o‘simlikning umumiy rangi kulrang-yashil bo‘lib, bu quyosh nurlarini qaytarish orqali qizib ketishdan himoya qiladi.

Mazkur morfologik belgilar Anabasis aphylla ning kserofit o‘simlik sifatida shakllanganligini tasdiqlaydi.

Ahamiyati. Ushbu o‘simlik chorvachilikda muhim yem-xashak manbai hisoblanadi, ayniqsa qish mavsumida. Ba’zi hududlarda yoqilg‘i sifatida ham foydalaniladi. U cho‘llanish jarayonini sekinlashtiradi va ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Muhofaza choralari. O‘simlikni saqlab qolish uchun yaylovlardan oqilona foydalanish, sun’iy ko‘paytirish, monitoring ishlarini olib borish hamda qo‘riqlanadigan hududlarni kengaytirish zarur.



1-rasm.Anabasis aphylla o‘simligining Qaraqalpog‘istonhududlarida tarqalishi xaritasi.

Anabasis aphylla o‘simligining Priaralye hududidagi biotopik tarqalishi, asosan, takir, gil aralash, shag‘alli, toshloq, qumoq va kam sho‘rlangan tuproqlar bilan bog‘liq. Anabasis aphylla asosiy tarqalish massivlari Mo‘ynoq, Qo‘ng‘irot, Chimboy, Shumanay tumanlarida, shuningdek Sultanuvaizdag tog‘ etaklarida uchraydi.Priaralye mintaqasining shimoliy qismida Anabasis aphylla Mo‘ynoq tumanidagi Qozog‘daryo o‘rmon xo‘jaligidan boshlab Chimboy tumanigacha bo‘lgan hududlarda qayd etilgan.Janubda esa o‘simlik asosan Qanliko‘l tumani, Porlitao balandliklari, Nukus va Beruniy tumanlarida — ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasining janubiy qismlarida uchraydi.

Xulosa. Gavurqala hududida o‘sayotgan Anabasis aphylla o‘simligi yuqori darajada moslashgan kserofit va galofit tur hisoblanadi. U nafaqat qurg‘oqchilik va sho‘rlanish sharoitida yashaydi, balki edifikator va pioner tur sifatida boshqa organizmlar uchun yashash muhitini yaratadi. Shu bois ushbu o‘simlikni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.


1.Bahiev A.B. Ekologiya i fitotsenologiya rastitelnosti nizovey Amudaryi. – Tashkent: Fan, 1985.
2.Mabutov A.M. Karakalpakstannıń ósimlikler dúnyası. – Nókis: Bilim, 1994.
3.Sherbaev B.Sh. Flora Karakalpakstana. – Nukus: Karakalpakstan, 1982.
4.Sherbaev B.Sh. Flora Nukusskogo rayona. – Tashkent: Fan, 1978.
5.Kuznechov V.V. Orolbo‘yi florasi va o'simliklar qoplami tahlili. – Toshkent, 2010.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA *ZIZIPHUS JUJUBA* MILL. NING GULLASH XUSUSIYATLARI

U.T. Azilova, tayanch doktorant
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutı, Nukus shahri.
Qoraqalpog‘iston. azilovaulbos@gmail.com

Hozirgi kunda dunyoda manzarali, noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simliklarni tizimli ko‘paytirish, ulardan ekologiyada foydalanishga yashil makon umummilliy loyihasini tashkil etishda, foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. *Ziziphus jujuba* Mill., Markaziy Osiyoda tarqalgan relikt subtropik o‘simlik tur bo‘lib, uning tabiiy areali keskin qisqarib bormoqda. Shu sababli mazkur tur noyob va muhofazaga muhtoj o‘simlik sifatida O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Tabiiy sharoitda u asosan G‘arbiy Tyanshan hududlarida, quruq, toshli yonbag‘irlarda va daryo hamda soy boylarida o‘sadi[1].

Juda qadimdan mevali hamda dorivor o‘simlik sifatida ekib kelingan. O‘zR FA Botanika bog‘ida 1958-yildan buyon ekib kelingan. Muhofaza qilish uchun Surxon davlat qoriqxonasida va Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘ida saqlanadi.



1-rasm. *Z.jujuba* turining tarqalish xaritasi (https://powo.science.kew.org/).

Ziziphus jujuba daraxti asosan Toshkent, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari: G‘arbiy Tyan-shan (Ugom, Chatqol, Qorjontov tizmalari), G‘uzor daryosi havzasida Shurob, Qushtutsoy, Zinchab, Zarchov, Duoba va Tamshush qishloqlari atroflarida tarqalgan. Tojikiston, Turkmaniston, Kavkazortida ham tarqalgan. Bu tur O‘rta yer dengizidan Yaponiyagacha tarqalgan.

Ziziphus jujuba Mill., o‘simligi chilonjiydadoshlar (*Rhamnaceae*) oilasiga mansub. Dunyo bo‘ylab *Z.jujuba* ning 170 ga yaqin turi mavjud bo‘lsa-da, qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil mintaqalarda mahalliy aholi va tibbiyot amaliyotchilari tomonidan ko‘plab kasalliklarni davolash va funktsional oziq-ovqat

sifatida keng qo‘llaniladigan atigi 58 tur mavjud [2].

Z.jujuba turi va navlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot 2023-2025-yillarda amalga oshirildi.

Z.jujuba gullari barglarga nisbatan biroz kechroq ochiladi. To‘pguli shingilsimon bo‘lib, undagi gullar soni o‘simlik navi va ekologik sharoitlarga bog‘liq holda o‘zgaradi. Gullari mayda, ikki jinsli, aktinomorf bo‘lib, yashil yoki sarg‘ish rangda kuzatiladi. Gulkosasi 5 ta kosachabargdan, gultoji esa 5 ta tojbargdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro navbatma-navbat joylashgan. Changchilari 5 ta bo‘lib, tojbarglarga qarama-qarshi holatda joylashadi. Gul bandining uzunligi o‘rtacha 5–6 mm ni tashkil etadi. Kosachabarglarning uzunligi 1–1,5 mm bo‘lib, ular erkin joylashgan.



2-rasm. *Z.jujuba* gulining morfologik tuzilishi

a-g‘unchalari, b-shingilsimon to‘pguli, d-shakllanayotgan mevasi

Z.jujuba boshqa ko‘pchilik mevali daraxt turlariga nisbatan qisqa davom etuvchi yuvenil rivojlanish davriga ega bo‘lib, tabiiy arealida odatda ekilgandan so‘ng birinchi yilidayoq hosil berishi qayd qilingan [3].

Iqlimlashtirilgan sharoitda esa bu ko‘rsatkich ekologik omillar va genotip xususiyatlariga bog‘liq holda u yoki bu tomonga o‘zgarishi mumkin.

T.B. Литвинова (2010) ma’lumotlariga ko‘ra Qrimning Nikita Botanika bog‘i sharoitida *Z.jujuba* urug‘idan ekilganda 3-4 yoshida generativ bosqichga kirishi qayd etilgan [4].

Yao (2015) tadqiqotlariga ko‘ra, AQSHning Kaliforniya, Arizona va Nevada shtatlarida urug‘dan ko‘paytirilgan *Ziziphus jujuba* Mill., daraxtlari odatda 3-yoshga kelib gullaydi va hosil bera boshlaydi. Vegetativ ko‘paytirilgan (payvandlangan) o‘simliklarda esa gullash va hosil berish 2-yoshdan boshlab kuzatiladi [5].

Bizning Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida o‘tkazgan tadqiqotlarimizda urug‘idan ekilgan o‘simliklar birinchi yilida generativ bosqichga kirishi kuzatildi. Ushbu davrda daraxtlarda generativ organlar kam miqdorda rivojlandi va bitta o‘simlikda o‘rtacha gullar soni 25–30 ta gacha bo‘ldi. Urug‘idan o‘stirilgan o‘simliklar uchta hududda sinovdan o‘tkazildi: Amudaryo tumani, Nukus tumani va Nukus shahri. Amudaryo va Nukus tumanlarida gullar 10-12 kun davomida gullab to‘kilib ketdi va meva hosil bo‘lmadi, holbuki Nukus shahridagi daraxtlar gullab, meva berishi kuzatildi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajriba maydoni iqlim va

tuproq sharoitlari *Z.jujuba* daraxtlarining generativ rivojlanishi va meva hosil qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Gul kurtaklar maxsus generativ novdalarda joylashgan bo'lib, bularning shakllanishi uchki meristema hujayralari hisobiga yuzaga keladi. *Ziziphus jujuba* ning reproduktiv organlarini aniqlashda g'uncha, gulqo'rg'onning shakllanishi, gulning rivojlanishi, novdalarda joylanishi, gullash davriga o'tishi, gultojibarglarining ochilishi, changlanishi va to gulning so'lishigacha hamda urug'ning hosil bo'lishigacha bo'lgan jarayonlar o'rganildi. Gul kurtaklarining joylashuvi akropetal bo'lib, yuqoriga qarab ketma – ketlikda joylashgan va shu negizida gulning ochilishi ham sodir bo'ladi. Urug'larning pishib yetilish jarayoni ham shu tarzda kechadi.

Z.jujuba gullari hashoratlar yordamida changlanadi. Shuning uchun ular entomofil o'simliklar qatoriga kiritiladi. Gullarining changlanishida asosan asalarilar, qovoqarilar, xartumli hashoratlar ishtirok etadi. G'unchalash bosqichi iyun oyining ikkinchi dekadasida boshlanib, avgust oyining boshigacha davom etdi. Generativ bosqichda yon novdalarning turli tartib darajalarida gullar soni farqlanishi kuzatildi. Xususan, 5-tartibli novdalarda 4 ta gul, 6-tartibli novdalarda 8 ta, 7-tartibli novdalarda 7 ta, 8-tartibli novdalarda 5 ta gul hosil bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gullash intensivligi, asosan 6-7 tartibli novdalarda qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1 : Растения и грибы. Ташкент: «Chinor ENK», 2009.
2. Грубов В.И. Сем. *Rhamnaceae* // Деревья и кустарники СССР.Т.4.М.-Л: АН СССР.1958.-С. 526-607.
3. Zhang, L. et al. Genome-wide identification, characterization of the MADS-box gene family in Chinese jujube and their involvement in flower development. Sci. Rep.7, 1025 (2017).
4. Литвинова Т.В. Интродукция и сортоизучение зизифуса в Никитском ботаническом саду // Труды Никитского ботанического сада. – Ялта, 2010. – Т. 132. – С. 189–194.
5. Yao S., Huang J., Heyduck R. Jujube (*Ziziphus jujuba* Mill.) Flowering and Fruiting in the Southwestern United States // *HortScience*. – 2015. – Vol. 50, № 6. – P. 839–846. – DOI: https://doi.org/10.21273/HORTSCI.50.6.839
6. Azilova U.T. Assessment of seed germination of jujube (*Ziziphus jujuba* Mill.) under field conditions // *American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations*. – 2025. – Vol. 5, № 12. – P. 12–15. – DOI: https://doi.org/10.37547/ajahi/Volume05Issue12-05
7. Azilova U.T., Ajiev A.B. Introduction of *Ziziphus jujuba* Mill. in the conditions of the Republic of Karakalpakstan // *Journal of International Scientific Research*. – 2024. – Vol. 1, Issue 2. – October. – P. 406–412. – https://spaceknowladge.com

BAZI KEMIRIWSHILERDIŃ QÁWIPLI JUQPALI KESELLIKLERDI TARQATIWDAĠI EPIDEMIOLOGIYALIQ SPATLAMASI

Baygeldieva N. J. – Respublikalık Oba Profilaktika Orayı Karakalpakstan filialı.
Zooparazitologiya laboratoriyası meńgeriwshisi
Kadamova Z.D – Biologiya tálim baģdarı talabası.

Joqarı qábiletlilikke–sezimtallıqqa iye haywanlar populyaciyası ishinde juqpalı keselliklerdiń tarqalıwın úyreniwde osob`lar ara qatnas baylanısın izertlew eń baslı máselelerdiń birinen esaplanadı. Sonlıqtanda bul baylanıslardı úyreniw úlken qızıģıwshılıqtı oyatadı hám ádewir quramalı wazıypa sanaladı. Sebebi keselliktiń tarqalıwı haqqında tikkeley maģlıwmatqa iye bolıw ushın metodikanıń joqlıģı úlken qıyınshılıq tuwdıradı. Sonlıqtanda kóplegen ilimpazlar hár túrli oba oshaģında islep hám ekinshi dárejeli maģlıwmatlardan paydalanģan, yaģnıy kemiriwshilerdi uslawda olar ústindegi sol túrge tán emes búrgelerdiń ushırasıwın esapqa alģan halda, túrler aralıq parazitarlıq kontakttıń barlıģına tiykarlanıp, kesellikti awırıwınan sawına uzatıwda, jetkeriwde búrgelerdiń rolin joqarı bahalaģan. Solay etip E.N.Pavlovskiy (1930) Úy tıshqanınıń specifikalıq búrgesi (Nosapsyllus fidus) tı Úlken qum tıshqanı (Orta Aziya tegislik oba oshaģınıń negizgi saqlawshısı) ústinen tapsa, B.K.Fenyuk hám M.P.Demyashev (1936) jıńģıllıq qum tıshqanı (Meciones tamaricinus hám M.meridianus) háreketin úyreniwde. Osob`lar hám túrler aralıq qatnasta ektoparazit almasıwına úlken epidemiologiyalıq áhimiyet beredi. N.P.Naumov (1954) osob`lar aralıq kontakttı bahalawda haywanlardıń landshaftlar boyınsha bólistiriliwine birinshi dárejeli áhimiyet beredi. A,A,Sludskiy hám M.M.Ismagilov (1957) kemiriwshiler hár túrli kompleksiniń aralasıwına-shólistannıń, yarım shólistannıń hám dala shólistanınıń Bet-Paq-Dalanıń oraylıq bóliminde Qum tıshqanlarınıń barlıq túrleriniń tıģız kontaktti jasaytuģınına hám olardıń arqaģa qaray kirip baratırģanın hám sol orınlar menen Arqadan Qublaģa sarı balpaqtıń, dala pshuxasınıń arealınıń kóshiwin jazadı. Al ol territoriyanıń I.V.Jernovov, G.D.Svidenko (1961) Qaraqum oypatında (Túrkmenstan) yarım kún qum tıshqanınıń Úlken qum tıshqanı koloniyası menen kontaktta bolıp hám onıń salqın dáwirde joqarı dárejede bolatuģınlıģın jazadı. V.I.Bibikova (1963) yarım kun peschankasınıń Úlken qum tıshqanı koloniyasın paydalanıwı sebepli oģan tán búrgelerdi ertip alatuģının- Xenapsilla hirtipes, Nosopsillus tersus, Echidnophaga Oschanim, Paradaxapsylla teretifrons búrgeleri arqalı dálillep jazadı. K.T.Krılova, S.N.Varshavskiy h.t.b. (1957) 1946-1955 jj. Priaral Qaraqumı, Malıy-Barsukta hám Aral teńiziniń Arqa jaģalawında Úlken qum tıshqanınıń 6000 koloniyasın tolıq awlaw nátiyjesinde kemiriwshilerdiń 15 túrin uslaģan: (Yarım kun, jıńģıllıq, qızılquyrıqlı qum tıshqanların, úy tıshqanın, qosayaqlardı, balpaqlardı h.t.b.) Úlken qum tıshqanı ústinde hám inlerinen, uyasınan olarģa tán 8 túr búrgelerden basqa, basqa kemiriwshilerden 14 túr búrge hám mayda qum tıshqanlarına tán-Xenapsylla conformis, 5 qosayaqlardan alınģan. Úy tıshqanı óziniń hár túrli biotoplarda jasawģa joqarı iykemlesiwshiligi sebepli keńnen tarqalģan

bolıp, kóplegen túr kemiriwshiler menen hár túrli dárejedegi kontakta qatnasadı.Ásirese joqarǵı sandaǵı jılları, máwsimlerde kontakt baylanısı ádewir joqarı boladı. Bul jaǵday belgili epizootologiyalıq situaciyada úlken epidemiologiyalıq qáwip tuwdıradı. Tómengi Ámiwdár`ya del`ta toǵay landshaft hám biotoplar Qorshaǵan Qızılqum hám Ústirt oba oshaǵınan egislik zona territoriyası arqalı izolyaciyalanǵanlıqtan, onda tarqalǵan kemiriwshiler tek sol territoriyada tarqalǵan kemiriwshi túrleri menen jiyi kontakta boladı, al shólistanda tarqalǵan túrler baylanısı ádewir dárejede tómen keshedi. Toǵaylıqlar Ámiwdár`ya jaǵalawında jińishke lenta formasında hám úzilisli jaylasqanlıqtan sol jer biotopında tarqalǵan túrler menen kontakta bolǵanlıqtan parazitarlıq kontakt tek sol jerdiń kemiriwshi h.t.b. haywan túrleri menen kontakta bolǵanı sebepli oba keselliginen basqa kesellikler menende awıradı. Olarǵa tulyaremiya, Qırım Kongo Lixorodka ısıtpası, leptospris. Hár túrli kóp keselliklerdi juqtırıwshı keneler mayda hám iri shaqlı qaramallar kóplep ushırasatuǵın bolǵanlıqtan bul jer biocenozında keltirilgen haywan túrleri menen jaylaw, jataq ornları, jegen hám zapasqa jıynap qoyǵan hár túrli azıqlıq shópleri arqalı kontaktqa kirisedi. Bunday jaǵday Xojeli, Taxiatash h.t.b. rayonlarda mallar hám adamlar arasında sońǵı jılları tez ushırasıp turıptı. Aytılǵan kesellikler toǵay hám puta,yarım putalıq jaylaw mallarında, kemiriwshilerden óz-ara joqarı kontaktta (Qoyan, jalpaq tisli krısa, úy tıshqanı hám olardıń keneleri) bolǵanlıǵı sebepli kesellik aylanısta bolıwı sózsiz. Egislik zonası keń territoriyanı óz ishine aladı. Bir jaǵınan toǵay ekosisteması ekinshi jaǵınan Qızılqum, Ústirt oba oshaqları menen, olarda tarqalǵan kóp túrli, joqarı sanlı kemiriwshiler hám olardıń kóp túrli hám sanlı búrgeleri arqalı túrler aralıq, túr ishi kontakt formaları kóp. Qızılqum oshaǵınıń tiykarǵı tasıwshı – taratıwshı-Úlken qum tıshqanı menen usı eki ekosistemada tarqalǵan 13 túr kemiriwshilerdiń bir-biri menen kontakt baylanısı aytılǵan dárejedende kóp túrlikke iye. Tiykarǵı kontakt olar ústindegi kóp sanlı búrgeler almasıwı arqalı iske asırıladı. Ásirese túrler aralıq kontakt birneshe túr kemiriwshilerde parazitlik etetuǵın, yaǵnıy ulıwmalıq búrgeler túriniń kóptúrligine baylanıslı kontakttıń jiyi hám onsha jiyi emesligine qaray epizootologiyalıq processke baha beriledi. Epizootiyalıq situaciyanıń xarakteri- qáwipli, qáwipsizligi anıqlanadı. Epidemiologiyalıq jaǵday anıqlanadı, ilaj kóriledi h.t.b. Biziń jaǵdayımızda egislik zona ekosistemasında tarqalǵan kemiriwshiler túri esapqa alınıp, olardıń túr ishindegi hám aralıq kontakt baylanısı úyrenilip, oǵan epidemiologiyalıq baha berildi.

Ulıwmalastırıp aytqanda, mádeniy landshaft zonalar ekosistemasınıń názik ekologiyalıq jaǵdayın úyreniw, keselliktiń aldın ala ilaj kóriw máselesin, yaǵnıy keselliktiń elatlı punkt maydanına kirip keliwiniń ekologiyalıq mexanizmin úyreniwden, temanıń tiykarǵı maqseti hám wazıypası da sonnan ibarat bolıp, xalıqtıń tınısh, salamat jasawına xızmet etiwden onı támiyinlew, ámeliyatta qollanıw jolların islep shıǵıwdan ibarat.

Ádebiyatlar

1. Vinogradov B.S.,Argiropulo A.I.,Geptner V.G. 1936. Grızunı Sredney Azii, ANSSSR,M-L.

2. Vinogradov B.S., Gromov I.M., 1952. Grızunı faunı SSSR. M-L.

3. Asenov G.A. Ekologiya grızunov oazisa nizov`ev Amu-Dar`i i ix epizootologicheskoe i epidemiologicheskoe znacheniya. Avtoreferat kand.disser. 19 s. Frunze. 1968.

4. Bel`tishev P.A. O zemlyanıy krıse v del`te Amu-Dar`i Vestnik zashitı rasteniy №2.1941.

5. Bondar` E.P. K voprosu o raspredeleniy zemlyanoy krısı po oroshaemım zemlyam Sredney Azii i predupreditel`nıx merax k eyo rasseleniyu. Nauch.konf.NIU Sredney Azii i Kazaxstana (Tez.dokl) Alma-Ata 1959.

ARALBOYI AYMAǴINDA EKOLOGIYALIQ TEŃSALMAQLILIQTI TIKLEW BOYINSHA XALIQARALIQ SHERIKLIK ILAJLARI

Bayniyazova Gulayım Salamatdin qızı
Ájiniyaz atındaǵı NMPI tayanısh doktarantı
gulayim.bayniyazova.@ndpi.uz

Annotaciya:

Bul maqalamızda Aralboyı aymaǵında júzege kelgen ekologiyalıq krizis sharayatında ekologiyalıq teń salmaqlılıqtı tiklew boyınsha xalıqaralıq sherikliktiń tiykarǵı baǵdarları talqılanadı. Aral teńiziniń quriwı nátiyjesinde payda bolǵan ekologiyalıq, sociallıq hám ekonomikalıq mashqalalardı jumsartıwda mámleketleraralıq sheriklik, xalıqaralıq shólkemlerdiń iskerligi hám de regionlıq baǵdarlamalardıń áhmiyeti sáwlelendiriledi. Sonıń menen birge, ekologiyalıq tikleniw processlerinde turaqlı rawajlanıw principlerin engiziw hám innovaciyalıq jantasıwlardıń ornı kórip shıǵıladı.

Gilt sózler:

Aralboyı, ekologiyalıq krizis, xalıqaralıq sheriklik, ekologiyalıq teńsalmaqlılıq, turaqlı rawajlanıw, suw resursları, regionlıq baǵdarlamalar, ekologiyalıq tikleniw.

Kirisiw

Aralboyı regionı sońǵı on jıllıqlarda dúnyadaǵı eń iri ekologiyalıq krizislerdiń biri sıpatında tán alınǵan aymaqlardan esaplanadı. Aral teńiziniń keskin quriwı nátiyjesinde tek ǵana suw resursları kemeyip qoymastan, al pútkil regionnıń ekologiyalıq sisteması, klimat sharayatı, xalıqtıń turmıs dárejesi hám ekonomikalıq turaqlılıǵı da awır zıyan kórdi. Duzlı shań boranları, topıraqtıń degradaciyası, biotúrliliktiń kemeyiwi hám de xalıq salamatlıǵına unamsız tásirleri bul aymaqtaǵı ekologiyalıq mashqalalardıń tereńligin jáne de asırdı.

Búgingi kúnde Aralboyı mashqalası tek bir mámlekettiń ishki ekologiyalıq máseleleri emes, al xalıqaralıq kólemdegi global ekologiyalıq qáwipsizlik mashqalası sıpatında qaralmaqta. Sol sebepli, bul aymaqta ekologiyalıq teńsalmaqlılıqtı tiklew processleri kóp tárepleme jantasıwdı, yaǵnıy mámleketleraralıq sheriklikti, xalıqaralıq shólkemlerdiń qatnasıwın hám de ilimiy-izertlew mákemeleriniń iskerligin talap etedi.

Xalıqaralıq sherikliktiń tiykarǵı maqseti - Aralboyı aymaǵında ekologiyalıq turaqlılıqtı támiyinlew, suw resurslarınan aqılǵa muwapıq paydalanıw, shólleniw processin páseytiw hám de xalıqtıń jasaw sharayatın jaqsılawdan ibarat. Bul baǵdarda Birlesken Milletler Shólkemi, Jáhán banki, Evropa Awqamı hám de basqa da xalıqaralıq ekologiyalıq shólkemler tárepinen túrli baǵdarlamalar hám joybarlar ámelge asırılmaqta.

Sonıń menen birge, Aralboyı mashqalasın sheshiwde Oraylıq Aziya mámleketleri arasındaǵı sheriklik te áhmiyetli orın iyeleydi. Sebebi suw resursları transshegaralıq xarakterge iye bolıp, olardı basqarıw hám ádillikli menen bólistiriw tek ǵana regionlıq kelisimler tiykarında nátiyjeli ámelge asırılıwı múmkin.

Tiykarǵı bólim

Aral teńizi mashqalası XX ásirdiń ekinshi yarımında suw resurslarınan nadurıs hám shekten tıs paydalanıw nátiyjesinde júzege kelgen eń iri ekologiyalıq krizislerdiń biri sıpatında bahalanadı. [1] Ámiwdárya hám Sırdárya suwlarınıń úlken bóleginiń suwǵarılatuǵın diyqanshılıq jerlerine baǵdarlanıwı teńizge quyılatuǵın suw muǵdarınıń keskin azayıwına alıp keldi. Nátiyjede Aral teńizi az-azdan qurıp bardı, onıń maydanı qısqardı hám shorlanǵan shól aymaqları keńeydi. Bul process regionnıń tábiyiy ekologiyalıq teńsalmaqlılıǵın izden shıǵardı.

Aral teńizi mashqalası Ózbekstan ushın eń áhmiyetli ekologiyalıq máselelerdiń biri bolıp esaplanadı. Sol sebepli PrezidentimizShavkat Mirziyoev basshılıǵında bul aymaqqa ayrıqsha itibar qaratılmaqta.

Prezidenttiń baslaması menen Aralboyı regionın qayta tiklew, onıń ekologiyalıq jaǵdayın jaqsılaw hám xalıqtıń turmıs sharayatın kóteriw boyınsha keń kólemli jumıslar ámelge asırılmaqta. Atap aytqanda, teńizdiń qurıǵan túbindegi millionlaǵan gektar maydanǵa terekler hám putalar egilip, shań hám duz kóshelerin kemeytiw ilajları kórilmekte. Bul tek ǵana ekologiyalıq jaǵdaydı jumsartıp qoymastan, bálki aymaq klimatın turaqlılastırıwǵa da xızmet etedi.

Bunnan tısqarı, Aralboyında jasaytuǵın xalıq ushın jańa jumıs orınların jaratıw, infrastrukturanı rawajlandırıw, ishimlik suwı hám medicinalıq xızmet sapasın jaqsılawǵa qaratılǵan joybarlar da izbe-iz ámelge asırılmaqta. Xalıqaralıq sheriklik sheńberinde de kóplegen baslamalar alǵa súrilip, donor shólkemler menen birgelikte ekologiyalıq baǵdarlamalar turmısqa engizilmekte.



1-súwret. Ózbekistan respublikası prezidenti Sh.M.Mirziyoyev (Qaraqalpaqstan respublikası Aral boyı qurıǵan túbi)


Ulıwma alǵanda, Prezidenttiń Aral mashqalasına qaratıp atırǵan itibarı tek ǵana búgingi ekologiyalıq jaǵdaydı jaqsılawǵa emes, al keleshek ávlad ushın saw-salamat ortalıqtı saqlap qalıwǵa xızmet etpekte.

Ekologiyalıq ózgerisler Aralboyı aymaǵında bir qatar unamsız aqıbetlerdi keltirip shıǵardı. Topıraqtıń shorlanıw dárejesi artıp, jer ónimdarlıǵı páseydi,

diyqanshılıq penen shuǵıllanıw qıyınlastı. Qurıǵan teńiz túbinen kóteriletuǵın duz hám shań bólekshesleri atmosferaǵa tarqalıp, tek ǵana jergilikli emes, bálki alıs aymaqlardıń da klimatına tásir etpekte. Xalıqtıń densawlıǵında bolsa dem alıw jolları keselliklerı, allergiyalıq jaǵdaylar hám basqa da ekologiyalıq faktorlarǵa baylanıslı mashqalalar kúsheygen.

Bul mashqala mámleketlerara xarakterge iye bolǵanı sebepli onı sheshiw tek bir mámleket sheńberinde múmkin emes. Sol sebepli Oraylıq Aziya mámleketleri arasında suw resursların basqarıw hám ekologiyalıq turaqlılıqtı támiyinlewge qaratılǵan sheriklik mexanizmleri qáliplestirilgen. Araldı qutqarıw xalıqaralıq fondı bul baǵdarda tiykarǵı muwapıqlastırıwshı dúzimlerdiń biri bolıp, ol suw resurslarınan aqılǵa muwapıq paydalanıw, ekologiyalıq joybarlardı ámelge asırıw hám regionallıq sheriklikti bekkemlewge xızmet etedi. Bunnan tısqarı, Birlesken Milletler Shólkemi hám onıń qánigelesken dúzimleri tárepinen Aralboyı aymaǵında ekologiyalıq jaǵdaydı jumsartıw, xalıqtıń turmıs sharayatın jaqsılaw hám de turaqlı rawajlanıwdı qollap-quwatlarǵa qaratılǵan hár qıylı baǵdarlamalar ámelge asırılmaqta.

2-súwret. Araldıń aldınǵı hám házirgi kórinisi súwretlengen:



Xalıqaralıq sheriklik sheńberinde ámeliy ekologiyalıq tiklew jumısları da alıp barılmaqta. Qurıǵan teńiz túbinde hám átirapındaǵı aymaqlarda shorlanıw hám shańnıń tarqalıwın azaytıw maqsetinde seksewil hám basqa da shólge shıdamlı ósimlikler egilmekte. Bul ilajlar samal arqalı taralatuǵın duz hám shań muǵdarın

azaytıwǵa, sonday-aq, ekologiyalıq teńsalmaqlılıqtı qayta tiklewge xızmet etedi. Sonıń menen birge, irrigaciya sistemaların modernizaciyalaw, suwdıń joǵalıwın azaytıw hám suw resurslarınan nátiyjeli paydalanıw boyınsha texnikalıq hám innovaciyalıq joybarlar ámelge asırılmaqta. Bul bolsa regionda suw jetispewshiligi mashqalasın jumsartıwǵa járdem beredi. Qazaqstan aymaǵında qurılǵan Kókaral bógeti nátiyjesinde Kishi Aral teńiziniń bir bóleginiń qayta tikleniwi ámeliy ilajlardıń nátiyjeliligin kórsetetuǵın áhmiyetli mısallardıń biri bolıp tabıladı.

Aralboyı ekologiyalıq mashqalaların sheshiwde turaqlı rawajlanıw principleri de úlken áhmiyetke iye. Bul princip ekologiyalıq sistemanı saqlaw menen birge ekonomikalıq hám sociallıq rawajlanıwdı teń salmaqlı alıp barıwdı názerde tutadı. Ilimiy-izertlew orayları tárepinen suw resursların basqarıwdıń jańa texnologiyaların islep shıǵıw, klimat ózgerisleriniń tásirin úyreniw, shólleniw processlerin boljaw hám de ekologiyalıq monitoring sistemaların jetilistiriw boyınsha izertlewler alıp barılmaqta. Bul ilimiy kózqaraslar xalıqaralıq sheriklik penen uyǵınlasqan halda Aralboyı aymaǵında ekologiyalıq teńsalmaqlılıqtı qayta tiklew processlerin nátiyjeli shólkemlestiriw imkaniyatın beredi.

Aral teńizi mashqalası adamzat tariyxındaǵı eń iri ekologiyalıq apatshılıqlardan biri sıpatında bahalanadı. XX ásirdiń birinshi yarımına shekem Aral teńizi dúnyadaǵı tórtinshi iri ishki suw háwizi esaplanıp, ol tek ǵana tábiyiy ekotizim emes, al regionnıń ekonomikalıq hám sociallıq turmısında da áhmiyetli orın iyelegen. Biraq, 1930-jıllardan baslap Oraylıq Aziyada awıl xojalıǵın, ásirese paxtashılıqtı keńeytiw maqsetinde iri irrigaciya joybarları ámelge asırıldı. Bul bolsa Ámiwdárya hám Sırdárya suwlarınıń úlken bóleginiń jasalma kanallar arqalı atızlarǵa burılıwına alıp keldi.

1960-jıllarǵa kelip bul process jánede kúsheydi hám tábiyiy ráwishte Aral teńizi azıqlanıw dáreginen ayırıla basladı. Suwdıń keskin kemeyiwiniń nátiyjesinde teńiz qáddi jıl sayın tómenlep, onıń maydanı qısqardı. Sonıń menen birge, suwdıń puwlanıwı artıp, duzlılıq dárejesi kóterilip ketti. Bul bolsa suwdaǵı biologiyalıq tirishilikke apatlı tásir kórsetti.[2]

Bunnan tısqarı, zamanagóy izertlewlerde GIS texnologiyalarınan paydalanıw bul túrlerdiń tarqalıwın keńisliklik jaqtan tallaw imkaniyatın bermekte. Máselen, olardıń jasaw aymaqları kartalastırıladı, populyaciya tıġızlıġı anıqlanadı hám ekologiyalıq qáwip zonaları belgilep alınadı. Sonıń menen birge, aralıqtan zondlaw maġlıwmatları arqalı ósimlik qatlamı hám topıraq jaġdayı úyrenilip, bul maġlıwmatlar haywanlar populyaciyası menen salıstırıladı. Nátiyjede, ekologiyalıq sistemanıń jaġdayı haqqında kompleksli túsinik payda boladı [Prakash, I., & Mathur, R. P. 2018; 67-84].

Jáne bir áhmiyetli tárepi sonda, klimat ózgeriwi sharayatında bul túrlerdiń populyaciyasındaġı ózgerisler erte eskertiw indikatori sıpatında xizmet etedi. Máselen, uzaq dawam etken qurġaqshılıq dáwirlerinde Meriones tamariscinus sanınıń azayıwı, yamasa topıraqtıń shorlanıwınıń artıwı nátiyjesinde Citellus pygmaeus populyaciyasınıń qısqarıwı ekologiyalıq qáwiptiń kúsheygenligin kórsetedi. Sol sebepli, olardı turaqlı monitoring etiw arqalı ekologiyalıq mashqalalardı aldınnan anıqlaw múmkin.

Sonıń menen birge, bul túrlerdi úyreniw tek ekologiyalıq emes, al ekonomikalıq jaqtan da áhmiyetli, sebebi olar awıl xojalıġı aymaqlarında zıyankesler yamasa kerisinshe paydalı túrler sıpatında da kóriniwi múmkin. Demek, olardıń sanın qadaġalaw arqalı agroekosistema turaqlılıġın támiyinlew múmkin.

Juwmaqlap aytqanda, Qaraqalpaqstan Respublikasınıń qubla aymaqlarında mayda sút emiziwshiler, atap aytqanda, Citellus pygmaeus hám Meriones tamariscinus ekologiyalıq monitoring sistemasınıń áhmiyetli bioindikator komponentleri esaplanadı. Sebebi olar arqalı topıraq, ósimlik qatlamı, klimat hám antropogen faktorlardıń ózgerislerin kompleksli bahalaw múmkin. Sol sebepli, bul

túrlerdi tereń úyreniw, olardıń populyaciyasın turaqlı baqlap barıw hám monitoring sistemasına integraciyalaw aymaqtıń ekologiyalıq turaqlılıǵın támiyinlewde áhmiyetli ilimiy-ámeliy tiykar bolıp xizmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Naumov, N. P. (1975). 13. The role of rodents in ecosystems of the northern. Small Mammals: their productivity and population dynamics, 5, 299.
2. Prakash, I., & Mathur, R. P. (2018). Rodent problems in Asia. In Rodent pest management (pp. 67-84). CRC Press.
3. Shilova, S. A., & Tchabovsky, A. V. (2009). Population response of rodents to control with rodenticides. Current Zoology, 55(2), 81-91.
4. Яковлев, С. А., Удовиков, А. И., Санджиев, В. Б. Х., & Осипов, В. П. (2009). Оценка влияния климатических и антропогенных факторов на изменение западной границы ареала Meriones tamariscinus и Meriones meridianus (Rodentia, Cricetidae) на территории Республики Калмыкия. Известия высших учебных заведений. Северо-Кавказский регион. Естественные науки, (2), 109-115.

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA *CATALPA* L. TURKUMI TURLARINI QALAMCHALAR YORDAMIDA KO‘PAYISHI

G.D.Dosjanova, assistent-o‘qituvchi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh.
Qoraqalpog‘iston. g_dosjanova@karsu.uz

Qoraqalpog‘iston Respublikasi keskin kontinental iqlimga, sho‘rlangan tuproqlarga ega va buning natijasida aholining yashash sharoitlari bir muncha og‘ir.

Ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan manzarali daraxt va buta turlarini kengaytirish, o‘lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy darajada asoslangan texnologiya bo‘yicha parvarishlashni tatbiq etish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi. Masalan, R.Babadjanovning ko‘rsatishicha, Qoraqalpog‘iston hududida yovvoyi holatda o‘suvchi 98 ga yaqin daraxt o‘simliklar o‘sib, u floraning 10% ni tashkil etadi, keyingi ma’lumotlarga ko‘ra T.Otenovning ko‘rsatishicha bu turlar soni 118 turni tashkil qilmoqda [G.Dosjanova va boshq., 2025: 23].

Catalpa L turkum turlarini urug‘lari bilan bir qatorda qalamchalari yordamida ham ko‘paytirish mumkin. Vegetativ usulda ko‘paytirish urug‘lari orqali ko‘paytirishga qaraganda ancha qulay hisoblanadi. Buning afzalligi birinchidan kam mehnat talab etiladi, ikkinchidan xuddi shu o‘simlikning sof formasini olish imkoniyati bo‘ladi va uchinchidan vegetativ yo‘l bilan ko‘paytirish natijasida tezroq ko‘chatlarini yetishtirish imkoniyatini beradi. O‘simliklarni qalamchalaridan ko‘paytirish, vegetativ ko‘paytirish usullaridan biri hisoblaniladi. U manzarali, mevali, ayrim dorivor, texnik va boshqa o‘simliklarni yetishtirishda keng qo‘llaniladi.

O‘simlikning sifatli formalarini tanlab olib, ulardan qalamchalar tayyorlandi. Qalamchalar tayyorlashda ularning kattaligiga, yoshiga, tayyorlash vaqtiga hamda ekiladigan tuproqning tuzilishiga e’tibor berildi. Birinchi tajribadagi qalamchalar dekabr oyining boshlarida, ikkinchi tajribada esa erta bahorda, o‘simlik uyg‘onishidan oldin olinib, yaxshi o‘g‘it bilan ta’minlangan qora qumli tuproqqa ekildi. Manzarali daraxtlarni vegetativ ko‘paytirishda 10-15 sm, 15-20 sm, 20-25 sm, 25-30 sm va 30-35 sm li bo‘lgan qalamchalar katalpa turkumi turlaridan tayyorlab olindi. Bu qalamchalar qora qumda ekildi va quyidagi natijalar olindi.

Ikkala tajribadagi qalamchalar besh xil o‘lchamdagi (10-15 sm, 15-20 sm, 20-25 sm, 25-30 sm va 30-35 sm) hamda bir yillik, ikki yillik va uch yillik novdalardan olindi. Qalamchalar ekilgandan so‘ng suv berildi va tuproq yumshatilib turildi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, erta bahorda ekilgan umumiy qalamchalarning 49% i, kuzda ekilgan qalamchalarning 36% i ko‘kardi. Tajribadagi 25-30 sm o‘lchamdagi qalamchalarning ko‘karuvchanligi yuqori natija ko‘rsatdi. Bir yillik qalamchalar kuz fasliga nisbatan bahorda ekilsa, ularning unuvchanlik miqdori yuqori bo‘lishi tajribalarda aniqlandi. Kuzgi bir yillik qalamchalarning deyarli 80% i nobud bo‘lganligi aniqlandi. Buning asosiy sabablaridan biri haroratning juda past bo‘lishi bilan bog‘liq. Ikki yillik novdalarda buning aksi kuzatildi. Kuzda ekilgan ikki

yillik qalamchalardan 36% i o‘sib chiqqanligi kuzatildi. Uch yillik qalamchalarda bu ko‘rsatkichlar deyarli farq qilmadi.

Tadqiqotlar natijasidan ma’lum bo‘ldiki, erta bahorda ekilgan qalamchalar, kuzda ekilgan qalamchalarga nisbatan unuvchanligi yuqori ekanligi aniqlandi. Erta bahorda hali daraxtlar vegitatsiyasini boshlamasdan avval qalamchalar tayyorlanib, ekildi. Erta bahor faslida ekilgan qalamchalardan 1 yillik hamda ikki yillik 20-25 sm va 25-30 sm li qalamchalarda yuqori natijalar kuzatildi.

Xulosa qilib aytgan katalpa turkum turlarini erta bahorda 20-25 sm li va bir va ikki yillik qalamchalardan ko‘paytirilganda yuqoriroq natijaga erishish mumkin. Qalamchalardan hosil bo‘lgan yosh nihollarni yangi yerga ko‘chirib o‘tkazish 2-3 yili bajarilsa yaxshi natija beradi. Chunki, birinchi yilgi nihollarda ildiz sistemasi yaxshi rivojlanmaganligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dosjanova G., Tursunboev H., Ochilov U., Xushvaqtova D. *Catalpa* L. turkumi turlari urug‘larini laboratoriya sharoitida unuvchanligi// “O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, [3/1/1] Toshkent- 2025. 23 b.

YALPIZ O‘SIMLIGINING XALQ TABOBATIDA TUTGAN O‘RNI

M.Egamberdiyeva-talaba, I.Saparniyazov-dotsent
Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi

Mamlakatlar rivojlangan sari xalqning o‘rtacha yashash sharoiti yaxshilanib boradi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda kasallikni emas, uning oldini olishga katta e’tibor qaratmoqda. Hozirgi kunda bizning hududda ham sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va tabiiy dorivor o‘simliklardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dorivor o‘simliklar orasida yalpiz (Mentha) o‘zining boy kimyoviy tarkibi va keng shifobaxsh xususiyatlari bilan boshqa o‘simliklardan ajralib turadi. U juda qadimdan xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda asab tizimini tinchlantirish, ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash hamda shamollash kasalliklarini davolashda keng qo‘llaniladi. Maktab biologiya darslarida dorivor o‘simliklar haqidagi bilimlar ko‘pincha nazariy tarzda berilib, amaliy jihatlari yetarli darajada yoritilmaydi. Yalpiz o‘simligining dorivor xususiyatlarini o‘rganish va olingan natijalarni dars jarayonida qo‘llash o‘quvchilarda biologik bilimlarni chuqurlashtirish, tabiatga ongli munosabat va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois yalpiz o‘simligining dorivor xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish va ularni maktab biologiya darslarida qo‘llashga yo‘naltirilgan tadqiqot ishi ta’lim jarayoni uchun dolzarb hisoblanadi.

Respublika hududlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy ishlanmalarini o‘rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish yo‘lida Prezidentimiz tomonidan 2022 yil 20 may kuni “Dorivor o‘simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon va “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish uchun xizmat qiladi.

Bizning tajribalarimizda yalpizni gullash davrida asosan barglari terib olindi. Terib olingan yaliz barglari eng birinchi saralab olindi, dastlab muzdek suvda keyin iliq suvda yaxshilab yuvilib, soya joyda usti yoilgan holatda quritildi. Quritib olingan yalpiz barglari ko‘k choyga aralashtirilib iste’mol qilinib, uning ta’mi haqida degustatsion baholari olindi. Bunga ko‘ra ko‘k choyning og‘irligidan kelib chiqib ko‘paytirib borish mumkin. Bundan tashqari uni nafaqat choyga qo‘shib iste’mol qilish, balki iliq suvga yalpiz barglarini solib, tabga ko‘ra qand yoki shaker qo‘shib yalpiz ta’mli yaxna ichimlik suvini tayyorlash mumkin. Bularning barchasi inson organizmiga tushgandan keyin, taxminan 20-30 daqiqadan so‘ng tinchlantiruvchi ta’sir qiladi. Bugungi kunda yalpiz barglarini bevosita hamda undan ajratib olingan

efir moylari esa juda ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Asosan farmakologiyada har xil nastoykalarni ishlab chiqarishda o‘ziga xos ta’m berish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari nafas olish yo‘llari bilan bog‘liq dorilarning asosiy tarkibiy qismi yalpiz efir moylaridan iborat. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra rivojlangan davlatlarning tamaki ishlab chiqarilishi yalpizdan olingan efir moylariga bog‘liq ekan.Tamaki ishlab chiqarishda yalpiz efir moylaridan foydalanilganda uning nafas olish organlariga zararli ta’siri kamayar ekan. Shu sababli ham butun dunyoda tamaki ishlab chiqarishda yalpiz efir moylaridan keng foydalanish ko‘payib bormoqda.

Shunday ekan, yalpizni biz begona o‘t sifatida emas, uning xalq tabobatidagi ahamiyatidan kelib chiqib, unga dorivor o‘simlik sifatida qarashimiz kerak. Ularning ko‘payishiga, bo‘sh turgan ariq bo‘ylariga ekib arealini kengaytirish kerak. Inson organizmi uchun foydali xususiyatlarini maktab biologiya darslarida qo‘shimcha ma’lumot sifatida keng foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Jovliyeva. Yalpiz (Mentha.L.) o‘simligining botanik tavsifi va ekologik xususiyatlari. Xalqaro konferensiya.
2. Z.X. Norqulova. Dorivor o‘simliklar florasi va kimyosi. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

ÓZBEKSTAN SHARAYATINA INTRODUKCIYA QILINǴAN ZIRK TÚRLERI

Esemuratova R.X. b.i.f.d (PhD) doc, Bekbaulieva N.I. magistrant
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti, No`kis qalasi.
bekbaulievanazira1@gmail.com

Zirk (*Berberis*) Berberidaceae tuqımlasına tiyisli putalar toparı bolıp esaplanadı. Zirklerde qırlı shaqalar hám ápiwayı túkli japıraqlar bar. Japıraqları qalıń, qısqa baǵanlı izbe-iz jaylasqan. Nartlarında bir, úsh, hátte beslik tikenler menen qaplanǵan. Gúlleri eki jınıslı, sarı reńde toplanıp turadı. Barlıq zirkler berberin alkaloidına iye. Olardıń miyweleri ashshı-mazalı bolǵanı ushın hár qıylı awqatlarǵa, sonıń ishinde, palawǵa salınadı, awqattı dámli etedi, murabba,konfet hám sherbetlerge qosıladı hám kóklemzarlastırıw maqsetinde paydalanıladı. Arqa yarım sharda tarqalǵan. 194 túri bar, 45 túri keń tarqalǵan. ǴMDAmámleketlerinde zirktiń 12 túri tarqalǵan bolıp, olardıń 8 túri Oraylıq Aziya, 5 túri Kavkaz florasınan orın alǵan. Ózbekstanda 3 zirk túri tábiyiy halda tarqalǵan.

Qaraqand zirk (*Berberis oblonga*.) Oraylıq Aziya tawlı aymaqlarında teńiz qáddinen 1300 - 2800 metrge shekem tarqalǵan qımbat bahalı endemik zirk túri bolıp esaplanadı.Biyikligi 4 metrge shekem bolǵan kóp shaqalı puta. Olar ómiri dawamında tamır buwınındaǵı tınısh jaǵdaydaǵı búrtiklerden rawajlanatuǵın jańa tez ósiwshi shaqalar menen turaqlı túrde almasıp turadı. Kóp jıllıq shaqaları kúl reńde boladı. Paqalları ápiwayı hám úshlik tikenler menen qaplanǵan. Japıraqları ellips tárizli, 6 sm ge shekem uzınlıqta bolıp, shetleri tisli, tikenshe tárizli túkler menen qaplanǵan.Bul zirkten 15 túrdegi alkaloidlar ajıratıp alınǵan, tamır qabıǵında medicinada keń qollanılatuǵın berberin (20%) alkaloidınıń bar ekenligi anıqlanǵan. Zirk may ayında gúlleydi, gúlleri sarı, xosh iyisli, 8 - 30 nan ibarat gúl toplamına jıynalǵan.Miyweleri sentyabr ayınıń ekinshi yarımında tolıq pisedi. Zirk suwı vitaminler hám biologiyalıq aktiv zatlarǵa bay bolıp, azıq-awqat, vinoshılıq,konditerlik maqsetlerinde paydalanıladı. "Barbaris" atlı konfetler tayarlanadı. Suwıqqa shıdamlı puta, toǵay melioraciyasında keńnen paydalanıladı.

Qızıl zirk (*Berberis integgerima* Bunge) botanik ilimpaz Bunge tárepinen 1843-jılı Zarafshan dáryası basseyninde tayarlanǵan gerbariy tiykarında óz aldına túr sıpatında toparǵa kirgizilgen. Bul zirk teńgeshe zirkke jaqın túr bolıp, onnan uzınsha, ellips sıyaqlı qoyıw-qızıl reńli jemisleri menen parıqlanadı. Qızıl zirk boyı 4 metrge shekem, geyde 5-6 metrge shekem ósiwshi puta. Shaqalarınıń diametri 5 - 6 sm, domalaq, tuyıq múyeshli. Japıraq qırları tegis, máyek tárizli formada bolıp, sheti tisli tikenli 2 - 6 sm uzınlıqta boladı. Nart tikenleri bir yamasa úsh bólekli. Quramalı topgúllerde gúlleri tıǵız, 12-25 ten bolıp jaylasadı. Miyweleri tolıq piskennen keyin toyǵın qızıl reńge kiredi. Miyweleri biliner-bilinbes aq qabıq penen qaplanǵan uzınlıǵı 9 mm ge shekem, diametri 3,5 - 4,5 mm átirapında boladı. Tuqımları tegis, sozılmalı, uzınlıǵı 5 mm ge shekem jetedi. 1 kg jańa terilgen zirk miywelerinde 5 mıń miyweshe yamasa 71,5 mıń dana tuqımları boladı. Qızıl zirk arealı ádewir keńirek

bolıp, Oraylıq Aziyada Jungar Alatawınan tap Awganstannıń tawlı aymaqlarına shekem bolǵan aralıǵında TyanShan hám Pamir-Alay taw dizbeginde keń tarqalǵan zirk túri esaplanadı.Oraylıq Aziyadan tısqarı Iran hám Batıs Qıtaydıń tawlı úlkelerinde ósedi.Ózbekstannıń Batıs Tyan-Shan tawlarında, Túrkstan taw dizbeginde azıraq, Hisar hám Baysın tawlarında kóbirek ushırasadı, tiykarınan 1400 - 2500 m biyikliklerde tarqalǵan. Usı túrdiń miyweleri farmacevtika hám azıq-awqat sanaatı,toǵay melioraciyası ushın úlken áhmiyetke iye.



1-súwret. Qaraqand zirk (*Berberis oblonga*.)



2-súwret. Qızıl zirk (*Berberis integgerima* Bunge.)



3-súwret. Ápiwayı zirk (*Berberis vulgaris* L.*)*

Ápiwayı zirk (*Berberis vulgaris* L.*)*. Biyikligi 3 metrge shekem ósetuǵın puta, qabıǵı aq qońır, shaqaları jińishke. Tamırpqalı jer astında gorizontal jaylasqan, odan iri shaqalang'an tiykarg'ı tamır o'sip shıǵadı. Paqalı bir neshe sm uzınlıqta ha'm u'sh bo'lekli tikenler menen qaplang'an. Japıraǵı keri máyek ta'rizli, ótkir ushlı, baldaqlı bolıp, baldag'ı menen tikenler qoltıg'ında top-top bolıp jaylasqan. Gu'lleri sipse topgu'lge toplang'an. Ashıq sarı, iyisli boladı. Miywesi — qızıl, ellips tarizli, ju'da qıshqıl, 2-3 tuqımlı geyde tuqımsız ha'm kem suwlı ho'l miywe. Miywesi 10 - 12 mm uzınlıqta hám 6 mm ge shekem diametrge iye. Sayaǵa hám qurǵaqshılıqqa shıdamlı. Zirk aprel-may aylarında gu'lleydi, miywesi avgust-sentyabr aylarında pisedi. Aǵashı tınıq sarı bolıp, qurıǵanda qarawıtadı, sulıw bolǵanlıǵı ushın azıq – awqat sanaatında jemisinen túrli ishimlik, murabba hám konfet ónimleri tayarlanadı.

Denesi hám tamırınıń qabıǵınan teri hám jún gezlemelerdi boyawda qollanıladı. Japıraqları hám miywesi quramında 6% ke jaqın alma kislotası hám C vitamini bar. Onıń japıraqlarında tat zamarrıǵı rawajlanıp, biyday ósimliklerine tarqaladı hám olardı zıyanlaydı. Sonıń ushın egislik atızlarǵa jaqın jerge zirk ekpew kerek. Miywesi - tómen azıqlıq quwatlılıǵına iye bolǵan dieta ónimi. Onıń 100 g. da 29 kKal quwat bar. Ápiwayı zirk Ózbekistanǵa dekorativ ósimlik sıpatında introdukciya etilgen.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Abu Ali Ibn Sino. Medicina iliminiń nizamları. /Tashkent. - 1955.II. 83 bet.
2. Виноградова О.Н. Барбарис. Москва, Лесная промышленность, 1988 -87 с.
3. Esemuratova R.X., Bekbaulieva N.I. Zirk ósimliginiń dárilik qasiyetleri. Tabiyy panlerdin actual maseleleri konferenciya materialları. 2025. Nokis. -238-240 b
4. Orifxonov K. Zirk. –Toshkent, OzKP. MK nashr, 1971. –30 б.
5. Chorshanbiev F.M. Zirk (monografiya) – Toshkent, «Navruz» nashr, 2018.–118 б.

MORUS NIGRA O‘SIMLIGINI DORIVORLIK AHAMIYATI

Esemuratova R.X. b.i.f.d (PhD) doc, Jumaboyeva S.A. magistrant
Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh.
sarvinozjumaboyeeva77@gmail.com

Morus nigra (shotut) -tutdoshlar oilasiga mansub ko`p yillik daraxt bo’lib, poyasi qizil-qo’ng’ir po’stloq bilan qoplangan asosan iliq iqlim hududlarida o‘sadi. Mevalari to‘q binafsha yoki qora rangda, shirin va shirador bo‘ladi. Barglari yuraksimon, zihli yirik tishli bo’lib, gullari bir jinsli. Shotut bahorda pishib, yozning o’rtalariga yetmay xazon bo’lsa, shotut yozning oxiri va kuzning o’rtalarigacha pishaveradi. Mevasining rangi qora yoki binafsha rang bo’lib, shirasi mo’l, ta’mi shirin va shirinturush, yoqimli, ishtaha ochar. Mevasining tarkibida ko’p foydali moddalar va organik kislotalar mavjud.

Shotut chanqoq bostiruvchilik va burushtiruvchilik xislatlaridan tashqari, ko’ngil ochish, quvvat bag’ishlash, ishtaha qo’zg’atish fazilatlariga ham ega. Xalq tabobatida shotut mevasi chilonjiyda mevasi bilan qaynatilib, difteriya, skorlatina xastaliklariga qarshi qo’llanilgan. Mevasini dizenteriya, bosh og’rig’i, qon ketish oldini olishda tavsiya qilgan tutga o’xshab shotutning mevasidan tashqari boshqa qismlari ham shifobaxshlik xususiyatlariga ega. Ayniqsa, bargi ko’p dardlarga darmon. Shotut mevasining mizoji ikkinchi darajada sovuq va birinchi darajada quruq. Quritilgan mevasi qabziyatli. Uning shifobaxshlik xislatlari: agar shotutning pishgan mevasi yeyilsa, badandagi qotgan moddalarni yumshatadi, yuqori qon bosimini pasaytiradi, safro xiltini titib, tarqatib yuboradi, halqumdagi issiq mizojli shishlarni qaytaradi va bartaraf etadi, shuningdek, halqum, til va boshqa a’zolarga moddalarning yuqoridan oqib tushishiga yo’l qo’ymaydi, chanqoqni bosadi, ishtahani ochadi. Agar shotut mevasining suviga ga’rg’ara qilsa yoki o’sha suvni og’izga olib aylantirilsa, og’iz bo’shlig’idagi yaralar, og’iz qizishi va uning toshmalari, halqum, og’iz bo’shlig’i va til shishlarini daf qiladi. Agar shotut suviga kashnich va achchiq giyoh suvini aralashtirib shu amal bajarilsa ta’siri kuchliroq bo’ladi. Shotut mevasi yeyilsa, ichaklar yallig’lanishi, issiq va qonli ich ketishlariga shifo bo’ladi. Ayniqsa, uning quritilganini kashnich suviga ivitib, ermon suvi bilan yeyilsa, zararli moddalarning badanning boshqa a’zolaridan me’daga oqib tushishiga yo’l qo’ymaydi. Biroq shotut mevasini ortiqcha yeyish ko’krak ostidagi a’zolarga, o’pka va asabga zarari bor. Bunday holatlarda asal va anor suvi iste’mol qilish zararini bartaraf etish imkonini beradi.

Buyuk olim va tabib Abu Ali ibn Sino o‘zining jahonga mashhur “Tib qonunlari” asarida tutning, xususan, shotutning inson salomatligi uchun foydali jihatlarini alohida bayon etgan. Alloma ushbu o‘simlikning mevasidan tortib to ildiz po‘stlog‘igacha bo‘lgan qismlarini turli xastaliklarni davolashda qo‘llagan.

Ibn Sino ta’limotiga ko‘ra, shotutning siqib olingan sharbati va qiyomi (siropi) tomoq og‘rig‘I, angina hamda murtak bezlarining shishishiga qarshi eng samarali vositadir. Shotut sharbati bilan og‘iz bo‘shlig‘ini chayish milklar qonashini to‘xtatadi, milklarni mustahkamlaydi va og‘izdagi turli yaralarni bitkazishga yordam beradi.

Olim shotutning nordon va pishib yetilmagan mevasini aynan yallig‘lanishga qarshi kuchli vosita sifatida ta’riflagan. “Tib qonunlari”da qayd etilishicha, pishgan shirin tut me’dada tez hazm bo‘ladi va ichni yumshatish xususiyatiga ega. Biroq, Ibn Sino qora tutning quritilgani yoki uning po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatmalar ich ketishi (dizenteriya) va surunkali ichburug‘ni to‘xtatishda o‘ta foydali ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u tut ildizining qaynatmasi qorin bo‘shlig‘idagi gijjalarni (ayniqsa, qovoq urug‘iga o‘xshash gijjalarni) haydashda yordam berishini yozib qoldirgan. Ibn Sino qarashlarida shotut shunchaki tansiq meva emas, balki qonni tozalovchi, yallig‘lanishni qaytaruvchi va hazm a’zolari faoliyatini tartibga soluvchi noyob dori vositasi sifatida ulug‘lanadi.

Shotutning dorivorlik xususiyati uning boy kimyoviy tarkibi bilan bog‘liq bo`ladi. Vitaminlardan: C, B guruhi, K, minerallardan: temir, kaliy, kalsiy, magniy, biofaol moddalardan: flavonoidlar antosianinlar fenolik birikmalar, organik kislotalardan (olma, limon kislotasi), shakarlardan (glyukoza, fruktoza) mavjud.





1-rasm *Morus nigra* o‘simligi va mevasi.

Morus nigra – yuqori biologik faol moddalarga boy bo‘lgan muhim dorivor o‘simlikdir. Uning meva, barg va boshqa qismlari tibbiyotda keng qo‘llanilib, ko‘plab kasalliklarning oldini olish va davolashda samarali hisoblanadi. Zamonaviy farmakologiyada ham bu o‘simlik asosida yangi preparatlar yaratish istiqbollari mavjud. Uning pishgan mevasi qon bosimini pasaytiradi, safroni haydaydi va halqumdagi shishlarni qaytaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvositov A. Va boshq. Dardga darmon o‘simliklar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008. – 134-136-betlar
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: II jild (Sodda dorilar) / Mas’ul muharrir: U. Karimov. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1956. – 176-178-betlar.

ҚУЙИ АМУДАРЁ ДАВЛАТ БИОСФЕРА РЕЗЕРВАТИ CARABIDAE ҚЎНҒИЗЛАРИ.

А.Я.Ешмуратов, *Нукус давлат педагогика институти мустақил тадқиқотчиси*

Қуйи Амударё давлат биосфера резервати Амударё дельтасидаги туқайларнинг биологик хилма-хилликни сақлаш, табиатдан барқарор фойдаланиш ва ижтимоий иқтисодий маданий бойликларни мухофаза қилишни таъминлашга мулжалланган ер усти ва сув экологик тизимларини уз ичига оладиган мухофаза қилинадиган худуд хисобланади.

Биосфера резерватининг мақсади ва вазифаси биосфера резервати ландшафтларини, тўқайлардаги ўсимлик ва хайвонот дунёсини турлари, шу жумладан кам учирайдиган ва йуқ бўлиб кетиш хавфи остидаги турларини биосфера резервати худудига хос бошқа табиат объектларини сақлаб қолиш, қайта тиклаш, экологик холатини яхшилаш, табиат ресурсларидан баркарор фойдаланишни ва ахолининг ижтимоий фаровонлигини таъминлаш, табиат жараёнларини ўрганиш, экологик таълим ва тарбиянинг ривожланишига ёрдам максадида ташкил топган.

Биосфера резервати худуди 68717,8 гектардан иборат булиб, у биосфера резерватига доимий фойдаланишга берилган ер участкаларида, шунигдек бошка юридик ва жисмоний шахсларнинг давлат биосфера резервати чегараларидаги ер участкаларида жойлашган.

Coleopteralар туркумига кирувчи визилдоқ қўнғизлар оиласи - булар, космополитлар саналиб қатор тадқиқотчиларни ўзига жалб қилиб келган. Визилдоқ қўнғизларнинг, бутун дунё бўйлаб 40 000 дан ортиқ турлари мавжуд. Визилдоқ қўнғизлардан *Calosama, Carabus, Bembidion* ва *Scarits* авлоди қишлоқ ва ўрмон хўжаликлари хавфли зараркунандалари сонини тартиблаштиришда алоҳида аҳамият касб этади [1,2,3,4].

Тадқиқотлар 2018-2026 йиллар давомида жанубий Оролбўйи чўл ҳудудларида олиб борилди. Тадқиқотларда Голуб (2012) ларнинг усуллари асосида олиб борилди [1].

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида Қуйи Амударё давлат биосфера резервати ҳудудларида визилдоқ қўнғизлар оиласининг 4 та кенжа оила 16 авлодига тегишли 29 тур ва кенжа турлари аниқланди (1-жадвал).

1 - жадвал

Қуйи Амударё давлат биосфера резервати визилдоқ қўнғизлари турлари ва зогеграфик тарқалиши

№	Кенжа оила, турлар		
1	Cicindela contorta F. – W., 1828	+++	Ўрта ер денгизи
2	C. deserticole Fald., 1836	+++	Марказий осиё
3	C. (L.) littorals F. 1787	++	Транспалеарктик

4	C. nox Sem., 1886	++	Турон
5	C.sublacerata Sols., 1974	++	Турон
6	C. auropunctatum subsp.dzungaricum Gebl., 1835	++	Евро-Ўрта ер денгизи
7	Cymbionotum plctulum H.Bates., 1874	++	Турон
8	Carabus (Ulocarabus) stschorovskii Sols, 1874	+++	Транспалеарктик
9	Dyschirius arcifer Zn., 1928	+	Турон
10	D. humereatus Chaud., 1850	++	Шарқий ўрта ер денгизи
11	D. pusillus Dej., 1825	++	Марказий осиё
12	Scarites angustus Chaud, 1855	++	Ўрта Осиё ендемиклари
13	S. cylindronotus Fald., 1836	++	Транспалеарктик
14	Broscus semistriatus asiaticus Ball., 1871	+	Шарқий ўрта ер денгизи
15	B. (Notaphocampa) niloticum Dej, 1831	++	Турон
16	T.(P.) turkestanicus Csiki, 1923	+++	Марказий осиё
17	T. (P.) centriustatus Rtt, 1894	++	Марказий осиё
18	Ch. (Ch.) tristis Schall., 1783	++	Транспалеарктик
19	*Pt. (P) subcoeruleus* Quens., 1896	++	Шарқий ўрта ер денгизи
20	*Agonium (s.str.) extensum Men.*, 1849	+++	Ўрта ер денгизи
21	*Calathus ambiguus* Payk., 1790	+	Евро-Ўрта ер денгизи
22	*Amara (s.str.) aenea* Deg., 1774	+++	Транспалеарктик
23	*A.(s.str.) ovata F.*, 1792	++	Транспалеарктик
24	*A.(Amathitis) faedtschenkoi Tach.*, 1898	++	Турон
25	*Ditomus semicylindricus Pioch.* 1872	+	Шарқий ўрта ер денгизи
26	Dicheirotrichus ustulatus Dej., 1829	++	Марказий осиё
27	Metabletus negrita Woll. 1854	+++	Палеотропик
28	M.politus Rtt. 1950	++	Марказий осиё
29	Discoptera komarovi Sem 1889	+	Ўрта Осиё ендемиклари
Жами		30	

Изоҳ: + - жуда кам тарқалган турлар; ++ - доимий тарқалган турлар; +++ - кенг тарқалган турлар.

Аниқланган визилдоқ қўнғизлардан *Cicindela contorta, C. Deserticole, Carabus stschorovskii, T turkestanicus, Agonium extensum, Amara aenea,*

Metabletus negrita каби турлар Қуйи Амударё давлат биосфера резервати ҳудудларида кенг тарқалган, *Dyschirius arcifer, Broscus semistriatus asiaticus, Calathus ambiguous, Ditomus semicylindricus, Discoptera komarovi* каби турлар эса жуда кам тарқалган турлар ҳисобланади. Ўрганилган ҳудуднинг визилдоқ қўнғизларининг келиб чиқиши ва географик тарқалишига кўра Транспалеарктик, Ўрта Осиё ендемик, Евро-Ўрта ер Денгизи, Ўрта ер денгизи, Шарқий ўрта ер денгизи, Марказий осиё ва Қозоғистон, Палеотропик, Турон ареаллари билан ифодаланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Берлов О.Э. Новый вид рода Carabus (Coleoptera, Carabidae) с северо-востока Сибири. // Зоологический журнал, 1989.- Том 68, N 6.- С. 151-153.
2. Крыжановский О.Л. Состав и распространение энтомофаун земного шара. Москва, 2002. – 242. - с.
3. Kryzhanovskiy O.L. et al. 1995: A Checklist of the ground-beetles of Russia and Adjacent Lands (Coleoptera, Carabidae). - Sofia: Pensoft Series Faunist. 3, 271 pp.
4. Лопатин И.К. Зоогеография. Вышэйшая школа, Минск: ,1989.-336 с.

ЙЎЛЛАР АТРОФИДАГИ МАЙИШИЙ ЧИҚИНДИЛАРНИНГ CARABIDAE ОИЛАСИГА ТАЪСИРИ

А.Я.Ешмуратов *Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти мустақил тадқиқотчиси*

Инсоният жамиятдаги ўзининг фаолияти билан табиий комплексларда чуқур ўзгаришларни келтириб чиқармоқда. Табиий экотизимларни ўзгартириш, агроиқдисодиёт, шаҳарсозлик, техниксистемаларни яратиш, ўсимликларнинг янги турларини жорий этиш, ерларнинг мелиоратив ҳолатига, табиий ўрмон экотизимларига таъсир курсатиш, турли хил бута ва дарахтларни кесиш, хўжалик чиқиндилари билан ифлосланиш, рекреация жараёнлари биосферага глобал таъсир кўрсатади. Табиатнинг инсон таъсирида ўзгариши ҳар қандай биоценотик комплексда айрим турларнинг кўпайиши ва бошқаларининг гуллаб-яшнаши учун ноқулай шароитлар туғдиради. Турлараро янги сон нисбати яратилади, озиқа занжирлари қайта ўзгаради, организмлар ўзгарган муҳитда яшаш учун мослашади ёки аксинча.

Транспорт воситалари, инсонларнинг кўчиши, улар орасидаги савдо алоқалари ҳашаротларни турли жойларга тарқалишига сабаб бўлади. Ҳашаротларнинг янги худудларга иқлимлаша оладиган турлари биоценозларни ўзгартириб юборади. Айниқса ҳашаротлар самолетлар орқали тез ва узоқ масофаларга ташилади. Масалан, чивинларнинг 6 кун мобайнида самолетларда 70 000 км масофага олиб кетилганлиги аниқланган (Рейхардт, 1941) [1,3,4,6].

Визилдоқ қўнғизлар самарали ва кўп сонли энтомофаг ҳисобланади. Улар қишлоқ хўжалик экинлари зараркунандаларини мунтазам равишда қириб йўқотади,. Бу оила вакилларига ҳам бошқа ҳашоратлар сингари бугинги кунда экологик омиллар таъсирида турлари камайиши ва уларнинг популяциялари сақлаб қолиниши учун Ўзбекистон республикаси қизил китобига киритилган. Қизил китобга киритилмаган камёб ва йўоқолиб кетиш ҳавфи бўлган турлар юзасидан экологик ҳолатини боҳолаш учун мониторинглар олиб боришни тақоза этади [1,2,3,5,6].

Жумладан, мустақил Ўзбекистон бошқа мамлакатлар сингари ҳалқаро биохилма-хиллик конвенциясини ратификация қилган ва у бўйича давлат стратегияси ишлаб чиқилган. Маълумки, инсоният XXI-асрда глобал экологик, энергетик ва озиқ-овқат муаммосига дучор бўлди ва уни жаҳон миқиёсида ҳал қилиш учун биохилма-хиллик конвенциясини ишлаб чиқди. Унга асосан сайёрамиз флора ва фаунаси яхлитлигини асраш орқали, табиатни аёвсиз эксплуатация қилишга чек қўйиш билан инсониятни глобал фожиалардан сақлаш имконияти яратилади. Бу эса, биринчи навбатда ўсимлик ва ҳайвонот олами турлар миқдорини ўрганиш, сақлаш ва улардан оқилона фойдаланишни белгилаб беради.

Тадқиқотлар 2018-2026 йиллар давомида жанубий Оролбўйи чўл ҳудудларида олиб борилди. Тадқиқотларда Чилинков, Воронов, (1973).

Асанова ва Искаков (1977) ҳамда Голуб (2012) ларнинг усуллари асосида олиб борилди.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида Ўзбекистоннинг шимолий-ғарбий ҳудудларида визилдоқ қўнғизлар оиласининг 4 та кенжа оила 39 авлодига тегишли 104 тур ва кенжа турлари аниқланди.

Аниқланган визилдоқ қўнғизларнинг биотопик тарқалиши кўра аввалambор антропоген омиллардан ташқари муҳитнинг абиотик, гидро-эдафик ва биотик омилларига боғлик ҳолда, ландшафтлардаги ўзгаришларга анча сезгир бўлиб, ушбу шароитларда мисли индикатор сифатида бўлиши исботланди. Шунингдек бу ҳудудда визилдоқ қўнғизлар фаунасига антропоген омилларнинг таъсири анча сезиларли даражада эканлиги аниқланди. Биргина кичик оролга борувчи Қўнғирот орол ва Мўйноқ орол йўналишидаги йўллар бўйидаги туристлар томонидан истемол қилинган сувдан қолган идишларга тупланиб, қайтиб чиқолмасдан нобуд булган қунғизлар сони идишлар куламига қараб 75 донадан, 500 донагача булиши тадқиқотлар давомида исботланди 1- расм.



1-расм: Майиший чиқинди сифатида ташланган баклашкалар ва унга нобуд бўлган қўнғизлар

Агар инсонлар томонидан истемол қилинган сувдан қолган идишлар йўл четида ўртача 100 метр жойда 30 та идишча бор бўлса, бу дегани шу атрофдаги вояга етган барча визилдоқ қўнғизлар аттрактант модда ёки озиқланиш инстинкти орқали идишчага кириб қайта чиқолмайдилар. Мониторинг натижаларига кўра Устюртнинг жанубий чинк қисми ҳудудда 40 см гача бўлган

тупроқ ости ёки юза қисмида м^2 жойда ўртача 2.1 дона, 100 м^2 жойда эса 21 дона бўлиши мумкун.

Хулоса қиладиган бўлсак, йўлар бўйидаги инсонлар томонидан истемол қилинган сувдан қолган идишларга тупланиб, қайтиб чиқолмасдан нобуд булган қунғизлар сони идишлар куламига қараб 75 донадан, 500 донагача етиши, бу турларнинг тухум қуймасдан нобуд бўлиши бу фойдали ҳашаротларнинг популяцияларининг ҳаддан ташқари камайиб кетишига олиб келади. Бундай табиий ҳудудларда инсонлар томонидан сувдан бушаган идишларни қопқоги очиқ ҳолда белгиланмаган жойга ташламаслик тавсия қилинади. Бу эса уз навбатида ҳудуднинг ландшафт ва биологик хилма-хиллигини сақлаб қолишда ва табиатни бошқаришни оптималлаштиришда асос булиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Андреянов .Н.И. 1968. Некоторые биолого-экологические особенности жужелиц рода бембидион латр. Их роль в очижении вредоносности клубеньковых долгоносиков.

2. Берлов О.Э., Берлов Э.Я. Определитель подродов рода Pterostichus (Coleoptera, Carabidae) Якутии, Байкальского региона и Северной Монголии. // Вестник ИГСХА, Иркутск, 1998.- Выпуск 13.- С. 36-41.

3. Крыжановский О.Л. Состав и распространение энтомофаун земного шара. Москва, 2002. – 242. - с.

(Интернет материаллари)

4. BOUSQUET Y. and LAROCHELLE A. 1993: Catalogue of the Geadephaga (Coleoptera: Trachypachidae, Rhysodidae, Carabidae including Cicindelini) of America North of Mexico // Memoirs of the Entomological Society of Canada, No. 167, 1-397.

5. HORN W. und ROESCHKE H. 1891: Monographie der paläarktischen Cicindelen // Reitter's Bestimm. Tab. d. Europ. Coleopt. XXIII.- Berlin, IX + 199, 6 tab.

6. KRYZHANOVSKIJ O.L. et al. 1995: A Checklist of the ground-beetles of Russia and Adjacent Lands (Coleoptera, Carabidae). - Sofia: Pensoft Series Faunist. 3, 271 pp.

QORAQOLPOG‘ISTON FLORASINING YURAK-QON TOMIR TIZIMIDA QO‘LLANILADIGAN AYRIM DORIVOR O‘SIMLIKLARI

R.A.Eshmuratov, b.f.n., docent; M.Yaqubboyev, talaba
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutı, Nukus sh., Qoraqalpog‘iston,
R.Eshmuratov@mail.ru

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-251-son qarorida dorivor o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etish, “Bir tuman - bir mahsulot” tamoyili asosida dorivor o‘simliklarni yetishtirish maqsadida bir qator ko‘rsatmalar berilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, o‘zining murakkab va keskin kontinental iqlimi, shuningdek, Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik tanglik sharoitlari bilan ajralib turadi. Bu o‘ziga xos geografik va ekologik vaziyat mintaqa florasining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Quruq cho‘l, sho‘r tuproqlar, Amudaryo deltasining noyob to‘qaylari va qoldiq tog‘liklar (Sulton Uvays, Qusxanatov) – bularning barchasi dorivor o‘simliklarning tur xilini hosil qiladi. Ming yillar davomida bu hududda yashovchi xalqlar ushbu o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlarini o‘rganib, ularni xalq tabobatida, ayniqsa, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolashda keng qo‘llab kelgan. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishiga qaramay, mahalliy dorivor o‘simliklar hozirgi kunda ham ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otmoqda.

Qoraqalpog‘iston hududida uchraydigan ko‘plab o‘simliklar tarkibida alkaloidlar, glikozidlar va flavonoidlar mavjud bo‘lib, ular qon bosimini tushirish, tomirlarni mustahkamlash va yurak urishini me’yorlashtirish xususiyatiga ega.

Dorivor o‘simliklarga, flora va o‘simliklar qoplamiga bag‘ishlab yozilgan adabiyotlarni dastlabki qiyosiy tahlil qilish natijasida Qoraqolpog'iston hududining tabiiy florasida yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini profilaktikasi va davolashda ahamiyatli bo‘lgan asosiy o'simlik turlari aniqlandi (1-jadval). Ushbu o‘simliklar asosan arid va semiarid iqlim sharoitiga moslashgan bo‘lib, ular flavonoidlar, alkaloidlar va saponinlarga boy hisoblanadi.

1-jadval.

Tabiiy o‘sadigan dorivor o‘simliklar

O’simlik nomi	Qo‘llaniladigan qismi	Qo‘llaninilishi
Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*)	Ildiz qismi	Miokard va yurakni tinchlantirish
Qizilcha (*Ephedra distachya*)	Yer ustki qismi	Tomirlarni kengaytiradi va arterial bosimni normallashtiradi
Semiz o‘t (*Portulaca oleracea*)	Poyasi va bargi	Xolesterinni kamaytiradi va artereskleroz oldini oladi.

Kiyik o‘t (*Ziziphora clinopodioides*)	Barg va gullari	Qon spazmi, yurak og’riqlari, arterial bosimni normalashtiradi.
Isiriq (*Peganium harmala*)	Poyasi va barglari	Qon tomir yallig’lanish, qon bosimini normallashtiradi
Jag‘-jag‘ (*Capsella bursa-pastoris*)	Poyasi va barglari	Qon aylanishni yaxshilaydi, qon to’xtatuvchi
Tikanli tatarnik (*Onopordum acanthium*)	Mevasi va poyasi	Gipertoniya va arterial qon bosim normmaltish

Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*) ildizida mavjud glitsirrizin va flavonoid moddalari yurak mushaklarini tinchlantirish va arterial tomirlarni kengaytirish xususiyatiga ega. Isiriq (*Peganum harmala*) tarkibidagi garmin alkaloidi esa antispazmatik va gipotenziv ta’sir ko‘rsatadi. Semiz o‘t (*Portulaca oleracea*) omega-3 yog‘ kislotalari va tokoferolga boyligiga ko‘ra ateroskleroz profilaktikasida samarali hisoblanadi.

Respublikamiz hududida maqsadli ravishda yetishtirilayotgan ayrim madaniy o‘simlik turlari ham muhim farmakologik ahamiyatga ega (2-jadval). Ushbu o'simliklar ko'pincha bog‘-rog‘ va dalalarda o‘stiriladi, ularning dorivor xususiyatlari an’anaviy va zamonaviy tibbiyot tomonidan tan olingan.

2-jadval.

Madaniy holda yetishtirilgan dorivor o‘simliklar

O‘simlik nomi	Qo‘llaniladigan qismi	Qo‘llaninilishi
Makkajo‘xori (*Zea mays*)	Popugi va poyasi	Aterosklerozning oldini olish, qon bosimini tushirish
Do‘lana (*Crataegus pontica)*	Mevasi va Guli	Yurak mushaklarini quvvatlantirish, aritmiyani davolash.
Sarimsoq (*Allium sativum)*	Piyozi	Qon tomir spazmasini yo‘qotish, xolesterinni kamaytirish
Oq tut (*Morus alba*)	Mevasi bargi va po’stlog’i.	Gipertoniya, anemiya (kamqonlik) va yurakni mustahkamlash.
Qora tut (*Morus nigra*)	Mevasi bargi.	Anemiya, yurak ishini mustahkamlaydi.
Na’matak (*Rosa canina*)	Mevasi	Qon tomir devorini mustahkamlash.
Limon o‘t(Melissa officinalis)	Yer ustki qismi (bargi va poyasi)	Taxikardiya (yurak tez urishi)ni tinchlantirish, asabni orom oldirish

Do‘lana (*Crataegus spp*.) flavonoidlari, xususan vitexin va giperozid birikmalari, yurak mushaklari qon ta’minotini yaxshilash, aritmiyani bartaraf etish va arterial tomirlar spazmini kamaytirish borasida klinik sinovlarda ijobiy natijalar ko‘rsatgan. Sarimsoq (*Allium sativum*) tarkibidagi allitsin va ajoene moddalari trombotik jarayonlarni sekinlashtiradi, xolesterinni kamaytiradi va qon bosimini pasaytiradi. Na’matak (*Rosa canina*) askorbin kislota (C vitamini) ning eng boy tabiiy manbalaridan biri sifatida qon tomir devorining mustahkamligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

O‘rganilgan o‘simliklarning biologik faol moddalar tarkibini umumlashtiruvchi tahlil quyidagi asosiy guruhlarni ajratib ko‘rsatadi:

• Flavonoidlar (kversetin, rutyin, vitexin): kapillyar o‘tkazuvchanligini tartibga soladi, antioksidant ta’sir ko‘rsatadi - do‘lana, na’matak, kiyik o‘tida mavjud.

• Alkaloidlar (garmin, efedrin): vasodilator va gipotenziv ta’sir ko‘rsatadi - isiriq, qizilchada mavjud.

• Saponinlar (glitsirrizin): yallig‘lanishga qarshi, bronxolitik va yurakni tinchlantiruvchi ta’sir - shirinmiyada mavjud.

• Organosulfid birikmalar (allitsin): trombosit agregatini kamaytiradi, bakteriostatik ta’sir ko‘rsatadi - sarimsoqda mavjud.

Olib borilgan dastlabki tadqiqotlar natijasida Qoraqolpog'iston Respublikasi hududida yurak-qon tomir kasalliklarini profilaktika qilish va davolashda qo‘llash mumkin bo‘lgan 14 ta dorivor o'simlik turi aniqlandi. Ular 2 guruhga ajratildi: tabiiy florada o‘sadigan 7 ta tur va madaniy holda yetishtirilayotgan 7 ta tur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu o‘simliklarning ko‘pchiligi nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy tibbiyot tomonidan ham tasdiqlangan farmakologik faol moddalarni o‘z ichiga oladi. Qoraqolpog'istonning ekologik sharoiti bu o‘simliklarda biologik faol moddalarning yuqori konsentratsiyasini ta’minlaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagilar tavsiya etiladi: o'simliklarning fitokimyoviy tahlilini chuqurlashtirish; klinik tajribalar o'tkazish; standartlashtirilgan fitoterapevtik dori vositalarini ishlab chiqish; Qoraqolpog'iston florasining dorivor potentsialini kompleks baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aripov A.N., Nabiev M.M. O'zbekiston dorivor o'simliklari. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. - 412 b.
2. Eshmuratov R.A., Ajiev A.B. Qoraqalpoǵiston dorivor ósimliklari. Toshkent «Tafakkur avlodi». 2020. – 72 b.
3. Karimov R.X. Dorivor o‘simliklar ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2020. – 512 b.
4. Komarov V.L. Flora SSSR. T. I–XXX. - M.-L.: Nauka, 1934–1964.
5. Muravyova D.A., Samylina I.A. Farmakognoziya. - Moskva: Meditsina, 2002. - 656 s.

6. Toshpulatov M.Q. Fitoterapiya asoslari. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2018. – 240 b.

7. Yunusov S.Yu. Alkaloids of plants of Central Asia. - Tashkent: Fan, 1981. - 520 p.

8. Шербаев Б.Ш. Флора и растительность Каракалпакии. Нукус. Каракалпакстан. 1988. – 297 с.

9. Brixius K. et al. Crataegus berry extract WS 1442 inhibits proliferation and induces apoptosis in human colon cancer cells // Anticancer Research, 2006. - Vol. 26 (6B). - P. 4465–4472.

10. Rechinger K.H. Flora Iranica. - Graz: Akademische Druck-u. Verlagsanstalt, 1963–2015.

11. World Health Organization. Cardiovascular diseases (CVDs): Key Facts. WHO, Geneva, 2023.

12. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti. Qoraqalpog‘iston Respublikasining dorivor o‘simliklari bo‘yicha monitoring natijalari. – Toshkent, 2021.

13. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologik monitoring agentligi ma’lumotlari, 2022.

14. Qoraqolpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hisobotlari, 2020–2023 yillar.

SHIMOLIY-G‘ARBIY QIZILQUMDA O‘SIMLIK QOPLAMI DINAMIKASINI GAT (GEOAXBOROT TIZIM) TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BAHOLASH

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Biologiya kafedra dotsenti ***R.Eshmuratov***
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute
magistranti ***B.Jumamuratov***

Tayanısh sózler: geoaxborot tizimlari (GAT), ekotizim, aridizatsiya, antropogen, masofaviy zondlash, galofit.

Ключевые слова: Геоинформационные системы (ГИС), экосистема, аридизация, антропогенный, дистанционное зондирование, галофит.

Key words: Geographic Information Systems (GIS), ecosystem, aridization, anthropogenic, remote sensing, halophyte.

Hozirgi kunda qurg‘oqchil hududlar ekotizimlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash va baholash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, cho‘l zonalarida o‘simlik qoplami dinamikasi iqlim o‘zgarishi, antropogen bosim va tabiiy resurslardan foydalanish intensivligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan, Shimoliy-g‘arbiy Qizilqum hududi o‘ziga xos tabiiy sharoitlari, bioxilma-xilligi va ekologik barqarorligi bilan alohida e’tibor talab etadi.

O‘simlik qoplami dinamikasini an’anaviy usullar orqali o‘rganish ko‘p vaqt va mehnat talab qiladi hamda katta hududlarni qamrab olish imkonini cheklaydi. Zamonaviy geoaxborot tizimlari (GAT) esa fazoviy ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni tahlil qilish va turli omillar ta’sirini kompleks baholash imkonini beradi. Masofadan zondlash ma’lumotlari bilan integratsiyalashgan GAT texnologiyalari yordamida o‘simlik qoplamining holati, zichligi va tarqalishidagi o‘zgarishlarni yuqori aniqlikda aniqlash mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Shimoliy-g‘arbiy Qizilqum hududida o‘simlik qoplami dinamikasini zamonaviy GAT texnologiyalari asosida baholash orqali ekologik jarayonlarni chuqurroq tushunish va ularni monitoring qilish zarurati bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv hududdagi degradatsiya jarayonlarini aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shimoli-g‘arbiy Qizilqumni zamonaviy tadqiq qilish asosan uch yo‘nalishda rivojlanmoqda: yaylov o‘simliklarini inventarizatsiya qilish va qayta baholash, aridizatsiya va antropogen yuk ta’sirida o‘simlik qatlamining o‘zgarishini tahlil qilish, geoaxborot texnologiyalari va masofaviy zondlashdan foydalanish. Mintaqaning yaylov turlari bo‘yicha so‘nggi yillardagi ishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, uning o‘simliklar qoplamiga qiziqish, eng avvalo, cho‘l ekotizimlari holatini muntazam baholash va ulardan xo‘jalikda foydalanish zarurati munosabati bilan barqaror bo‘lib qolmoqda [Rahimova, 2024]. Bunday holat o‘simlik qatlamining

murakkab tuzilishi va floraning xilma-xilligini belgilaydi.

U.Turemuratovning umumlashtirilgan ma'lumotlariga ko'ra, Shimoliy-g'arbiy Qizilqum florasida 78 oila, 322 turkumga mansub 830 tur yovvoyi o'simliklar bor ekan [Turemuratov, 1978].

Mintaqada qumli, gipsli, sho'rxok va soz qumli cho'llar, cho'l daryo vodiylari va vohalar asosiy ahamiyatga ega. Qum o'simliklari, asosan, saksovul, juzg'un, efedra va yarim buta-g'allazor jamoalardan iborat bo'lib, ularga *Haloxylon persicum, Calligonum spp., Ephedra strobilacea, Salsola richteri, Aristida karelinii* va *Carex physodes* ishtirok etadi. Gipsli cho'llarga shuvoqli-bo'yoqli, qayrovli va begona jamoalar xos bo'lib, ularga *Artemisia terrae-albae, Salsola arbuscula, Salsola orientalis, Anabasis salsa* va ksreogipsofitlar kiradi. Tuzli hududlar *Haloxylon aphyllum, Halocnemum strobilaceum, Halostachys caspica, Kalidium caspicum, Tamarixspp.* va boshqa galofitlarning dominantligi bilan bog'liq [Turemuratov, 1978].

Hudud florasining hozirgi holati nafaqat ushbu tipologik karkasning saqlanib qolishi bilan, balki aridizatsiya, yaylov yuklamasi va jamoalarning makonda qayta qurilishi bilan bog'liq jarayonlar rolining tobora kuchayishi bilan ham belgilanadi. Qizilqum cho'l ozuqa florasi bo'yicha eng so'nggi ishlarda yaylov florasi tarkibida bir yillik va buzilishga hamda yemirilishga chidamli turlarning ulushi ortib borayotgani ko'rsatilgan, bu esa antropogen yuk ta'sirida cho'l ekosistemasi transformatsiyasining belgilaridan biri sifatida qaralmoqda [Shomurodov et al., 2024]. Shimoli-g'arbiy Qizilqum uchun bu xulosa alohida ahamiyatga ega, chunki yaylovlardan foydalanish o'simliklar qatlamiga xo'jalik ta'sirining asosiy shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shimoli-g'arbiy Qizilqum yaylov tafovutlarini hozirgi vaqtda o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, tavsiflovchi geobotanik xarakteristika GAT, kadastr va resurs baholash bilan asta-sekin to'ldirib borilmoqda. So'nggi yillardagi ishlarda nafaqat dominant turlar va jamoalarning tarkibi, balki ularning proyeksion qamrovi, hosildorligi, mavsumiy yaroqliligi va degradatsiya darajasi ham ko'rib chiqilgan. Masalan, qora bo'yoqdor va aralash juzg'unli yaylovlarni o'rganish ma'lumotlariga ko'ra, ularning hozirgi holati edafik sharoitlar, o't-o'lan boqish rejimi va buta-yarim buta yarusining saqlanish darajasining uyg'unligi bilan belgilanadi [Rahimova, 2024]. Bu cho'l jamoalarining barqarorligi va xo'jalik qiymatini amaliy tahlil qilishga klassik geobotanik belgilashdan o'tishdan dalolat beradi.

Shimoli-g'arbiy Qizilqum o'simliklari hozirgi holatining muhim xususiyati fazoviy mozaikasi bo'lib qolmoqda. Hatto katta nisbatta bo'lmagan maydonlar doirasida ham mustahkamlangan va kuchsiz mustahkamlangan qum massivlari, taqir bo'shliqlari, sho'rxok vodiylar, buta-sho'rxok komplekslari va qadimgi allyuvial o'simliklarning bo'laklari bir-biriga yaqin joylashgan. Ana shu mozaika floral boylikning notekisligini, jamoalar strukturasining qarama-qarshiligini va yaylovlarning mavsumiy hosildorligidagi tafovutni sezilarli darajada belgilaydi. Shuning uchun mintaqaning hozirgi tavsifi o'rtacha ta'riflashni emas, balki substrat,

relef, sho‘rlanish va suv rejimining mahalliy kombinatsiyalarini hisobga olishni talab qiladi.

Shu ma’noda, qoldiq uchastkalarning, eng avvalo, Sultonuizdakning florasiga oid ma’lumotlar alohida yordamchi qiziqish uyg‘otadi. Shimoli-g‘arbiy Qizilqumning umumiy xarakteristikasi uchun bu materiallar alohida emas, balki belgilovchi ahamiyatga ega. Ular umumiy cho‘l matritsasi doirasida toshli substratlar, delyuvial-prolyuvial cho‘kindilar shleyflari va murakkabroq mikrorelef bilan bog‘liq bo‘lgan lokal floristik ziddiyat markazlari qanday shakllanganini ko‘rsatadi. R.X.Esemuratovaning ma’lumotlariga ko‘ra, Sulton Uvays zamonaviy florasi 55 oila va 257 turkumga mansub 526 turni o‘z ichiga oladi, uning taksonomik strukturasi Turonga xos manzarani saqlab qoladi, biroq toshli-cho‘l elementlarining sezilarli roli va hudud uchun yangi topilmalarning salmoqli soni bilan ajralib turadi. Bu ma’lumotlar Shimoli-g‘arbiy Qizilqumning umumiy xarakteristikasini almashtirmasligi kerak, biroq, ular qoldiq balandliklar mintaqaning ichki florasining xilma-xilligini kuchaytirishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Sultonuizdag materiallari tekislik va mahalliy balandlik florasining munosabatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Qoldiq massiv florasi tarkibida yetakchi o‘rinlarni Shimoli-g‘arbiy Qizilqum hududida ham asosiy o‘rinni egallaydigan bir qator oilalar, ayniqsa, *Amaranthaceae, Asteraceae, Brassicaceae, Poaceae* va *Fabaceae* egallashi ko‘rsatib o‘tildi. Bu mahalliy o‘ziga xoslik bo‘lgan taqdirda ham bunday hududlar alohida floratik tipni hosil qilmay, Turon cho‘l florasi umumiy sistemasiga kiritilganligini tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda o‘simliklar va floraning hozirgi holatini raqamli xaritalash, GAT (geoaxborot tizimi), geobotanik kadastr va monitoring bilan bog‘lab o‘rganish ishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti Geobotanika laboratoriyasi ma’lumotlariga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston bo‘yicha bir qator loyihalarda yaylovlar xatlovdan o‘tkazilib, o‘simliklarning elektron xaritalari yaratilmoqda va cho‘l ekotizimlarining makondagi o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilinmoqda. Shimoli-g‘arbiy Qizilqum uchun bu ayniqsa muhim bo‘lib, jamoalarning nafaqat tarkibi va tuzilmasini, balki hududiy miqyosdagi hozirgi holatini ham aniqlash imkonini beradi.

Shimoli-g‘arbiy Qizilqum cho‘l ekotizimlarini tadqiq etishda geoaxborot texnologiyalari va masofaviy zondlash usullaridan foydalanish, birinchi navbatda, hududning katta maydoni, o‘simliklar qoplamining yuqori kenglikdagi xilma-xilligi va yaylov unumdorligining yillararo o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. Ushbu hudud uchun an’anaviy marshrutli va statsionar geobotanik kuzatuvlar asosiy ahamiyatini saqlab qolmoqda, biroq o‘simliklarning hozirgi holatini tahlil qilishda ular fazoviy ekstropolyatsiya, raqamli xaritalash va ko‘p yillik sun’iy yo‘ldosh monitoringisiz yetarli emas. Bunday zarurat Shimoli-g‘arbiy Qizilqumning shimoliy qismi bo‘yicha materiallarda ham bevosita qayd etilib, unda masofaviy zondlash, raqamli xaritalash va GAT o‘simlik qatlami va yaylov ekotizimlari holatini baholash aniqligini sezilarli darajada oshirishi, shuningdek, hududning geobotanik bo‘linishini aktuallashtirishi

mumkinligi ta’kidlangan.

GATni qurg‘oqchilik sharoitida qo‘llash metodologik jihatdan bir necha ma’lumotlar blokini birlashtirishga asoslanadi: turli fazoviy va vaqt bo‘yicha ajratishga ega bo‘lgan kosmik suratlar, relyefning raqamli modellari, iqlim qatorlari, tuproq-gidrologik ko‘rsatkichlar, dala geobotanik syomkasi materiallari va kadastr ma’lumotlari. Cho‘l hududlari uchun o‘simliklarning spektral belgilari va edafik xususiyatlarini birgalikda tahlil qilish alohida ahamiyatga ega, chunki siyrak o‘t-o‘lanlar sharoitida vegetatsiya indeksining qiymati o‘zi ko‘pincha biomassadan tashqari, o‘simliklar, ochiq tuproq, sho‘rxok va ko‘chma qumlar o‘rtasidagi ziddiyatni ham aks ettiradi. Bu yo‘nalishda GAT nafaqat vizualizatsiya vositasi, balki turli masshtabdagi va kuzatish sanasidagi ma’lumotlarni taqqoslash imkonini beruvchi fazoviy tahlil muhiti sifatida ham xizmat qiladi [Institute of Botany AS RUz, 2025].

Shimoliy-g‘arbiy Qizilqum hududida o‘simlik qoplami dinamikasini GAT texnologiyalari asosida baholash natijalari ushbu yondashuvning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Fazoviy va vaqt bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘simlik qoplamining o‘zgarish tendensiyalari, degradatsiya jarayonlari hamda ularning asosiy omillari aniqlanishi mumkinligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘simlik qoplami dinamikasiga iqlimiy omillar bilan bir qatorda antropogen ta’sirlar ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. GAT texnologiyalari yordamida ushbu jarayonlarni kompleks baholash, hududlar kesimida farqlarni aniqlash va ekologik holatni monitoring qilish imkoniyati kengayadi.

Umuman olganda, GAT asosidagi tahlil usullari cho‘l ekotizimlarida o‘simlik qoplamini o‘rganishda ishonchli ilmiy vosita sifatida xizmat qiladi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, degradatsiya jarayonlarini oldini olish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

REZYUME. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Shimoliy-g‘arbiy Qizilqum hududida o‘simlik qoplami dinamikasini zamonaviy GAT texnologiyalari asosida baholash orqali ekologik jarayonlarni chuqurroq tushunish va ularni monitoring qilish zarurati bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv hududdagi degradatsiya jarayonlarini aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

РЕЗЮМЕ. Актуальность данного исследования определяется необходимостью более глубокого понимания и мониторинга экологических процессов путем оценки динамики растительного покрова в Северо-Западном Кызылкуме на основе современных ГИС-технологий. Данный подход играет важную роль в выявлении процессов деградации в регионе, рациональном использовании ресурсов и обеспечении экологической устойчивости.

SUMMARY. The relevance of this research is determined by the need for a deeper understanding of ecological processes and their monitoring by assessing the dynamics of vegetation cover in the North-Western Kyzylkum region based on

modern GIS technologies. This approach plays an important role in identifying degradation processes in the region, rational use of resources, and ensuring environmental sustainability.

PAYDALANILĠAN ÁDEBIYATLAR:

1. Turemuratov U. “Rastitel’niy pokrov Sebero-zapadnix Kizilkumov” – Tashkent
2. Granitov I.I. “Rastitel′nogo pokrova YugaZapadnogo Kizylkuma” (1964; 1967)
3. Shomurodov et al., 2024
4. R.X.Esemuratova - Rare and endemic plants of the relic mountain of Sultan-Uvays
5. Institute of Botany AS RUz, 2025

JANUBIY OROLBO‘YI MIRIDAE OILASI YARIM QATTIQQANOTLILAR DOMINANT TURLARINING BIOLOGIYASI

G.P.Jollibekova, 2-kurs tayanch doktorant
Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh., Qoraqalpog‘iston
T.I.Juginisov, b.f.d., professor
Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh., Qoraqalpog‘iston

Janubiy Orolbo‘yi mintaqasida (Miridae) mirid qandalalarning 17 turkumga mansub 27 turi aniqlangan, ulardan 14 turi o‘rganilayotgan hudud faunasi uchun birinchi marta qayd etilgan. Janubiy Orolbo‘yi uchun xos bo‘lgan iqlim mintaqalari, o‘simliklar assotsiatsiyasi va hayvonot dunyosiga kelsak, haqiqiy yarim qattiqqanotlilar, mirid qandalalar, deyarli maxsus o‘rganilmagan.

Janubiy Orolbo‘yi mintaqasi o‘ziga xos keskin kontinental iqlimi, sho‘rlanish darajasining yuqoriligi va antropogen omillar ta’siri bilan ajralib turadi. Ushbu sharoitlar hasharotlar faunasining, jumladan Miridae (yarim qattiq qanotlilar — Hemiptera turkumiga mansub o‘simlikxo‘r va yirtqich qo‘ng‘izlar) oilasi vakillarining shakllanishi va tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Janubiy Orolbo‘yi hududida Miridae oilasiga mansub turlar xilma-xilligi nisbatan yuqori bo‘lib, ular asosan o‘simlik shirasi bilan oziqlanuvchilar, yirtqichlar ya’ni zararkunandalarni yo‘q qiluvchilar va aralash oziqlanishga ega turlar hisoblanadi. Bu hududda qishloq xo‘jaligi ekinlariga zarar yetkazuvchi Deraeocoris, Lygus, Adelphocoris, Orthotylus avlodlari va ayrim biologik nazoratda muhim rol o‘ynaydigan Deraeocoris punctulatus, Lygus pratensis, Adelphocoris lineolatus, Campylomma diversicorne, Orthotylus flavosparsus, Lygus gemellatus, Trigonotylus ruficornis, Campylomma verbasci turlar keng tarqalgan.

Ushbu o‘rinda Miridae oilasi Deraeocoris punctulatus, Lygus pratensis, Adelphocoris lineolatus, Campylomma diversicorne, Orthotylus flavosparsus, Lygus gemellatus, Trigonotylus ruficornis, Campylomma verbasci turlarining xilma-xilligiga ekologik omillardan iqlim sharoiti, tuproq va o‘simlik qoplami shuningdek antropogen omillar kuchli ta’sir qiladi. Ya’ni Janubiy Orol bo‘yi sharoitida yoz mavsumining issiq va quruq kelishi, qishning sovuq bo‘lishi

ayrim turlarning faqat vegetatsiya davrida faol bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, sho‘rxok tuproqlar va galofit o‘simliklarning ustunligi ko‘plab o‘simlikxo‘r hasharotlarning oziqlanish va ko‘payishi uchun noqulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari sug‘oriladigan dehqonchilik hududlarining kengayishi, tuproq degradatsiyasi, o‘simlik qoplami qisqarishi, pestitsidlarning qo‘llanilishi va yangi agrotizimlarning shakllanishi natijasida ayrim foydali yirtqich turlar soni kamayib, zararkunanda turlar ustunlik qilishi ham mumkin.

Kuzatuv natijalarga ko‘ra, Janubiy Orolbo‘yida Miridae oilasining dominant turlari sifatida Deraeocoris punctulatus, Lygus pratensis, Adelphocoris lineolatus, Campylomma diversicornelarning sug‘oriladigan agroekotizimlarda paxta-

Gossypium hirsutum L., bug‘doy - Triticum aestivum L., makkajo‘xori - Zea mays L., olma va nok bog‘lari, qand lavlagi kabi sabzavot ekinlarida, tabiiy cho‘l va yarim cho‘l hududlari, daryo bo‘ylari va namlik yuqori zonalar biotoplari beda - (Medicago sativa), sho‘ra (Chenopodium) yoki olabo‘ta (Atriplex), turanga - Populus pruinosa (Schrenk.), yulg‘un Tamarix hispida (Willd.), zarpechak (Galium verum), sho‘rxok (Salsola) da keng tarqalganligi aniqlandi. Eng ko‘p tarqalgan Lygus avlodlari ko‘proq ekin maydonlarida, Deraeocoris avlodlari yirtqich sifatida turli agrotsenozlarda uchraydi, Orthotylus avlodlari turlari daraxt va butalarda keng tarqalgan.

Umuman olganda *Miridae* oilasi turlarining xilma-xilligi asosan agroekotizimlarda zararkunandalar va foydali hasharotlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashi, ayrim turlari biologik kurash vositasi sifatida qo‘llanilishi va muayyan hududning ekologik holatini baholashda bioindikator vazifasini bajarishi bilan muhim hisoblanadi.

Janubiy Orolbo‘yi hududida *Miridae* oilasi turlarining xilma-xilligi tabiiy-iqlimiy va antropogen omillar ta’sirida shakllangan murakkab tizim hisoblanadi. Ushbu oilaga mansub turlar agroekotizimlarda muhim ekologik rol o‘ynab, qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ularni chuqur o‘rganish, monitoring qilish va foydali turlarni muhofaza qilish dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мусаев Д.М. Жанубий Ўзбекистон (Hemiptera: Miridae) сўқир қандалалари. Ташкент. 2020.
2. Хамраев А.Ш. Клопы мириды вредители хлопчатника // Защита растений. – Ташкент, 1993. –№. 4. –С.25–26.
3. Пучков В.Г. Полужесткокрылые. Слепняки или мириды (Общий обзор) // Защита растений, 1973. № 2, – С. 33 – 36.
4. Соболева Е.М. Полевой клоп Lygus pratensis L. как вредитель люцерны Узбекистана // Тр. Ташкент с-з ин-та, 1957. вып. 8, – С. 65–70.

BIOLOGIYA DARSLARI SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Jollıbekova Gulmira Perdebaevna – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya) ixtisosligi 1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi.
Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh. Qoraqalpog'iston.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri har bir pedagog kadrning kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasini rivojlantirishning yuqori darajada bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, uni ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi muntazam ravishda o'z bilimini oshirib va rivojlantirib borishi, darslarida o'qitish metodlaridan unumli foydalanishi va o'quv jarayonining samaradorligini oshirib borishi lozim. O'qituvchi o'z kasbining mutaxassisi bo'lishi kerak. U o'z fanini chuqur bilishi bilan birga o'z bilimlarini boshqalarga sodda va tushunarli qilib yetkaza olishi ham muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ilm-fan, texnika-texnologiyalar va sanoat ishlab chiqarish sohalari kun sayin rivojlanmoqda. Shu bilan birga, bizning mamlakatimizda ham ta'limning asosiy boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar, asosan tabiiy fanlarga kiradigan, zamonaviy ishlab chiqarish va kundalik hayotimizning asosini tashkil etadigan biologiya fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, darslarda innovatsion texnologiyalar va ilg'or o'qitish metodlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda mamlakatimizda yangi o'zgarishlar va yangilanishlar davri har bir insondan yangicha fikrlashni, tashabbus ko'rsatishni, bunyodkorlik bilan ish olib borishni talab etmoqda. Maktabdagi dars - pedagogik ijodni amalga oshiradigan asosiy o'rin. Dars jarayonida o'qituvchining eng asosiy funksiyalaridan biri bilimni yetkazish, o'rgatishdir. Kelajak avlodga o'z bilim va tajribasini yetkazishda o'qituvchi o'zining ijodkorligini namoyon etadi.

Pedagogik tadqiqotlar natijasida shaxs axborotni o'zi o'qiganda 10%, ma'lumotni eshitganda 20%, voqea va hodisalarni ko'rganda, ular haqida axborotlarni eshitganda 50%, axborotlarni o'zi uzatganda 80%, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llaganda 90% axborotlarni xotirada saqlash imkonini berishi aniqlangan[1].

O'qituvchi bu darsning muallifi, darsning o'tilishi uning ilhomi va mahoratiga bog'liq hisoblanadi. O'qishga bilishga qiziqishni paydo qilishning qanday shartlari bor? Mohir o'qituvchi dars paytida bu qiziqishni o'quvchilarda qanday paydo qiladi. O'quv faoliyatini faollashtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishning doimiy rivojlanib borishi uchun u nima qilishi kerak. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida eng ustuvor sanalgan texnologiyalardan, muammoli ta'lim texnologiyasidir. Bunda asosan o'quvchilarga mavzularni qiziqarli tarzda tushuntirish va mustahkamlash imkonini beradi [2].

Muammolita'lim texnologiyalari o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini orttirish, ko'nikmalarni malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo'llanilib,

unda o‘quvchi o‘quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, ma’lumotlami umumlashtirib, yangi axborot oladi[3]. Boshqacha aytganda, avval o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini yangi vaziyatlarda qo‘llab, bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi. Bilimlarni bunday o‘zlashtirish usulini hech bir darslik va ustoz o‘rgata olmaydi, faqat o‘quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida izlanadi va muammolar yechimini topadi. O‘quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o‘rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashga, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi.

Masalan, “Sutemizuvchilarning hayotiy faolligi yuragining hajmiga bog‘liq, hasharotlarda ham shundaymi?” degan savolga javob topishi uchun o‘quvchilaravval sutemizuvchi hayvonlar va hasharotlarning qon aylanish sistemasini taqqoslashi, qonning bajaradigan funksiyalarini eslashi, ular orasidagi farqni belgilashi, nafas olish a’zolarining tuzilishi va funksiyasini chog‘ishtirishi, to‘plangan ma’lum otlar asosida xulosa yasab, fikrini dalillashi lozim. Savolning bu tarzda muammoli qo‘yilishi o‘quvchilarda tahliliy va mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalarini egallashga imkon beradi. Muammoli ta’limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog‘liq:

– muayyan mavzuga oid o‘quv materialini muammolashtirish;

•muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;

– ta’lim jarayonini o‘yin, mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashtirish;

–o‘qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o‘z o‘rnida va samaraii foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muam moli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o‘quvchilarga bayon etish[3].

Muammoli vaziyatlardan o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o‘tish tavsiya etiladi.

O‘qitish jarayoniga muammoli darslami qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi masalalami hal qilishi:

–o‘quv dasturi bo‘yicha qaysi mavzulami muammoli dars shaklida o‘tish mumkinligini belgilashi;

–mavzu matnidagi masalalar bo‘yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlami aniqlashi, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilishi;

–o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta’minlaydigan vosita va usullami aniqlashi, ulardan o‘z o‘rnida va samaraii foydalanish yo‘llarini belgilashi zarur.

Muammoli darslarda o‘qituvchining faoliyati, avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o‘quvchilar oldiga o‘quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo‘yish va darsda mazkur o‘quv muammolaridan samaraii foydalanishga erishish, o‘quvchilar

faoliyatini muammolarni hal etishga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi [4].

Muammoli savolni ilgari surish – bu usul o‘quvchilarning avvalgi darslarda olgan bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo‘llashga zamin yaratadi. Quyida shunday savollardan namunalar keltiramiz:

- Nima uchun qush tuxum po‘chog‘i yoriqlaridan kirgan havo bilan nafas olishiga qaramasdan embrional rivojlanishining muayyan bosqichida jabra yoriqlari vujudga keladi?
- Kir yuvgan yoki o‘tin yorgan kishi qo‘lini ko‘p ishlatishga to‘g‘ri keladi. Bu holatda nima uchun yelkada charchoq seziladi?
- Nima uchun shifokor qabuliga kelgan bemoming o‘naqay yoki chapaqay ekanligini bilishi lozim?

Biologiyani o‘qitish jarayonida o‘qituvchi yuqorida qayd etilgan tarzdagi muammoli savollarni o‘rtaga tashlashi va o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llashi orqali ularda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirishga e’tibor qaratishi lozim.

Umumlashtirib aytganda muammoli ta’lim texnologiyasi hozirgi kunda ta’lim jarayonida eng ustuvor texnologiyalardan biri sanaldi. Bu texnologiya asosan o‘quvchilarga mavzularni qiziqarli tarzda tushuntirish va mustahkamlash imkonini beradi. Biologiya darslari samaradorligini oshirishda muammoli ta’lim texnologiyalari va boshqa innovatsion usullardan foydalanish muammosi xorijlik va yurtimiz pedagoglari tomonidan juda keng o‘rganilgan bo‘lib, bu borada bir qancha yutuqlarga ham erishilgan. Shu bilan birga, shu kungacha yaratilgan metodlar va texnologiyalarni zamon talabiga moslashtirish uchun ularni biroz o‘zgartirib va takomillashtirib borish lozim. Bu metod va texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish darsning sifat samadorligini oshrishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov H.T., Xattaboev M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: “Iqtisod – Moliya”, 2016. - 200 b.
2. E.U.Eshchanov. H.T.Omonov. N.X.Xojayev. S.Madyarova. Pedogogik texnologiyalar va pedogogik mahorat. “Iqtisod-moliya” nashriyati.Toshkent. 2009. - 240 b.
3. O‘.X.Muxamedov, M.H.Usmonboeva, S.S.Rustamov. “Ta‘limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar” o‘quv uslubiy tavsiya.- Toshkent.- 2016.-45b
4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovacion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2016 yil.

KATTA KASPIY ORTI TERMITI (ANACANTHOTERMES AHNGERIANUS JACOBS.) TAKSANOMIK TUZILISHI

S.O.Haytboyeva Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

Bugungi kunda dunyoda global iqlim o‘zgarishining kuchayishi, qurg‘oqchilikning ortishi, urbanizatsiya jarayonlari, tabiiy landshaftlarning buzilishi ekotizimning muhim komponentlaridan bo‘lgan hayvonot olami vakillarining turli xil ekologik yashash joylariga moslashishiga olib kelmoqda. Bu o‘rinda, hasharotlar, jumladan termitlar yangi ekologik hududlarga kirib kelib, ular tomonidan keltiriladigan biozararlanish darajasi hajmining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, tabiiy ekotizim va antropogen bosim yuqori bo‘lgan hududlarda termitlar tarqalishini monitoring qilish, ekologiyasini asoslash va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jahonda aholi turar joylarini, bino-inshootlarni, tarixiy-madaniy obidalarni biozararlanishlardan himoya qilish va oldini olishga katta e’tibor qaratilmoqda.[1] Bu borada, tirik organizmlarning turli material va texnik qurilmalar bilan aloqasi o‘rganildi, jumladan, qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga zarar keltiruvchi hasharot turlari inventarizatsiya qilindi, ularning lokal tarqalish xususiyatlari aniqlandi va qarshi kurash choralari takomillashtirildi. Ta’kidlash lozimki, kuchli o‘zlashtirilgan va aholi yashaydigan hududlarda antropogen omillar ta’sirida entomofauna vakillarining keskin kamayib ketayotganligi bilan birgalikda, ularning ko‘pgina zararli vakillari populyatsiyalarining yashash arealining kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, arid hududlarda tarqalgan Anacanthotermes avlodiga mansub termitlarning binolarning yog‘och qismlari, arxiv kutubxonalari, tarixiy obidalar, matoli kiyim-kechaklar va agrotsenoz dalalari hamda yovvoyi o‘simliklar olamining holatiga jiddiy xavf solayotganligini alohida ta’kidlash lozim. Shunga ko‘ra, bino-inshootlar va ularning konstruktsiyalariga jiddiy zarar keltiruvchi ijtimoiy tabaqalashuvga ega zararli hasharotlarning tarqalish xususiyatlarini monitoring qilish, ularga qarshi samarador va bezarar kurash usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Termitlar yoki oq chumolilar (lotincha Isoptera) to’liq bo’lmagan metamorfozli ijtimoiy hashoratlarning infratartibi bo'lib suvaraklar turkumiga kiradi. "Oq chumolilar" nimiga qaramay,ular chumolilar emas,garchi ularning hayot tarzi ko’p jihatdan ularga o’xshaydi.

Uzoq vaqt davomida termitlar mustaqil tartib hisoblangan,yaqinda ularning taksanomik maqomi muhokama qilingan va infra turkumdan katta oilagacha (Termitoidae; 2007)[3]Suvaraklar tarkibiga kiradi. Chumolilar va asal arilar singari ,termitlar kalloniya azolario o’rtasida mehnat taqsimoti va turli kastalar (askarlar,ishchilar,enagalar,malika qirol va boshqalar) mavjud bo’lgan kata oilalarda yashaydi.Ular asosan o’simlik materiali va sellioza va o’z ichiga olgan o’lik yog’och bilan oziqlanadi,Ularning hazm qilish uchun ichak traktida ko’plab simbiotik mikroorganizmlar mavjud.Tropik va subtropik mamlakatlarda ular tuproq hosil bo’lishida muhum ro’l o’ynaydi.Termitlar bazi xalqlarning xalqlarning ratsionidagi

ozuqa bo'lib,va ananaviy tibbiyotda qo'llaniladi.Termitlar oilasida individlar soni bir necha millionga yetadi va malika termitning umri bir necha on yildan oshadi.Bir necha yuzlab turlar binolar,qishloq xo'jaligi ekinlari yoki o'rmon plantatsiyalarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan zararkunandalar sifatida iqtisodiy ahamiyatga ega.

Eng ko'p endemic avlodlar quydagi mintaqalarda uchraydi:Neotropiklar (63,78%), Afrotropiklar (85,77%), Avstralya (23,64%), Sharqiy mintaqa (56,61%)[ ]. Dunyoda 3106 tur va 331 avlod ma'lum.

Termit turlarning taxminan 10% zararkunandalar bo'lib,Inson iqtisodiyotiga har yili millyardlab zarar keltiradi (dunyo bo'ylab 20 millyard dollargacha). Oziqlanishni avzal ko'rganligi sababli,termitlar ba'zi hududlarda yog'och binolarning haqiyqiy ofatiga aylanadi.Ularning maxfiyligi va yog'ochni istemol qilish taktikasi,bunda sirt buzulmagan ko'rinadi,ular juda kech kashf qilinishiga sababdir.Yana bir tashvish - termitlarning kvartiralarga tasodifiy kirib borishi, buning natiyjasida ularning assortimenti iqlim tufayli ochiq yaxshay olmaydigan xududlarga kengaymoqda.Hozirgi kundagi termitlarning taksanomik tuzilishi quydagicha :

TAKSANOMIK TUZULISHI

Eukariotlar katta qirolligi (Эukaryota Tomas)

Hayvonlar qirolligi (Kingdom Animalia Linnaeus, 1758)

Haqiyqiy ko'p hujayrali organizmlar kenja qirolligi (Эumetazoa Butschili, 1910)

Ikki tamonlama simmetrik organizmlar (Bilateria Hatschek, 1888) — oldingi-orqa tana o'qi ,organ tizmlari va aniq belgilangan yoki haqiyqiy mavjudligi bilan tavsiflangan haqiqiy ko'p hujayrali hayvonlarni o'z ichiga olgan takson.

Protostomlar (Protostomia Grobben, 1908) Protostomlar ikki tomonlama simmetrik hayvonlar gruhidan ko'p hujayrali hayvonlarning taksonidir.Embrion rivojlanish davrida birlamchi o'rnida og'iz yoki blastoporning yoriqsimon yopilishi bilan og'iz va anus hosil bo'ladi.

Bo'g'imoyoqlilar tipi (Arthropoda Gravenhorst, 1843)

Traxeyalilar kenja tipi (Atelocerata)

Hasharotlar sinfi (Insecta, Hexapoda).

Haqiyqiy hasharotlar kenja sinfi (Insecta-Ectognatha)

Qanotli hasharotlar kenja sinfi (Pterygota)

Yangi qanotlilari kagortasi (Neoptera)

Polinoptera kenja kagortasi – Polyneoptera (Orthopteroidea).

Suvaraksimonlar katta turkumi –Pandictyoptera (Dictyoptera).

Suvaraklar turkumi (Blattodea)

Suvaraklar turkumi suvaraklarning 8 ta va termitlarning 13ta oilasini birlashtiradi.

Oila: Hodotermitidae Desneux, 1904, (Hagen, 1853).

Oilaga Afrika va Osiyoda tarqalgan ikkita avlod va 20 dan ortiq tur kiradi.

Avlod: ***Anacanthotermes*** Jacobs. 1901.
Bu avlod termitlarning 8 turini birlashtirgan
Tur. ***Anacanthotermes ahngerianus*** Jacobs. 1901
Tarqalishi:Markaziy Osiyo ,Eron ,Iroq ,Hindiston,Shimoliy Afrika.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Д.А., Холматов Б.Р., Абдуллаев И.И., Мирзаева Г.С., Рустамов К.Ж. Экология термитов рода *Anacanthotermes*: - Тошкент: Фан, 2019. - 255 с.
2. Muxammadiyev B.Q. “Hasharotlar ekologiyasi va tur tarkibining sistematik tahlili” // Toshkent Davlat agrar universiteti. Tashkent, 2015 y. 95-98 b.
3.Inward, D., Beccaloni, G., Eggleton, P.Death of an Order: a comprehensive molecular phylogenetic study confirms that termites are eusocial cockroaches. Biology Letters, 2007 y. 331-335 b.
4. Krishna, K., Grimaldi, D.A., Krishna, V., Engel, M.S. Treatise on the Isoptera of the World. Bulletin of the American Museum of Natural History. No. 377. 2013 y.17-32 b.

YOSH ORGANIZMGA FAST-FOOD VA GAZLI ICHIMLIKLARNI ZARARLI TA'SIRI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Haydarova Pardaxol Boboqulovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Abdullayeva Dilfuza Rixsixodjayevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida jadal islohatlar davom etmoqda. Bu o'zgarishlar tub mohiyati bilan inson uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini taminlashga qaratilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Keyingi yillarda masalaga mana shunday yondashuv bizning ushbu sohadagi faoliyatimiz mezoniga aylandi''

Fast-food mahsulotlarining talaba yoshlar salomatligiga ta'siri adabiyotlarda ta'kidlanishicha, fast-food mahsulotlari yuqori kaloriyali, ko'p miqdorda to'yingan yog'lar, trans - yog'lar, ortiqcha tuz va kimyoviy qo'shimchalarni o'z ichiga oladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, muntazam ravishda yuqori kaloriyali, yog'li va qayta ishlangan ovqat iste'mol qilish metabolik sindrom, semirish va yurak-qon tomir kasalliklarining asosiy xavf omillaridan biridir. Talaba yoshlar odatda o'quv yuklamasi, vaqt tanqisligi va energiya ehtiyojining ortishi tufayli fast-foodga murojaat qiladilar. Turli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fast-food iste'moli oshishi bilan ularning tana vazni indeksi (BMI), qondagi triglitseridlar va "yomon" xolesterin (LDL) miqdori oshadi. Akademik manbalarda trans - yog'lar yallig'lanish jarayonlarini kuchaytirishi, insulin sezuvchanligini pasaytirishi va qandli diabet rivojlanishiga zamin yaratishi qayd etilgan.

Gazli ichimliklarning organizmga salbiy ta'siri gazli ichimliklar ko'pincha yuqori miqdorda shakar (ayniqsa, yuqori fruktozali makkajo'xori siropi), sun'iy rang beruvchilar, kislotalar va konservantlarni o'z ichiga oladi. Tibbiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, bitta gazli ichimlik tarkibidagi shakar miqdori kunlik tavsiya etilgan me'yorning 120–150 foizini tashkil qilishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda gazli ichimliklarni tez-tez iste'mol qilish quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi ko'rsatilgan: Semirish va insulin qarshiligi kuchayadi. Shakarli ichimliklar organizmga tez so'riladi, glyukoza darajasini keskin oshiradi va insulin ishlab chiqarilishini ko'paytiradi. Tish emalining yemirilishi fosfor kislotasi va shakar birikmasi tufayli kuchayadi. Suyak zichligining pasayishi — kalsiy so'rilishini susaytiruvchi fosfatlar ko'pligi natijasida. Yurak kasalliklari xavfini oshiradi — ortiqcha shakar qon bosimini ko'taradi va yallig'lanishni kuchaytiradi.

Psixologik va fiziologik ta'sirlar fast-food va shakarli ichimliklarda mavjud bo'lgan qo'shimchalar, stabilizatorlar va sun'iy tatlandırgichlar asab tizimi faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Turli ilmiy manbalarda oziq-ovqatdagi

ko‘p shakar miqdori: diqqatning pasayishi, charchoqning tez kelishi, kayfiyatda keskin o‘zgarishlar, uyqu buzilishlari bilan bog‘liqligi qayd etilgan. Bu holat ayniqsa doimiy aqliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi talaba yoshlar uchun sezilarli salbiy oqibatlarga ega.

Talaba yoshlar orasida fast-food va gazli ichimliklar iste’moli sabablar Adabiyotlarda ko‘rsatilganidek, yoshlar orasida ushbu mahsulotlarning keng tarqalishiga quyidagi omillar sabab bo‘ladi: birinchidan ularning qulayligi va tez tayyor bo‘lishi, ikkinchidan arzon narxi hamda reklama va marketingning kuchliligi, uchinchidan ota-ona nazorati pastligi, o‘quv yuki yuqoriligi va stresslar Bu omillar sog‘lom ovqatlanishning buzilishiga va zararli odatlarning shakllanishiga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlar va sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha tavsiyalar asosida quyidagi profilaktik choralar taklif etiladi:

1)Ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qilish – universitet oshxonalarida sog‘lom taomlar menyusini kengaytirish – sog’lom ovqatlanish bo‘yicha seminar va treninglar tashkil etish:

2)Shaxsiy ovqatlanish madaniyatini shakllantirish – kunlik ratsionda sabzavot, meva, don mahsulotlari va tabiiy ichimliklar ulushini oshirish – shakarli ichimliklar o‘rniga suv, tabiiy sharbatlar yoki choy iste’moli:

3)Reklama va savdo nuqtalarida nazoratni kuchaytirish – yoshlar orasida zararli ovqatlar reklamasini cheklash – o‘quv maskanlarida gazli ichimliklar savdosini kamaytirish:

4)Jismoniy faollikni oshirish – haftalik kamida 150 daqiqa o‘rtacha jismoniy mashg‘ulot sog‘lom metabolizmni qo‘llab-quvvatlaydi.

Adabiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fast-food va gazli ichimliklar talaba yoshlar salomatligi uchun sezilarli xavf tug‘diradi. Ularning muntazam iste’moli metabolik, endokrin, gastrointestinal va psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Shu bois sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish hamda yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish muhim sanaladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Healthy diet: Fact sheet. Geneva, 2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. Sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent, 2022.
3. Malik, V. S., Hu, F. B. “Sugar-sweetened beverages and health: where does the evidence stand?” The American Journal of Clinical Nutrition, 2019.

BOLALAR VA KATTALARDA QON TOMIR TIZIMINING FIZIOLOGIK FARQLARI

Ibragimova Kamola Zokirjon qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o‘qituvchisi
ibragimovakamola1995@gmail.com

Inson organizmida yurak-qon tomir tizimi hayotiy muhim funksiyalarni bajaruvchi asosiy tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimning markaziy elementi bo‘lgan qon tomirlari organizm to‘qimalariga kislorod va oziq moddalarni yetkazib berish, metabolik mahsulotlarni chiqarib yuborish hamda gomeostazni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Qon tomir tizimi insonning ontogenez jarayonida sezilarli darajada o‘zgarib boradi. Ayniqsa, bolalik davridan boshlab voyaga yetganlik va qarilik davrigacha bo‘lgan oraliqda tomirlarning strukturaviy va funksional xususiyatlari keskin farqlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi bolalar va kattalarda qon tomir tizimining fiziologik farqlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ushbu farqlarning organizm faoliyatiga ta’sirini ochib berishdan iborat.

Qon tomir tizimining umumiy tavsifi

Qon tomir tizimi arteriyalar, venalar va kapillyarlardan tashkil topgan bo‘lib, ular orqali qonning uzluksiz aylanishi ta’minlanadi. Arteriyalar yurakdan chiqayotgan qonni yuqori bosim ostida tashiydi, venalar esa qonni yurakka qaytaradi. Kapillyarlar esa modda almashinuvi amalga oshadigan asosiy joy hisoblanadi. Qon tomirlarining devori uch qavatdan iborat: intima (ichki qavat), media (mushak qavati) va adventitsiya (tashqi qavat). Ushbu qatlamlarning tuzilishi yoshga qarab o‘zgaradi va bu o‘zgarishlar tomirlarning funksional imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarda qon tomir tizimining fiziologik xususiyatlari Bolalar organizmida qon tomir tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, u yuqori darajada moslashuvchanlikka ega. Bolalarda arteriya devorlari elastik tolalarga boy bo‘lib, ularning cho‘ziluvchanligi yuqori darajada rivojlangan. Bu holat qon bosimining keskin o‘zgarishlariga moslashish imkonini beradi. Bolalarda arterial qon bosimi kattalarga nisbatan past bo‘ladi. Bu yurakning chiqarish kuchi va tomir qarshiligining nisbatan kamligi bilan izohlanadi. Bolalarda kapillyarlar tarmog‘i keng va faol bo‘lib, bu to‘qimalarda modda almashinuvining yuqori intensivligini ta’minlaydi.

Vegetativ boshqaruv

Bolalarda qon tomir tonusini boshqaruvchi nerv tizimi to‘liq yetilmagan bo‘ladi, bu esa tomirlarning tez kengayishi yoki torayishiga olib kelishi mumkin. Voyaga yetgan insonlarda qon tomir tizimi to‘liq shakllangan va barqaror faoliyat ko‘rsatadi. Kattalarda tomir devorida kollagen tolalar miqdori ortadi, elastiklik esa nisbatan kamayadi. Bu tomirlarning qattiqlashuviga olib keladi. Qon bosimining barqarorligi: kattalarda arterial bosim nisbatan barqaror bo‘lib, bu markaziy va periferik mexanizmlar orqali boshqariladi. Periferik qarshilik kattalarda yuqoriroq bo‘ladi, bu esa qon aylanish tizimining optimal ishlashini ta’minlaydi. Tomirlarning ichki qavati endoteliy modda almashinuvini boshqaradi. Kattalarda uning faoliyati barqaror

bo‘lsa-da, yosh o‘tishi bilan pasayishi mumkin.[Guyton and Hall: 161-220]

Yoshga oid farqlar klinik amaliyotda muhim ahamiyatga ega. Masalan, bolalarda past qon bosimi fiziologik norma hisoblanadi, kattalarda esa bu patologik holat bo‘lishi mumkin. Shuningdek, tomir elastikligining kamayishi yurak-qon tomir kasalliklari, jumladan Gipertoniya rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, tomir devoridagi o‘zgarishlar Ateroskleroz kabi kasalliklarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ushbu kasalliklar asosan kattalarda uchraydi va tomirlarning torayishiga olib keladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qon tomir tizimining yoshga oid o‘zgarishlari molekulyar darajada ham kechadi. Endotelial hujayralarda yuzaga keladigan Endotelial disfunksiya tomirlarning kengayish qobiliyatini pasaytiradi. Bu esa qon aylanishining buzilishiga olib keladi.[Ganong:573-590]

Shuningdek, oksidativ stress va yallig‘lanish jarayonlari ham tomirlarning qarishida muhim rol o‘ynaydi.

Yoshga bog‘liq o‘zgarishlar ontogenez jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular bolalik, o‘smirlik, yetuklik va qarilik davrlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Ushbu o‘zgarishlar hujayra darajasida metabolizmning sekinlashuvi, to‘qimalarda regeneratsiya jarayonining pasayishi va funksional zaxiralarning kamayishi bilan xarakterlanadi.

Organizmning qarish jarayoni ko‘p jihatdan Oksidativ stress va erkin radikallar ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, bu hujayra strukturalarining shikastlanishiga olib keladi. Natijada organ va tizimlar faoliyatida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keladi. Yosh o‘tishi bilan yurak-qon tomir tizimida qator muhim o‘zgarishlar yuz beradi. Arteriyalar devorida elastik tolalar kamayib, kollagen miqdori ortadi, bu esa tomirlarning qattiqlashuviga sabab bo‘ladi. Ushbu jarayon natijasida arterial bosim oshib boradi va Gipertoniya rivojlanish xavfi ortadi. Shuningdek, tomir devorida lipidlarning to‘planishi Ateroskleroz rivojlanishiga olib keladi. Bu esa yurak ishemik kasalligi, insult va boshqa og‘ir asoratlar xavfini oshiradi. [Vander 385-450]

Klinik jihatdan ushbu o‘zgarishlar quyidagilar bilan namoyon bo‘ladi: qon bosimining barqaror oshishi, jismoniy yuklamaga chidamlilikning kamayishi.

Yurak urish ritmining o‘zgarishi: Yosh o‘tishi bilan o‘pka to‘qimasining elastikligi kamayadi, alveolalar yuzasi qisqaradi va gaz almashinuvi samaradorligi pasayadi. Bu organizmda kislorod yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlar klinik jihatdan: nafas qisishi, jismoniy faollikda tez charchash, o‘pka kasalliklariga moyillik oshishi bilan namoyon bo‘ladi. Qarilik davrida surunkali obstruktiv o‘pka kasalliklari ko‘proq uchrashi ham aynan shu fiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq.[Sherwood: 300-360]

Asab tizimidagi o‘zgarishlar va ularning ahamiyati

Markaziy asab tizimida yosh bilan neyronlar soni kamayadi, sinaptik uzatish sekinlashadi. Bu esa kognitiv funksiyalarning pasayishiga olib keladi.

Klinik jihatdan: xotira susayishi, diqqatning pasayishi, reaksiya tezligining sekinlashuvi kuzatiladi. Ushbu jarayonlar ayrim hollarda Altsgeymer kasalligi kabi

nevrodegenerativ kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Yosh o‘tishi bilan gormonal muvozanat o‘zgaradi. Metabolizmni boshqaruvchi gormonlar sekretsiyasi kamayadi. Bu esa moddalar almashinuvining sekinlashuviga olib keladi. Masalan: insulin sezgirligi pasayadi, qalqonsimon bez faoliyati o‘zgaradi, jinsiy gormonlar darajasi kamayadi, natijada qandli diabet va metabolik sindrom rivojlanish xavfi ortadi. [Robbins and Cotran: 495-510]

Klinik amaliyotda yosh omilining ahamiyati

Yoshga bog‘liq o‘zgarishlarni hisobga olish shifokorlar uchun muhimdir. Diagnostika va davolash jarayonida quyidagilar e’tiborga olinadi: dori vositalarining dozasi yoshga qarab belgilanadi, simptomlar har xil yoshda turlicha namoyon bo‘ladi, reabilitatsiya jarayoni yoshga bog‘liq holda farqlanadi.

Masalan, bolalarda tez regeneratsiya kuzatilsa, kattalarda tiklanish jarayoni sekin kechadi.

Xulosa

Bolalar va kattalarda qon tomir tizimining fiziologik xususiyatlari sezilarli darajada farq qiladi. Bolalarda tomirlar yuqori elastiklik va moslashuvchanlikka ega bo‘lsa, kattalarda strukturaviy barqarorlik ustunlik qiladi. Yosh o‘tishi bilan tomirlarning elastikligi kamayadi, bu esa yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guyton and Hall Textbook of Medical Physiology [Yurak-qon tomir tizimi: 161–220-betlar/ 2016.]
2. Ganong’s Review of Medical Physiology [Qon aylanish fiziologiyasi: 537–590-betlar / 2019.]
3. Vander’s Human Physiology [Cardiovascular physiology: 385–450-betlar / 2018.]
4. Sherwood – Human Physiology: From Cells to Systems [Qon tomir tizimi: 300–360-betlar / 2016.]
5. Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease [Ateroskleroz: 495–510-betlar/2020]

Региональные особенности функционального развития подростков в Узбекистане

Ильясова Гульнара Кенесбаевна
доцент
Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту при Узбекской государственной спортивной академии

Аннотация. В данном исследовании изучены особенности формирования функционального состояния организма подростков, проживающих в различных регионах Узбекистана. Кроме того, в рамках исследования проанализированы функциональные показатели подростков 15–17 лет, проживающих в Ташкентской области. Оценено влияние климатических условий, уровня физической активности, экологических факторов и образа жизни на развитие сердечно-сосудистой, дыхательной и мышечной систем. Полученные результаты показали, что региональные условия оказывают значительное влияние на функциональное состояние организма подростков.

Ключевые слова: подростки, функциональное состояние, физическое развитие, сердечно-сосудистая система, дыхательная система, Ташкентская область.

Введение.Подростковый возраст является одним из важнейших этапов онтогенеза человека. В этот период происходит интенсивное развитие сердечно-сосудистой, дыхательной и нервно-мышечной систем. Развитие этих систем во многом зависит от условий внешней среды, питания, режима дня и уровня физической активности. Узбекистан характеризуется разнообразием природно-климатических зон, между которыми наблюдаются различия в температуре, влажности и экологических условиях. Эти факторы могут оказывать влияние на функциональное развитие подростков. В современных условиях особое значение приобретает изучение адаптационных возможностей организма подростков, проживающих в различных природно-климатических регионах. Это позволяет более полно оценить влияние факторов окружающей среды на процессы роста, развития и формирования функциональных систем организма. В связи с этим изучение функционального состояния подростков 15–17 лет, проживающих в Ташкентской области, является актуальным.

Материалы и методы исследования. В исследовании приняли участие подростки 15–17 лет, обучающиеся в школах Ташкентской области. Для оценки функционального состояния использовались следующие методы: измерение частоты сердечных сокращений, определение артериального давления, оценка жизненной ёмкости лёгких, тестирование физической работоспособности и антропометрические измерения (рост, масса тела).

Результаты исследования. Результаты показали, что у подростков 15–17 лет, проживающих в Ташкентской области, функциональные показатели

находятся в пределах физиологической нормы. У подростков, регулярно занимающихся физическими упражнениями, отмечены более высокие показатели работы сердечно-сосудистой системы, физической выносливости и жизненной ёмкости лёгких. В то же время у подростков с низким уровнем физической активности наблюдалось некоторое снижение функциональных показателей.

Обсуждение. Полученные результаты свидетельствуют о важной роли физической активности в формировании функционального состояния подростков. Регулярные занятия физической культурой и спортом способствуют улучшению функций сердечно-сосудистой и дыхательной систем. Кроме того, экологические условия и образ жизни также оказывают влияние на функциональное состояние организма подростков.

Заключение. Таким образом, результаты проведённого исследования показали, что функциональное состояние подростков во многом зависит от условий проживания, уровня физической активности и образа жизни. Установлено, что у подростков 15–17 лет, проживающих в Ташкентской области, функциональные показатели сердечно-сосудистой и дыхательной систем находятся в пределах физиологической нормы. Регулярные занятия физической культурой и спортом способствуют повышению уровня физической работоспособности и адаптационных возможностей организма. Полученные данные могут быть использованы при разработке программ физического воспитания и оздоровительных мероприятий, направленных на укрепление здоровья подростков.

Список литературы

1. Селуянов В.Н. Теория и методика физической культуры. — Москва: Спорт, 2014.
2. Волков Н.И. Биохимия мышечной деятельности. — Москва: Физкультура и спорт, 2000.
3. Carter J.E.L. Somatotyping: Development and Applications. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. — Москва: Физкультура и спорт, 2008.
5. World Health Organization. Growth Reference Data for Children and Adolescents. — Geneva, 2007.

ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ РЕДКИХ ВИДОВ ПТИЦ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Ишмурзаева Озода Чориевна
Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, докторант 1 курса
Фундукчиев Семен Энверович
профессор Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова

Аннотация. В статье рассматриваются особенности пространственного распределения редких видов птиц на территории Самаркандской области. Проведен анализ природно-географических факторов, влияющих на формирование орнитофауны региона, включая климатические условия, ландшафтное разнообразие и антропогенное воздействие. Особое внимание уделено выявлению мест концентрации редких и исчезающих видов, а также оценке их численности и сезонной динамики. На основе полевых наблюдений и сравнительного анализа определены основные тенденции изменения ареалов обитания птиц. Полученные результаты позволяют обосновать необходимость разработки эффективных мер охраны биоразнообразия и сохранения редких видов в условиях усиливающегося антропогенного давления.

Ключевые слова. редкие виды птиц, Самаркандская область, орнитофауна, биоразнообразие, ареал, экосистема, охрана природы, миграция птиц

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyati hududida uchraydigan noyob qush turlarining tarqalish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududning tabiiy-geografik omillari, jumladan iqlim, relyef va antropogen ta’sirlarning qushlar arealiga ta’siri o‘rganilgan. Noyob va yo‘qolib borayotgan turlar to‘planadigan hududlar aniqlanib, ularning soni hamda mavsumiy o‘zgarishlari baholangan. Dala kuzatuvlari va ilmiy manbalar asosida qushlarning yashash muhitidagi o‘zgarish tendensiyalari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari biologik xilma-xillikni saqlash va noyob turlarni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: noyob qushlar, Samarqand viloyati, ornitofauna, biologik xilma-xillik, areal, ekologik omillar, migratsiya, muhofaza

Annotation. This article examines the distribution patterns of rare bird species in the Samarkand region. The study analyzes key environmental and geographical factors influencing the composition of the regional avifauna, including climate conditions, landscape diversity, and anthropogenic impacts. Particular attention is given to identifying habitats with high concentrations of rare and endangered species, as well as assessing their population size and seasonal variability. Based on field observations and comparative analysis, major trends in habitat transformation and species distribution are identified. The findings highlight the importance of

developing effective conservation strategies aimed at preserving biodiversity under increasing human pressure.

Keywords. rare bird species, Samarkand region, avifauna, biodiversity, habitat distribution, ecosystem, conservation, bird migration

ВВЕДЕНИЕ

В современных условиях проблема сохранения биологического разнообразия занимает одно из центральных мест среди глобальных экологических вызовов. Особенно актуальным становится изучение редких и исчезающих видов птиц, численность и ареалы которых сокращаются под воздействием природных и антропогенных факторов. Птицы играют важную роль в функционировании экосистем: они участвуют в регуляции численности насекомых, распространении семян растений, а также выступают в качестве биоиндикаторов состояния окружающей среды. В этой связи исследование особенностей их распространения приобретает как теоретическую, так и практическую значимость. Самаркандская область Республики Узбекистан характеризуется разнообразием природно-географических условий, включающих горные, предгорные и равнинные ландшафты. Такое сочетание природных комплексов создает благоприятные условия для формирования богатой орнитофауны. Вместе с тем в последние годы усиливается воздействие антропогенных факторов, таких как урбанизация, расширение сельскохозяйственных угодий, изменение гидрологического режима и климатические трансформации. Эти процессы приводят к деградации естественных местообитаний птиц, сокращению кормовой базы и, как следствие, к снижению численности редких видов. Распространение птиц определяется комплексом факторов, среди которых ключевую роль играют климатические условия, наличие водных ресурсов, структура растительности и степень антропогенной нагрузки. Особое значение Самаркандская область имеет для мигрирующих видов, поскольку она служит важным транзитным и кормовым участком на путях сезонных перелетов. В связи с этим выявление закономерностей пространственного распределения редких видов птиц и оценка их современного состояния представляют собой важную научную задачу. Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью комплексного анализа распространения редких видов птиц в Самаркандской области, определения факторов, влияющих на их численность и размещение, а также разработки научно обоснованных рекомендаций по их сохранению. Полученные результаты могут быть использованы при разработке природоохранных мероприятий, направленных на поддержание экологического равновесия и сохранение биоразнообразия региона [Абдувалиев А. 45.].

Кроме того, результаты исследования способствуют углублению научных представлений об орнитофауне Узбекистана и созданию основы для дальнейшего мониторинга редких и исчезающих видов. Системный подход к изучению их распространения позволяет не только фиксировать текущее

состояние популяций, но и прогнозировать возможные изменения в условиях усиливающегося антропогенного воздействия.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Распространение редких видов птиц в Самаркандской области формируется под воздействием совокупности природных и антропогенных факторов, которые в комплексе определяют структуру и динамику региональной орнитофауны. Территория области отличается значительным ландшафтным разнообразием, включающим горные массивы, предгорные зоны, равнинные участки и орошаемые сельскохозяйственные угодья. Такое разнообразие природных условий способствует формированию различных типов местообитаний, что, в свою очередь, влияет на видовое разнообразие и пространственное распределение птиц. В горных и предгорных районах Самаркандской области преобладают виды, адаптированные к скалистым и малонарушенным экосистемам. Здесь встречаются редкие хищные птицы, для которых характерна высокая зависимость от стабильности экосистем и наличия кормовой базы. Эти территории играют важную роль как зоны гнездования и постоянного обитания, поскольку антропогенное воздействие здесь относительно ограничено. Однако даже в этих районах наблюдается постепенное сокращение численности отдельных видов, что связано с изменением климата и косвенным влиянием хозяйственной деятельности человека [Абдувалиев А. 112].

Равнинные и сельскохозяйственные территории характеризуются иным типом орнитофауны. Здесь обитают виды, приспособленные к открытым пространствам и агроландшафтам. Вместе с тем именно в этих зонах наиболее остро проявляется негативное влияние антропогенных факторов. Расширение пахотных земель, использование химических удобрений и пестицидов, а также сокращение естественных биотопов приводят к деградации среды обитания птиц. В результате наблюдается снижение численности редких видов, особенно тех, которые имеют узкую экологическую специализацию и не способны адаптироваться к быстро меняющимся условиям [Тураев Ф. 87]. Особое значение для распространения редких видов птиц имеют водно-болотные угодья, расположенные на территории области. Эти экосистемы служат важными местами остановки и кормления для мигрирующих птиц, а также местами гнездования для ряда редких видов. Однако в последние годы наблюдается сокращение площади водоемов, изменение гидрологического режима и ухудшение качества воды, что негативно сказывается на состоянии орнитофауны. Утрата таких местообитаний приводит к нарушению миграционных путей и снижению выживаемости птиц [Холматов Б. 54].

Сезонная динамика также играет важную роль в распределении редких видов птиц. В весенне-летний период увеличивается численность гнездящихся видов, тогда как в осенне-зимний период возрастает значение территории как транзитной зоны для мигрирующих птиц. При этом климатические изменения,

Baqlawlarımızda, ósimlik tuqımların qısta azıqlanıw ushın alıp barılatuǵınlıǵın hám olardı uya kamerasınıń qasındaǵı qoymaxanalarda toplaytuǵınlıǵın, tek eń azıqsız qalǵan jaǵdaylarda ǵana azıqlanatuǵınlıǵın anıqlandı. Qum tıshqanı sentyabr-oktyabr aylarında azıq saqlawdı baslaydı. Bunday zapaslar kishi hám geyde keminde 0,9 kg nan 2,8 kg ǵa shekem jetedi. Qazıp alınǵan azıqlandırıw kameraları 15 ke jetedi. Bul bolsa qum tıshqanlarınıń azıq balansınıń quramı hám salmaǵın tolıǵıraq úyreniwge imkaniyat beredi.

Qumtıshqanlar azıq tańlamaytuǵın ápiwayı haywan esaplanadı. Olar jasaw ornılarında jaylasqan hár túrli ósimlikler menen azıqlanadı. Qısta, jıńǵıl qumtıshqanı ádette tuqımlar menen, kemirek qurǵaq ósimlik paqalları menen azıqlanadı. *Calligonum, Artemisia abrotanum Chenopodium foliosum* ósimligi, Jıńǵıl *Tamarix*, báhárde túrli efemerlerdiń japıraqları, gúlleri hám miyweleri de tiykarǵı azıqlıǵı esaplanadı [Magomedov, Axaeva, 1993; Rotshil'd h.b. 1975;].

Ósimlikler menen azıqlanıwdan tısqarı, *Meriones tamariscinus* asqazanında jánliklerdiń qaldıqları (qońızlar, shegirtkeler, qurtlar hám basqada shıbın shirkeyler) gúzetilip, olar az muǵdarda, biraq júdá tez-tez paydalanǵanı baqlandı. Ilimpazlardıń maǵlıwmatına bola, *Meriones tamariscinus* azıq-awqat racionına 41 túrdegi ósimlikler kiretuǵının atap ótken.

Kemiriwshilerdiń azıqlanatuǵın azıq túrleri kóp bolıp: ósimliklerdiń vegetativ bólimleri, tuqımlar, gúller, miyweler, tamırpaqalları, tamır miyweler, miyweler, geyde qabıǵın shaynaydı. Shıbın-shirkeyler menen az azıqlanadı, biraq júdá tez-tez.

Meriones tamariscinus azıqlıq túrleriniń hár qıylı bolıp, hár bir aymaqta 5-10 túr ósimlik tiykarǵı azıǵı bolıp esaplanadı.

Azıqlanatuǵın azıqtıń keń spektrine qaramastan, *Meriones tamariscinus* azıq penen támiyinleniwdiń joqarı dárejesi menen ajıralıp turadı: olar eń joqarı kaloriyalı hám sonıń menen birge ósimliklerdiń jeterli muǵdardaǵı ıǵallıq bólimlerin óz ishine aladı [Rotshil'd h.b. 1975; Sludskiy h.b. 1978].

Populyaciya jaǵdayı tiykarınan azıqlıq resurslar dinamikası menen belgilenedi. Íǵal azıqlıqqa bolǵan joqarı talap azıq sińiriwdiń ózine tán ózgeshelikleri menen baylanıslı: asqazannıń islewi ushın qolaylı bolǵan azıq quramındaǵı ıǵallıqtıń 60% dárejesi bolıp, bul qumtıshqanı tómen energiya qunına hám jaman as sińiriliwine

qaramastan, ósimliklerdiń jasıl bólekleri menen azıqlanıwǵa májbúrleydi.

Ilimpazlar hám qánigeler tárepinen tutqında saqlanıp atırǵan jıńǵıl qumtıshqannıń azıq-awqat racionın úyrengende azıq-awqat sapası hám haywanlardıń jasına qarap sezilerli dárejede parıqlanıwın baqlaǵan. Olardı hár túrli aralas (dán+shóp) hám koncentrlengen (dán) azıqlar menen azıqlandırǵanda azıqlanıwdıń joqarı kórsetkishin kórsetken. Máselen, úlkenlerde 10-12 gr, jas individlerde 8-10 gr quraǵan [Magomedov, Axaeva, 1993].

Azıqlanıw dárejesi haywanlardıń jasına baylanıslı bolıwı júdá áhmiyetli. Izertlewler sonı kórsetedi, úlken individlerde azıqlanıwdıń absolyut mánisi jas individlerge qaraǵanda 1,5 - 2,0 ese joqarı hám salıstırmalı paydalanıw dárejesi (100 g dene salmaǵına) sáykes 1,1 - 1,3 ese az ekenligin kórsetedi.

Sonıń menen birge, jas (dene massası 50-60 g) hám úlken jastaǵı qumtıshqanlarda (dene massası 80-100 g) deneniń ulıwma energiya sarıplawına sáykes keletuǵın absolyut energiya talabı esaplanadı. Bunnan kelip shıǵatuǵın bolsaq, jas haywanlardıń azıqlanıwınıń absolyut bahası tek ǵana úlkenlerdikine teń bolıwı emes, al onnan sezilerli dárejede artıwı kerek, sebebi jas haywanlarda energiyanıń bir bólegi deneniń ósiwine jumsaladı.

Bizge belgili, tábiyatta jas individlerdiń azıqqa bolǵan talabı joqarı sebebi olar tez ósip rawajlanıp atırǵan organizm esaplanadı. Sonıń menen birge azıq-awqat sharayatı bir qatarda olardıń ólimin hám *Meriones tamariscinus* populyaciyasınıń ulıwma kóbeyiwin derlik tolıq belgileydi [Magomedov, Axaeva, 1993; Rotshil'd h.b. 1975; Sludskiy h.b. 1978].

Paydalanǵan ádebiyatlar dizimi

1. Магомедов Р.М., Ахаева М.Х. Зависимость питания и состояния популяции гребенщиковой (*Meriones tamariscinus*) песчанки от динамики кормовых ресурсов // Зоол. журн. 1993. Т. 72, №2. -101-111 с.

2. Ротшильд Е.В., Постников Г.Б., Ласкина А.В. Определение плотности населения гребенщиковой (*Meriones tamariscinus*) и полуденной песчанок (*Meriones meridianus*) при полевом картографировании. Зоол. Ж.- 1975.- №54(10). - С. 1540-1550.

3. Слудский А.А., Борисенко В.А., Капитонов В.И., Махмутов С., Мокроусов Н.Я. и др. Млекопитающие Казахстана, Т.1, Ч.3. Грызуны (песчанки, полевки, алтайский цокор).- Алма-Ата, Наука.- 1978.- 491 с.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida *Amaranthus* L.ayrim turlarining ekologik va xo‘jalik ahamiyati

Mambetova Nasiba Kurbanbaevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va sho‘rlanish jarayonlarining kuchayishi qishloq xo‘jaligi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ana shunday sharoitda ekologik moslashuvchan, yuqori hosilli va ko‘p maqsadli ekinlarni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan Amaranthus L. turlariga mansub o‘simliklar biologik xususiyatlari, ekologik plastiklik darajasi va yuqori mahsuldorligi bilan muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [Kauffman, Weber: 45].

Amaranthus L. turlari dunyoda qadimdan oziq-ovqat, yem-xashak va dorivor o‘simlik sifatida foydalanib kelingan istiqbolli ekinlardan biridir. Mazkur turkum vakillari tez o‘sishi, qurg‘oqchilikka chidamliligi, yuqori biomassa hosildorligi va turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi [Paredes-Lopez: 62]. Ayniqsa, ekstremal ekologik sharoitlarda ushbu o‘simliklarning bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish qishloq xo‘jaligi diversifikatsiyasi uchun muhimdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik jihatdan murakkab hududlardan biri hisoblanib, bu yerda keskin kontinental iqlim, yuqori harorat, kam yog‘in, kuchli bug‘lanish va tuproq sho‘rlanishi kuzatiladi. Ayniqsa Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyat qishloq xo‘jaligi ekinlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois mazkur hududda sho‘rlanish va qurg‘oqchilikka chidamli ekin turlarini izlash hamda ularning moslashuv mexanizmlarini aniqlash dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi [Xudayberganov, Allambergenov: 31].

AmaranthusL. turlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganishda ularning urug‘ unuvchanligi, vegetatsiya davomiyligi, o‘sish sur’ati, biomorfologik ko‘rsatkichlari, yashil massa to‘plash xususiyatlari va mahsuldorlik darajasi muhim mezon sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu tur vakillari qisqa muddat ichida yuqori biomassa hosil qilish qobiliyatiga ega [Kauffman, Weber, 1990, 58-b.].

Amaranthus cruentus, hypochondriacus, caudatus kabi turlar bioekologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori moslashuv salohiyatiga ega bo‘lib, sho‘rlangan tuproqlarda ham nisbatan barqaror rivojlanadi. Ularning ildiz tizimi chuqur rivojlanganligi sababli tuproq namligidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Bu xususiyat qurg‘oqchil mintaqalarda ekin sifatida istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi [Paredes-Lopez: 74].

Qoraqalpog‘iston sharoitida olib borilgan kuzatishlar ayrim Amaranthus L. turlarining yuqori harorat va namlik tanqisligi sharoitida ham vegetativ o‘sishini saqlab qolishini ko‘rsatadi. Ayniqsa yozning issiq davrida o‘sish jarayonlarining faol davom etishi ushbu o‘simliklarning ekologik plastiklik darajasini namoyon etadi.

Bioekologik nuqtai nazardan Amaranthus L. turlarining muhim jihatlaridan yana biri sho‘rlanishga nisbatan bardoshliligidir. Tadqiqotlarda ayrim turlarning o‘rtacha va kuchsiz sho‘rlangan tuproqlarda ham yuqori biomassa shakllantirgani qayd etilgan. Bu esa ularni fitomeliorativ ekin sifatida qo‘llash imkoniyatini oshiradi [Kauffman, Weber: 80].

Mazkur o‘simliklarning ekologik ahamiyati faqat moslashuvchanlik bilan cheklanmay, tuproq unumdorligini saqlash va agroekotizim barqarorligini oshirishda ham namoyon bo‘ladi. Amaranthus L. turlari kuchli vegetativ massasi orqali tuproq yuzasini himoya qiladi, eroziya xavfini kamaytiradi va organik modda zaxirasini boyitadi.

Shuningdek, ushbu o‘simliklar xalq xo‘jaligida ko‘p qirrali ahamiyatga ega. Ularning doni yuqori oqsil, aminokislotalar, vitamin va mineral moddalarga boy bo‘lib, oziq-ovqatsanoatida qo‘llash imkonini beradi. Yashil massasi esa chorvachilik uchun yuqori sifatli yem-xashak manbai hisoblanadi.

Bugungi kunda Amaranthus L. turlarini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga joriy etish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhim. Ayniqsa Orolbo‘yi kabi ekologik tang hududlarda ularni introduksiya qilish katta amaliy ahamiyatga ega [Xudayberganov, Allambergenov: 56].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Amaranthus L. turlari yuqori biomassa hosildorligi, sho‘rlanish va qurg‘oqchilikka moslashuvchanligi hamda ko‘p maqsadli foydalanilishi bilan istiqbolli ekin sifatida baholanishi mumkin. Ularning bioekologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish hudud qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, yangi agrotexnologiyalar ishlab chiqish va degradatsiyaga uchragan yerlardan samarali foydalanishda muhim ilmiy asosbo‘libxizmatqiladi.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida Amaranthus L. ayrim turlarining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish ularning ekologik moslashuvchanligi, yuqori mahsuldorligi va agroekologik istiqbolini ochib beradi. Ushbu turlarni mintaqada keng joriy etish oziq-ovqat xavfsizligi, yem-xashak bazasi va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kauffman C.S., Weber L.E. Introduction to Grain Amaranth. RodalePress, Emmaus, 1990. 203 b.

2. Paredes-Lopez O. Amaranth: Biology, Chemistry and Technology. CRC Press, Boca Raton, 1994. 215 b.

3. Xudayberganov X., Allambergenov A. Qoraqalpog‘iston sharoitida ekinlarning ekologik moslashuvi. Nukus, 2020. 146 b.

ИНДИКАЦИОННАЯ СХЕМА ОСНОВНЫХ ГАЛОФИТНЫХ СООБЩЕСТВ НИЗОВЬЕВ АМУДАРЬИ

Мамутов Н.К[1]., Кенесбаева Н.М[2].
[1]Каракалпакский государственный университет им.Бердаха
[2]Нукусский государственный педагогический институт им.Ажинияза
e-mai:nazirakenesbaeva409@gmail.com

В настоящее время территория низовья Амударьи представляют собой уникальный природный регион Центральной Азии, характеризующийся сложными гидрологическими и почвенными условиями. В результате интенсивного антропогенного воздействия, особенно в XX–XXI веках, здесь произошли значительные изменения растительных сообществ, связанные с регулированием стока реки, развитием ирригации и усыханием Аральского моря. Это привело к усилению процессов засоления почв, уровня залегания грунтовых вод и деградации растительного покрова. В таких условиях особую роль приобретают галофиты - растения, приспособленные к произрастанию на засолённых почвах. Они являются важными биоиндикаторами, позволяющими оценивать степень засоления, уровень грунтовых вод и общее экологическое состояние территории [А,Бахиев: 130, Kristina Toderich: 304].

Целью исследования является разработка и обоснование индикационной схемы основных галофитных сообществ низовьев Амударьи, отражающей зависимость структуры и состава растительности от степени засоления почв, уровня увлажнения, антропогенного воздействия и построить схему их распределения в низовьях Амударьи. Данная цель направлена на выявление закономерностей пространственной дифференциации галофитной растительности и её использования в качестве биоиндикатора экологического состояния территории**,** особенно в условиях деградацией дельтовых экосистем низовьев Амударья [Н.Мамутов: 42, 43, N.M.Novikoba: 383, 384].

В таблице 1 приведены сведения сводная индикационная схема основных галофитных сообществ низовьев Амударьи. На основе проведенных исследований установлены, что индицируемые условия галофитных видов являются экологическая ситуация.

Таблица 1

Сводная индикационная схема основных галофитов низовьев Амударьи

Формация	**Индицируемые условия**	
	Засоление	**Некоторые гидрогеологические условия**
Солеросовая	Засоление 1-7% при господстве хлоридов натрия, глубина	Воды на глубине 0,5-4 м.

	индикации не более 0,5 м	
Ерманыджингиловая	Засоление не выше 4% при господстве хлоридов натрия, глубина индикации около 3 м,	Воды на глубине 0,8-3,6 м. минерализация 1-24 г/л.
Акбашевая	Засоление не выше 4% при разнообразии типов засоления.	Воды на глубине 0,6-3.0 м. минерализация 5 г/л.
Карабараковая	Засоление 1-9% при господстве хлоридов натрия, глубина индикации около 2 м	Воды на глубине 0,6-4м, минерализация 6-60 г/л.
Сарсазановая	Засоление 2-25% при разнообразии типов засоления. Глубина индикации около 2 м.	Воды на глубине более 2 м, минерализация 11-155 г/л
Кызылджингиловая	Засоление варьирует: под вейниково-кызылджингиловой ассоциацией-не выше 1 % при господстве карбонатов натрия; под кызылджингиловой –от 0,4-1,5 % при господстве сульфатов кальция; под тростниково-кызылджингиловой –от 0,5 до 6% при господстве сульфатов натрия.	Воды на глубине 0,7-3,0 м, минерализация 0,55-5 г/л. Наименьшая минерализация (не выше 3 г/л)-под вейниково-кызылджингиловой ассоциацией”.
Джидовая	Засоление не выше 3 % при преобладании сульфатов кальция, максимум засоления в приповерхностном горизонте.	Воды глубже 2 м, пестрая минерализация
Чингиловая	Засоление от 0,1 до 10,5 % , преобладание определенного типа засоления не	Воды на глубине 0,6-3,0м, минерализация 0,7-5,0 г/л. Наименее минерализованные воды

	выявляется. Типично существовавших в максимуме (0,5-10,5%) поверхности горизонта	лежат на глубже 1 м.

Таким образом, следует отметить, что индикационная схема основных галофитных сообществ низовьев Амударьи отражает тесную связь растительности с экологическими условиями среды, прежде всего с засолением и увлажнением. На основе проведенных исследований установлены, что галофитные сообщества являются надежными индикаторами засоления почв и гидрологических условий, так как их структура напрямую зависит от концентрации солей и водного режима местообитаний. В настоящее время на территории низовьев Амударьи в условиях антропогенного опустынивания наблюдается упрощение структуры растительности и переход к доминированию экстремальных галофитных сообществ. Существенное значение имеет выявление сукцессионных рядов галофитной растительности низовьев Амударьи, которые отражают переходы от гидроморфных к ксероморфным условиям. Это свидетельствует о прогрессирующей процесс аридизации территории, связанной как с природными, так и с антропогенными факторами. Таким образом, следует отметить, разработанная индикационная схема галофитных растительных сообществ низовьев является эффективным инструментом экологического мониторинга. Она может быть использована при картографировании растительности, оценке состояния пастбищных сообществ и при разработке стратегий восстановления деградированных земель в низовьях Амударьи.

Список использованной литературы

1. Бахиев А.Б. Растительные индикаторы засоленных почв и грунтовых вод дельты Амударьи. Ташкент: «Фан», 1979. 130 с.
2. Мамутов Н.К. Ирригационные сукцессионные процессы в дельте Амударьи и их роль формировании растительных сообществ. Вестник ККО АН РУз. 2021. № 1. Нукус. С. 42-46.
3. N.M.Novikoba, Zh.V.Kuzmina, and N.K.Mamutov Desertification of the Amu Darya River Delta and Vegetation Dinamics in the Conditation of the Aral Sea Crisis. Arid Ecosistems, 2023, Vol.13, No.4. pp. 371-385 DOI, 10.1134/S2079096123040108.
4. Kristina Toderich. Halophytes of the Aralkum Saline Desert and Adjacent Drylands. / Kristina Toderich, Naoko Matsuo, Temur Khujanazarov, Khabibullo Shomurodov and Norikazu Yamanaka (eds). Tottori University.2024. 304 p.

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

Mannapova Nargiza Shakirovna PhD, dotsent
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Toshkent sh.O’zbekiston
mannapova70@internet.ru

2020-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “…jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifadir deb ta’kidlangan. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat beramiz”. Oxirgi yillarda Respublikamizda eng asosiy, muhim vazifalardan biri bo‘lgan ommaviy sportni rivojlantirish masalasi turadi. Mustaqil O‘zbekistonning ma’naviy sog‘lom avlodlarni, bo‘lajak vatanparvarlarni tarbiyalash vazifasi pirovard o‘qituvchilar, mutaxassislar zimmasiga tushadi [1].

Sog`lom turmush tarzi-keng ma’nodagi tushuncha bo`lib, o`z ichiga turli muammolarni qamrab oladi, va ularni hal etilishi yo`llarini aniqlaydi. Insonning jismoniy va ruhiy rivojlanishi farovon hayot kechirishi, mehnat qilishi va dam olish shart-sharoitlari, shaxslararo munosabatlar, psixologiyaning umumiy va amaliy jihatlari, zararli odatlarga qarshi kurash, xushyor hayot tarzi sog`lom turmush tarzining asosiy omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi bilan uzluksiz ravishda ma’naviy va jismoniy sog‘lom avlodni voyaga yetkazish g‘oyasi jamiyatimizning bosh maqsadi, ta’lim–tarbiya tizimining nazariy-amaliy dasturul-amali bo‘lib qoldi. Mazkur g‘oya asosida davlat miqyosida bosqichma-bosqich maqsadga yo‘naltirilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda, muhim davlat hujjatlari qabul qilinmoqda. Mazkur dasturlarda sog‘lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyat rivoji uchun strategik ahamiyatga egaligiga urg‘u berilar ekan, yoshlarning kuch-g‘ayrati, salohiyati va imkoniyatlarini mustaqil respublikaning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini oshirish, uning jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashini ta’minlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq ekanligi ko‘rsatiladi.[2]

Ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish turli yo‘nalishlarda olib borilishi zarur. Bu, bir tomondan, o‘quvchi va talabalarga sog‘lom turmush tarziga oid ma’lum bir tibbiy-gigienik bilimlarni berishga, ularda sog‘lom turmush tarzining inson salomatligi va normal rivojlanishiga qanday ta’sir etishi haqidagi tasavvur va tushunchalarni tarkib toptirishiga qaratilsa, ikkinchi tomondan, ular ongida ta’lim-tarbiya sharoitida gigienik qoidalarga amal qilish, o‘zi va yon-atrofdagilar salomatligining qadriga yetishga oid kundalik odatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risida asosiy ma’lumotlarni talabalar Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘zlashtiradi va shu qatori sog‘liqni saqlashga oid bilimlar haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Yosh avlodning salomatligini saqlash, ularni har jihatdan baquvvat bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshiriluvchi ta’limiy

va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim tarkibiy qismi sifatida o'zining ijobiy yechimini topishi zarur. Shu ma'noda ta'lim muassasalarining ichki imkoniyatlari, sog'lom hayotga jalb etish, bu jarayonda bo'lajak o'qituvchi sifatida talabalarning faolligini oshirish, ularni shu faoliyatga maxsus tayyorlash orqali o'quvchilarda salomatlikni saqlash ko'nikmalarini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik ehtiyoj sanaladi.

Yuqorida aytilganlarning izohi sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalari biologiya yo'nalishi talabalarida immunologiya fannini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida salomatlikni saqlash kompetensiyasini rivojlantirishni aniqlash maqsadida tadqiqotlar ishlari olib borildi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilaridan anketa so'rovnoma o'tkazilganda sog'lom turmush tarzini olib borishga nima majbur qilishi, sog'lom turmush tarzi deganda nimani tushunishi, siz o'zingizning salomatligingizni qanday baholaysiz?, sog'lom uzoq umr ko'rish uchun nimalarga e'tibor bergan bo'lar edingiz?, nechchi yoshdan salomatlikni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz? va shunga o'xshash 20 ta savollar bilan ularni sog'lom turmush tarzi haqidagi bilim darajalari o'rganildi.Tadqiqotning birinchi bosqichida sog'lom turmush tarzining boshlang'ich darajasi pedagogik eskperimentning yakunlanishida olingan ma'lumotlar bilan qiyoslangan ravishda aniqlandi. Mazkur eksperiment davomida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha immunologiya fanidan maxsus kurs yaratilishi, mashg'ulotlarning o'tkazilishi va ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlari davomida turli interfaol metodlardan foydalanildi. Pedagogik eksperiment davomida olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili davomida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari yoritib berildi [4].

Talabalarda salomatlikni saqlaydigan fikrni shakllantirishda, sog'lom turmush tarzi motivatsiyasini takomillashtirishga muvofiq bilimlar bilan qurollangan va ushbu jarayonni boshqarish qobiliyati bor bo'lgan tegishli fanlarni olib boradigan pedagog shaxsiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Salomatlikni ehtiyot qilish ta'limi sog'lom turmush tarzini shakllantirish motivatsiyasini takomillashtirish kontekstida majmuaviy tizimini mazmunga umumiy yondashishni, mashg'ulotlar metodikasini tashkil qilishni ta'minlaydi, talabalarga mos keladigan ta'lim berishning hamma shakllarini tarbiyaviy qimmatini oshiradi: salomatlikni ehtiyot qiladigan bilimlarni rivojlantirishning majmuaviyligi, olingan bilim, mahorat va ko'nikmalarni mustahkamlashga imkon beradi, ya'ni talabalarning salomatlikni ehtiyot qilish standartlari va pedagoglarning o'zlarini sog'lom turmush tarzi haqidagi bilim darajasini; turli ixtisosliklarga differensiatsiyalangan yondashuvni ko'zda tutadi [3].

Shuni ta'kidlash joizki, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida sog'lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari haqida bilimga ega bo'lish, uni hayot tarziga tatbiq etish va kasbiy faoliyatida sog'lom turmush tarzinini shakllantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.20.12.2020.vvv.president.uz.

2. Mannapova N.Sh., Axadullaeva K. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish motivatsiyasini takomillashtirish. O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi Respublika 18-ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiya. iyul 2020 yil

3. Mannapova N.SH., M.Sabirova Bo`lajak biologiya fani o`qituvchilarining kasbiy faoliyatida o`quvchilarda sog`lom turmush tarzini shakllantirish “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral

4. Mannapova N.SH., Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида соғлом турмуш тарзини шакллантириш мотивациясини такомиллаштириш. p.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi.Toshkeht,2020

ТУПРОҚЛАРНИНГ ИФЛОСЛАНИШИНИ ЭКОЛОГИК БАҲОЛАШ

Мирametова Н.П. – «Биология» кафедраси доценти.
Абдуллаев К.С. – докторант.
Ажиниёз номидаги НДПИ

Тупроқ ҳолатининг интеграл кўрсаткичи унинг биологик фаоллиги – тупроқда кечаётган жараёнларнинг умумийлигини акс эттирувчи мураккаб тушунчадир. Тупроқлар кислород ва углероднинг глобал айланиши учун катта аҳамиятга эга, бу атмосфера ҳавоси таркибида карбонат ангидрид даражасининг кўпайиши туфайли иқлим ўзгариши эҳтимоли сабабли ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бунда тупроқлар 70-80% гача углерод оксиди ва 80-85% гача олтингугурт диоксидини ўзлаштира олади ва қайта ишлаб беради. Тупроқларнинг энг муҳим аҳамияти - бу органик моддалар, турли хил кимёвий элементлар, шунингдек энергия тўплашидадир. Тупроқ қоплами асосан унга кирадиган турли ифлослантирувчи моддаларни биологик жиҳатдан ютувчи, йўқ қилувчи ва нейтраллаштирувчи функцияларни бажаради [1,4].

Пестицидлардан фойдаланиш зарурати шундаки, уларсиз қишлоқ хўжалиги экинларининг ҳосилдорлиги кескин пасаяди ва улардан фойдаланиш мумкин бўлган нарсаларнинг атиги 20-40% ни ташкил қилади. Ўсимликларнинг меъёрий ўсиши тупроқда кечадиган турли хил физик, кимёвий ва биологик жараёнлар билан белгиланади, ва бу жараёнларга пестицидларни киритишимиз мумкиндир. Дунёдаги 300 гектар ишлов берилган экин майдонларига ўртача 1 кг гача кимёвий моддалар ишлатилади. Уларнинг ўсимликларда тўпланиши ва баъзи пестицидлар тупроқда узоқ вақт барқарор сақланиб қолиши билан уларнинг озиқ-овқат занжирларида тўпланишини кузатишимиз мумкин.

Фойдаланилган пестицидлар миқдори табиий муҳитга келадиган бошқа барча ифлослантирувчи моддаларнинг умумий массасининг атиги 1% ни ташкил этишига қарамай, улар баъзи хусусиятлари туфайли биотага катта таъсир кўрсатади.

Пестицидларнинг аксарияти жуда заҳарли ва мутаген бирикмалар бўлиб, улар нафақат тупроқда, тирик организмларнинг тўқималарида тўпланиши, балки абиотик ва биотик жараёнлар туфайли биосферага кўчиб ўтиши ҳам мумкин. Пестицидлардан фойдаланиш ҳосилнинг катта қисмини тежаш имконини беради, яъни бунда уларнинг қишлоқ хўжалигига тез жорий этилишига сабаб бўлади. Пестицидларнинг тупроққа кириб бориши қуйидаги жараёнларда содир бўлади [3]:

– тупроқ паразитлари ва бегона ўтларга қарши курашиш учун ҳайдаладиган ерларга ёки тупроқнинг юқори қатламини қайта ишлашда тўғридан-тўғри фойдаланиш;
– пестицид билан ишлов берилган уруғларни экиш;
– ўсимликларнинг ер усти қисмларини пуркаш ва чанглатиш;
– қишлоқ хўжалиги ва ўрмон ерларини авиа ишлов билан қайта ишлаш;

– пестицидларни сақлаш ва ташиш.

Эскирган, яроқсиз ва тақиқланган пестицидларни, шунингдек эски аралашма бирикмаларни расмий рухсатларсиз сақланиш фактлари ҳам маълумдир [3]. Тупроқларнинг кимёвий ифлосланиш даражаси ва уларнинг маълум бир тоифага бўлиниши норматив ҳужжатлар билан белгиланади [5].

Тупроқнинг пестицидлар ва бошқа зарарли моддалар билан ифлосланишини олдини олиш учун улар ўсимликларни ҳимоя қилишда экологик усулларидан фойдаланадилар, тупроқларнинг табиий ўз-ўзини тозалаш қобилиятини оширадилар, айниқса хавфли ва узоқ муддат сақланувчи препаратлар ва бошқаларни ишлатмайдилар. Масалан, ҳашарот-йиртқичларини — хон қизи, қандалилар, чумолилар ва бошқаларни кўпайтириш ва агроекосистемаларга чиқариш (биологик ҳимоя), насл бера олмайдиган турлар ёки особлар табиий популяцияларига жорий қилиш (генетик ҳимоя усули), кераксиз турларни йўқ қилиш учун алоҳида майдонлар ҳажмини оптималлаштириш (агротехник усул) ва бошқада усуллар кенг фойдаланилади.

Қишлоқ хўжалигида пестицидлардан интенсив фойдаланишнинг салбий таъсирини камайтириш ва оқибатларини олдини олишда атроф-муҳит объектлари, ўсимликчилик, ем ҳашак ва озиқ-овқат маҳсулотларида уларнинг қолдиқлари таркибини назорат қилиш муҳим аҳамият касб этади. Пестицид қолдиқлари бўйича назорат натижаларини ҳисобга олган ҳолда пестицидлардан фойдаланишнинг салбий таъсирини сезиларли даражада камайтириши ёки бутунлай йўқ қилиши мумкин.

Тупроқнинг пестицидлар билан ифлосланиши муаммосини ҳал қилиш усулларидан бири уларнинг ассортиментини яхшилашдир. Бу борада бир қанча истиқболли пестицидлар органик фосфор бирикмалари, алифатик карбоксилик кислоталарнинг ҳосилалари, карбаминли ва тиокарбаминли кислоталарнинг ҳосилалари бўлишлари мумкин. Тупроқларда узоқ вақт сақланадиган пестицидлар қолдиқларининг тўпланишига йўл қўймаслик учун пестицидларни турли хил тупроқ ва иқлим зоналари учун фарқланишини ҳисобга олган ҳолда уларни кенгроқ алмаштириш керак.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Абдиров Ч. А. Здоровье населения и приоритетные проблемы медико-экологических исследований о условиях Южного Приаралья //Медико-экологические проблемы Приаралья и здоровье населения в сб. научн. тр. ККНИИК и ЭМ., Нукус, 1991.

2. Жеребцов А.А., Кузнецова Е.Л., Апинян К.А. Загрязнение почвы химическими соединениями и их очистка. VI Международная студенческая научная конференция «Студенческий научный форум – 2014». [Электронный ресурс]. URL: https://scienceforum.ru/2014/article/2014000580 (дата обращения: 07.02.2023).

3. Загрязнение почвы пестицидами и пути его преодоления. [Электронный ресурс]. URL: https://agroportalziz.ru/articles/zagryaznenie-pochvy-pesticidami-i-puti-egopreodoleniya(дата обращения: 08.02.2023).

4. Федоров Л.Л. Пестициды – удар по биосфере и человеку / Л.Л.Федоров, А.В. Яблоков - М.: Наука, -1999. 462 с.

5. Янин Е.П. Ремедиация территорий, загрязненных химическими элементами: общие подходы, правовые аспекты, основные способы (зарубежный опыт). Проблемы окружающей среды и природных ресурсов. 2014. № 3. С. 3-105.

TURLI NO‘XAT NAVLARIDA 1000 DONA DON MASSASINING O‘ZGARUVCHANLIGI VA AGROEKOLOGIK OMILLAR TA’SIRI

Mustanova Zarnigor Sobirovna
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
vaxobraxmonov554@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli no‘xat navlarida 1000 dona don massasining shakllanishiga ekish muddatlarining ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotlar 2022–2024-yillar davomida olib borilib, Yulduz (nazorat), Uzbekistanskiy-32 va Milyutinskiy-6 navlarida biometrik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, 1000 dona don massasi navning irsiy xususiyatlari bilan bir qatorda ekish muddatlariga ham sezilarli darajada bog‘liq bo‘ladi. Yulduz navida eng yuqori ko‘rsatkich 25–28-fevralda ekilganda 314,1gni tashkil etdi, Uzbekistanskiy-32 navida esa shu muddatda 240,7g qayd etildi. Milyutinskiy-6 navida maksimal ko‘rsatkich 7–10-mart muddatida ekilganda 297,0g bo‘ldi. Tadqiqot natijalari no‘xat navlarida don massasini oshirish uchun optimal ekish muddatlarini tanlash muhimligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar no‘xat yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va yuqori hosil olishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: no‘xat, nav, 1000 dona don massasi, ekish muddati, irsiy belgi, agrotexnologiya, hosildorlik, biometrik ko‘rsatkichlar, urug‘ massasi, agroekologik omillar.

Kirish. No‘xat (Cicer arietinum L.) dukkakli don ekinlari orasida oziq-ovqat va yem-xashak ahamiyati yuqori bo‘lgan muhim qishloq xo‘jaligi ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning doni oqsil, uglevod, vitamin va mineral moddalarga boyligi bilan ajralib turadi, bu esa aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, no‘xat tuproq unumdorligini oshirishda, biologik azot to‘plash xususiyati orqali ekinlar almashinuvida muhim agroekologik ahamiyat kasb etadi [1; 22-30-b.].

No‘xat hosildorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri donning yirikligi va 1000 dona don massasi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich navning biologik xususiyatlarini, o‘simlikning assimilatsiya mahsulotlarini to‘plash qobiliyatini hamda agrotexnologik tadbirlarga bo‘lgan javob reaksiyasini aks ettiradi. Ko‘plab tadqiqotlarda 1000 dona don massasi hosildorlik komponentlaridan biri sifatida e’tirof etilib, uning shakllanishi irsiy omillar bilan bir qatorda tashqi muhit sharoitlariga ham bog‘liq ekanligi ta’kidlangan [2; 11-20-b.].

Adabiyotlarda qayd etilishicha, ekish muddati no‘xat o‘simligining o‘sishi va rivojlanish bosqichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ekish muddatining o‘zgarishi vegetatsiya davrining davomiyligi, namlikdan foydalanish darajasi hamda fotosintetik faoliyatning samaradorligiga ta’sir etib, natijada don massasi shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ayrim tadqiqotlarda erta ekish sharoitida o‘simliklar namlik va salqin haroratdan samarali foydalanishi natijasida yirik don hosil qilishi aniqlangan [3; 33-

44-b.].

Shuningdek, agrotexnologik omillar, jumladan sug‘orish tartibi, mineral va organik o‘g‘itlar qo‘llanilishi, tuproq unumdorligi hamda agrofon darajasi 1000 dona don massasining shakllanishida muhim rol o‘ynashi ilmiy jihatdan asoslangan. Masalan, ayrim mualliflar sug‘orish me’yorining optimallashtirilishi don massasi oshishiga olib kelishini qayd etgan bo‘lsa, boshqa tadqiqotchilar o‘g‘itlash tizimi bilan ushbu ko‘rsatkich o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini aniqlaganlar [4; 106-113-b.; 5; 409-b.].

Bundan tashqari, nav xususiyatlari ham 1000 dona don massasi shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Turli genotiplarda donning yirikligi va massasi sezilarli darajada farq qilishi, ularning ekologik sharoitlarga moslashuvchanligi bilan izohlanadi. Shu sababli turli ekish muddatlarida navlarning biometrik ko‘rsatkichlarini o‘rganish amaliy jihatdan muhim hisoblanadi [6; 1-16-b.].Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishining maqsadi turli no‘xat navlarida 1000 dona don massasining shakllanishiga ekish muddatlarining ta’sirini aniqlash va optimal ekish muddatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Muhokama va natijalar.

2022–2024-yillar davomida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida turli no‘xat navlarida 1000 dona don massasining shakllanishiga ekish muddatlari sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Olingan natijalar navlarning biologik xususiyatlari hamda agroiqlim sharoitlariga moslashuv darajasiga qarab farqlanishini ko‘rsatdi.

Yulduz (nazorat) navida 1000 dona don massasi nisbatan barqaror bo‘lib, tadqiqot yillari davomida 310,6–314,1g oralig‘ida o‘zgarib turdi. Eng yuqori ko‘rsatkich urug‘lar 25–28-fevral muddatida ekilganda 314,1gni tashkil etdi. Keyingi ekish muddatlarida biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, aprel oyida ekilgan variantda ham 311,4g natija qayd etildi. Bu holat mazkur navning erta bahorgi sharoitlarga yaxshi moslashganligini, vegetatsiya davrida namlik va harorat resurslaridan samarali foydalanganligini ko‘rsatadi. Adabiyotlarda ham erta ekish sharoitida o‘simliklarning generativ organlari to‘liq shakllanishi natijasida don yirikligi ortishi qayd etilgan [7; 78-b.].

Uzbekistanskiy-32 navida 1000 dona don massasi 239,1–240,7g oralig‘ida o‘zgarib, Yulduz naviga nisbatan pastroq bo‘lganligi kuzatildi. Eng yuqori ko‘rsatkich 25–28-fevral muddatida ekilganda 240,7gni tashkil etdi. Ekish muddatining kechikishi bilan don massasi biroz kamaygan. Bu navning irsiy jihatdan don massasi nisbatan kichikroq bo‘lishi bilan birga, vegetatsiya davrining qisqarishi don to‘lish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatganligi bilan izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilar ham genotip xususiyatlari 1000 dona don massasining shakllanishida asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi [8; 152-b.].

Milyutinskiy-6 navida 1000 dona don massasi 293,8–297,0g oralig‘ida o‘zgarib, o‘rtacha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Eng yuqori natija urug‘lar 7–10-mart muddatida ekilganda 297,0gni tashkil etdi. Bu esa ushbu nav uchun mart oyining

birinchi o‘n kunligi optimal ekish muddati ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu davrda o‘simliklar vegetatsiya jarayonida optimal harorat va namlik sharoitida rivojlangan, natijada donning to‘lish jarayoni yaxshilangan. Shu kabi natijalar boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilib, agroiqlim omillarining don massasi shakllanishiga ta’siri ta’kidlangan [9; 45-49-b.].

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, barcha navlarda erta va o‘rta muddatlarda ekish 1000 dona don massasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

1-jadval. No‘xat navlarining barg yuzasi indeksiga ekish muddatining ta’siri, m^2/m^2 (2022-2024-yy.)

t/r	Navlar	Ekish muddati	5-6 barglik	Shoxlanish (10-12 barg)	Gullash	Dukkak shakllanishi	Donning to‘lishishi
1	Yulduz (nazorat)	17.II-20.II (naz)	0,028	0,319	3,369	1,914	1,277
2		25.II-28.II	0,029	0,337	3,557	2,146	1,432
3		7.III-10.III	0,030	0,345	3,639	2,251	1,502
4		17.III-20.III	0,031	0,353	3,742	2,399	1,642
5		27.III-30.III	0,030	0,339	3,579	2,173	1,436
6		7.IV-10.IV	0,029	0,333	3,510	2,087	1,393
1	Uzbekistanskiy-32	17.II-20.II (naz)	0,028	0,324	3,424	1,981	1,322
2		25.II-28.II	0,030	0,342	3,613	2,217	1,480
3		7.III-10.III	0,031	0,350	3,695	2,323	1,551
4		17.III-20.III	0,032	0,365	3,848	2,509	1,691
5		27.III-30.III	0,030	0,344	3,630	2,220	1,496
6		7.IV-10.IV	0,029	0,338	3,561	2,133	1,437
1	Milyutinskiy-6	17.II-20.II (naz)	0,027	0,316	3,334	1,857	1,251
2		25.II-28.II	0,029	0,334	3,523	2,085	1,405
3		7.III-10.III	0,030	0,342	3,604	2,187	1,474
4		17.III-20.III	0,031	0,357	3,762	2,393	1,613
5		27.III-30.III	0,029	0,336	3,544	2,111	1,423
6		7.IV-10.IV	0,029	0,330	3,475	2,027	1,365
1	Umid	17.II-20.II (naz)	0,028	0,318	3,351	1,877	1,265
2		25.II-28.II	0,029	0,336	3,540	2,106	1,419
3		7.III-10.III	0,030	0,343	3,621	2,209	1,488
4		17.III-20.III	0,031	0,358	3,779	2,426	1,628
5		27.III-30.III	0,029	0,338	3,594	2,153	1,437
6		7.IV-10.IV	0,029	0,333	3,533	2,068	1,380

Ekish muddatining kechikishi esa vegetatsiya davrining qisqarishi, yuqori

harorat ta’siri va namlik tanqisligi tufayli don massasining kamayishiga olib kelgan. Bu holat sug‘orish va agrotexnologik tadbirlar bilan bir qatorda ekish muddatining ham muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi [10; 134-b.].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari turli no‘xat navlarida 1000 dona don massasi nav xususiyatlari va ekish muddatlariga bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatdi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar Yulduz navida 25–28-fevral, Uzbekistanskiy-32 navida 25–28-fevral va Milyutinskiy-6 navida 7–10-mart ekish muddatlarida kuzatildi. Ushbu natijalar no‘xat yetishtirishda optimal ekish muddatlarini tanlash don yirikligini oshirish hamda yuqori hosildorlikni ta’minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, ekish muddati kechikkan sari barg yuzasi indeksi, dastlabki faza (5-6 barglik)da yoki shoxlanish fazasida biroz oshish kuzatilsa-da, gullash va dukkak shakllanish fazalarda sezilarli oshishga olib keladi. Bu ko‘rsatkichlar har bir navda o‘zgarib, bo‘lajak hosilga ishora bo‘ladi. Ekishning qulay muddatlarda amalga oshirilishi no‘xat navlarining maqbul o‘sishi, barg yuzasi indeksi kengayishi va hosiliga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Barg yuzasi indeksi navlar kesimida tahlil qilinganida, Yulduz (nazorat) navida maksimal BYI – 3,742 m^2/m^2 (17-20.III) gullash fazasida qayd etilib, don to‘lishishda 1,642 m^2/m^2 gacha tushganligi anilandi. Yulduz navida barg yuzasi indeksining dinamikasi muvozanatli, navning fotosintetik potensiali yuqoriligi aniqlandi.

Uzbekistanskiy-32 navida maksimal BYI – 3,848 m^2/m^2 (17-20.III) gullash fazasida kuzatilib, bu barcha navlar ichida eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lganligini alohida tilga olish zarur. Don to‘lishish fazasida barg yuzasi indeksi 1,691 m^2/m^2 ni tashkil etdi, ya’ni mazkur nav fotosintetik potensialni uzoqroq saqlab qolish qobiliyatiga ega. Bu ushbu navning asosiy fiziologik afzalliklaridan biri hisoblanadi.

Milyutinskiy-6 navida maksimal BYI – 3,762 m^2/m^2 (17-20.III) gullash fazasida, don to‘lishishda 1,613 m^2/m^2 gacha tushganligi qayd etildi. Ushbu navda boshqa navlarga nisbatan barg yuzasi indeksi biroz past, fotosintetik potensiali biroz cheklanganligi aniqlandi.

Umid navida ham maksimal BYI – 3,779 m^2/m^2 (17-20.III) gullash fazasida qayd etilib, don to‘lishishda 1,628 m^2/m^2ni tashkil etdi. Ushbu navda ham barg yuzasi indeksi yuqori bo‘lib, fotosintetik potensiali yuqoriligi qayd etildi.

Demak, o‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlarga tayangan holda xulosa qilib aytganda, barg yuzasi indeksi ekish muddati va nav xususiyatlariga bog‘liq holda sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Maqbul ekish muddati – mart oyi (17-20.III) bo‘lib, bu vaqtda navlarda fotosintetik potensiali maksimal shakllanadi. Uzbekistanskiy-32 va Umid navlarida barg yuzasi indeksi yuqori bo‘lib, ehtimol fotosintetik potensiali va assimilyatlar hosilga yo‘naltirilishi kuchli. Kech ekish (aprel) sharoitida barg yuzasi indeksi sezilarli pasayadi, bu hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunday qilib, barg yuzasi indeksi tahlili nafaqat fiziologik jarayonlarni baholashda, balki hosildorlikni bashorat (prognoz) qilishda, nav tanlash va ekish

muddatini maqbullashtirishda ham asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida turli no‘xat navlarida 1000 dona don massasining shakllanishi navning biologik xususiyatlari va ekish muddatlariga bog‘liq holda o‘zgarishi aniqlandi. Tadqiqot yillari davomida barcha navlarda erta va o‘rta muddatlarda ekish don massasining ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Yulduz (nazorat) navida 1000 dona don massasi nisbatan barqaror bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich urug‘larni 25–28-fevralda ekilganda 314,1 g ni tashkil etdi. Uzbekistanskiy-32 navida ham ushbu muddat optimal bo‘lib, 1000 dona don massasi 240,7 g bo‘lganligi aniqlandi. Milyutinskiy-6 navida esa eng yuqori natija urug‘lar 7–10-mart muddatida ekilganda 297,0 g ni tashkil etdi.

Ekish muddatining kechikishi bilan 1000 dona don massasining kamayishi kuzatildi, bu esa vegetatsiya davrining qisqarishi, yuqori harorat ta’siri va namlik resurslarining kamayishi bilan izohlanadi. Olingan natijalar no‘xat navlarida don yirikligini oshirish uchun optimal ekish muddatlarini tanlash muhimligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, tadqiqot sharoitida Yulduz va Uzbekistanskiy-32 navlari uchun 25–28-fevral, Milyutinskiy-6 navi uchun esa 7–10-mart ekish muddatlari 1000 dona don massasini shakllantirishda eng maqbul muddatlar sifatida tavsiya etiladi. Ushbu natijalar no‘xat yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va yuqori hosildorlikni ta’minlashda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Guerra J.C., Silva M.A., Costa R.R. Chickpea yield components under different irrigation regimes. – *Agricultural Water Management*, 2018. – Vol. 203. – P. 22–30.
2. Singh R.K., Sharma P., Verma A.K. Genetic variability and heritability studies in chickpea (*Cicer arietinum L.*). – *Legume Research*, 2017. – Vol. 40(1). – P. 11–20.
3. Yang Y., Wang J. Effects of mineral nutrition on seed size and yield of chickpea. – *Field Crops Research*, 2019. – Vol. 232. – P. 33–44.
4. Sharma S., Gupta N., Singh G. Influence of irrigation scheduling on growth and yield of chickpea. – *Journal of Agronomy*, 2016. – Vol. 15(3). – P. 106–113.
5. Saxena M.C., Singh K.B. The Chickpea. – Wallingford: CAB International, 1987. – 409 p.
6. Varshney R.K., Thudi M., Nayak S.N. Genetic improvement of chickpea: present status and future prospects. – *Plant Genome*, 2014. – Vol. 7(3). – P. 1–16.
7. FAO. Chickpea production guidelines. – Rome: Food and Agriculture Organization, 2019. – 78 p.
8. Yormatov D., To‘xtayev B. Dukkakli don ekinlari yetishtirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2016. – 152 b.
9. Abdullayev A., Xolmirzayev X. No‘xat navlarining hosildorlik ko‘rsatkichlari va agrotexnologik xususiyatlari. – *Qishloq xo‘jaligi jurnali*, 2020. – №4. – 45–49-b.
10. Karimov Sh., Rasulov A. Dukkakli ekinlarda hosildorlik elementlarining shakllanishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 134 b.

NO‘XAT NAVLARINING ILDIZIDA TUGANAK BAKTERIYALARNING SHAKLLANISHIGA EKISH MUDDATLARINING TA’SIRI

Mustanova Zarnigor Sobirovna
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
vaxobraxmonov554@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada no‘xat navlarining ildizida tuganak bakteriyalarning shakllanishiga ekish muddatlarining ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot davomida turli ekish muddatlarida ekilgan no‘xat navlarida tuganak bakteriyalarning hosil bo‘lish darajasi, ularning soni va faoliyati tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, optimal ekish muddati tuganak bakteriyalar rivojlanishini yaxshilaydi va o‘simlikning oziqlanishini hamda hosildorligini oshiradi. Shuningdek, noqulay muddatlarda ekish tuganaklarning kam hosil bo‘lishiga va ularning faoliyatining pasayishiga olib kelishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar. No‘xat, tuganak bakteriyalar, ekish muddati, ildiz tizimi, simbioz, azot fiksatsiyasi, hosildorlik, agrotexnika, tuproq unumdorligi

Kirish. No‘xat – qadimiy madaniy ekin. No‘xat qadimgi asteklar tomonidan yetishtirilgan, shuningdek, uning sanskrit tilidagi nomi ham saqlanib qolgan. “Cicer” (sitser) nomi Pliniy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, miloddan avvalgi davrlardayoq ushbu o‘simlikka nisbatan ishlatilgan. No‘xat qoldiqlari Falastinda olib borilgan arxeologik qazishmalar vaqtida miloddan avvalgi IV ming yillikka taalluqli qatlamlarda topilgan[1,2].

No‘xat boshqa xil dukkakli o‘simliklar singari ildizida joylashgan azot to‘plovchi bakteriyalar yordamida tuproqni azot birikmalari bilan boyitadi. No‘xat oqsilga boy hosil berish bilan birgalikda, ildizidagi tuganak bakteriyalar yordamida azot to‘plab, tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. No‘xat g‘alla ekinlari uchun yaxshi o‘tmishdosh ekin hisoblanib, u yerning azot bilan boyishiga va hosildorlikning oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[3].

Biroq tuganak bakteriyalar har doim ham ildizda hosil bo‘lavermaydi. Ularning rivojlanishi uchun eng qulay sharoit — tuproq namligi, uning g‘ovakligi va unumdorligidir. Ayniqsa, unumdor va yaxshi strukturaga ega tuproqlarda bakteriyalar faol rivojlanadi[4].

Issiq haroratli sharoitda dukkakli o‘simliklar azotni yetarli darajada o‘zlashtira olmaydi. Natijada o‘simliklarda azot yetishmasligi kuzatiladi. Masalan, tuproqning ildiz yetgan qatlamida harorat 32°C bo‘lganda tuganak bakteriyalar ildizda hosil bo‘lmaydi va erkin azot o‘zlashtirilmaydi. Tuganak bakteriyalarning o‘sishi va rivojlanishi uchun optimal harorat taxminan 20°C atrofida bo‘lishi lozim[5].

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida tuproq unumdorligini oshirish, mineral o‘g‘itlardan oqilona foydalanish va ekologik toza mahsulot yetishtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dukkakli ekinlar, xususan no‘xat, biologik azot fiksatsiyasi xususiyati orqali tuproqni tabiiy ravishda azot bilan boyitadi. Shu sababli no‘xat ekinida tuganak bakteriyalarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni, jumladan ekish muddatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Material va uslublar. Dala tajribalari Samarqand viloyati Payariqtumani “Elita uruqchilik xo‘jaligi” fermir xo‘jaligining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida 2022-2024-yillarda o‘tkazildi. Dala tajribalarida no‘xatning Yulduz, Uzbekistanskiy-32, Milyutinskiy-6 va Umid navlari asosiy ekin sifatida, qo‘lda shablon yordamida 70 sm qator orasi kengligida, ekiladigan urug‘lar oralig‘i 5 sm hisobidan ekildi. Ilmiy–tadqiqot ishlarida tajribalarni qo‘yish, biometrik o‘lchash, fenologik kuzatish, fiziologik tahlillar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Методы агрохимических анализов почв и растений», «Методы агрофизических исследований», “Dala tajribalarni o‘tkazish uslublari”, “O‘simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari ”qo‘llanmalari asosida, hosil strukturasi A.H.Майсурян uslubida, ma’lumotlarning statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubi asosida Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi.

Natijalar va munozara. Samarqand viloyati Payariq tumani sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida 2022-2024-yillar davomida o‘tkazilgan dala tajribalaridan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, no‘xat navlarining umumiy va aktiv simbioz potensialiga ekish muddatlari sezilarli ta’sir ko‘rsatdi (1-jadval).

Tadqiqotda qiyosiy o‘rganilgan navlar (Yulduz, Uzbekistanskiy-32, Milyutinskiy-6 va Umid) uchun turli ekish muddatlari no‘xatning rizosferadagi azot simbiozi jarayonlariga, xususan ildiz tuganaklarining hosil bo‘lishi, leggemoglobin paydo bo‘lishi va tuganaklarning aktiv simbioz potensialiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligi aniqlandi.

Ekish muddati kechikib borgan sayin (17-fevraldan 7-aprelgacha) barcha navlarda unib chiqishdan to tuganaklar faolligining pasayishigacha bo‘lgan fenologik bosqichlar kechikish tendensiyasi kuzatildi. Bu holat nam va harorat sharoiti, ehtimol, tuproqning mikrobiologik faolligi bilan uzviy bog‘liq, urug‘lar erta ekilgan variantlarda azotfiksatsiya jarayonlarining erta va yuqori jadallikda kechganligi qayd etildi.

1-jadval

No‘xat navlarining umumiy va aktiv simbioz potensialiga ekish muddatlarining ta’siri(2024-y.) n=10, P<0,05%

t/r	Navlar	Ekish muddati	Unib chiqish	Tuganaklar paydo bo'lishi	Leggemog-labin paydo bo'lishi	Leggemog-labindan xoleglobinga o'tish	Tuganak-larning yemirila boshlashi
1	Yulduz (nazorat)	17.II	11.III	*12/23.III **	5/28.III	81/12.VI	6/18.VI
2		25.II	15.III	12/27.III	4/31.III	79/12.VI	6/18.VI
3		7.III	23.III	11/03.IV	4/07.IV	79/18.VI	7/25.VI
4		17.III	01.IV	10/11.IV	3/14.IV	78/24.VI	7/01.VII

5		27.III	05.IV	9/14.IV	3/17.IV	76/25.VI	7/02.VII
6		7.IV	17.IV	8/25.IV	3/28.IV	75/04.VII	8/12.VII
1	Uzbekis tan-skaya 32	17.II	13.III	13/26.III	6/01.IV	100/02.VII	8/10.VII
2		25.II	17.III	12/29.III	6/04.IV	97/02.VII	9/11.VII
3		7.III	24.III	12/05.IV	5/10.IV	92/02.VII	9/11.VII
4		17.III	02.IV	11/13.IV	4/17.IV	89/05.VII	10/15.VI I
5		27.III	10.IV	10/20.IV	4/24.IV	85/07.VII	11/18.VI I
6		7.IV	18.IV	9/27.IV	3/30.IV	83/11.VII	11/22.VI I
1	Milyuti nskiy-6	17.II	11.III	11/20.III	5/25.III	88/15.VI	6/21.VI
2		25.II	16.III	10/26.III	5/31.III	82/15.VI	6/21.VI
3		7.III	23.III	10/02.IV	4/06.IV	80/18.VI	7/25.VI
4		17.III	31.III	9/09.IV	4/13.IV	78/23.VI	7/30.VI
5		27.III	08.IV	9/17.IV	3/20.IV	76/27.VI	8/05.VII
6		7.IV	18.IV	8/26.IV	3/29.IV	74/04.VII	8/12.VII
1	Umid	17.II	12.III	12/24.III	6/30.III	79/10.VI	8/18.VI
2		25.II	16.III	12/28.III	6/03.IV	78/11.VI	9/20.VI
3		7.III	24.III	11/03.IV	5/08.IV	79/17.VI	9/26.VI
4		17.III	01.IV	11/12.IV	4/16.IV	76/20.VI	10/01.VI I
5		27.III	09.IV	10/19.IV	4/23.IV	74/26.VI	10/06.VI I
6		7.IV	18.IV	9/27.IV	3/30.IV	74/03.VII	10/13.VI I
*-kunlar							
**-kalendar muddatlarda							

Yulduz navi urug‘lari eng erta ekilgan variant (17.II)da tuganaklar maysalar unib chiqqanidan 12 kun o‘tib, ya’ni 23-martda hosil bo‘lishi kuzatilgan bo‘lsa, leggemoglobin paydo bo‘lishi nihollar unib chiqqanidan 5 kun o‘tib, ya’ni 28-martda qayd etildi. Bu navda aktiv simbioz potensialining davomiyligi 12-iyunga qadar davom etdi. Ekish muddati kechiktirilgan sari (7.IV) tuganaklarning hosil bo‘lishi 2-4kun oldin kuzatilgan bo‘lsa-da, ammo tuganaklarning aktivligi (leggemoglabindan xoleglobinga o'tish – 75-76 kun)5-6 kun qisqa bo‘lganligi aniqlandi. Bu esa kech ekish holatida simbioz potensiali sezilarli ravishda kamayganligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpog’iston hududida hozirgi vaqtda sudralib yuruvchilarning 32 ta turini uchratishimiz mumkin. Shulardan 6 tasi Qizil kitobga kiritilgan.

Qum to‘garakboshi (Phrynocephalus interscapularis Lichtenstein, 1856)

Tanasining uzunligi quyruqsiz 4,2 sm, quyrug’i bilan birgalikda 8 sm dan oshmaydi.Tanasi ingichka, orqa tangachalar mayda va qirrali joylashgan [Q.Qayipbekov, 2009: 75]. Bosh va bo‘yin bo‘limidagi tangachalari esa kattaroq va o‘tkir uchli bo‘ladi. Quyrug’i yassi, qorin bo‘limi esa sut rangida, quyrug’ining uchi esa ko‘mir rangli bo‘ladi. Asosiy yashash joyiga keladigan bo‘lsak, o‘simligi juda kam bo‘lgan hamda kam mustahkamlangan esma qumliklar bo‘lib hisoblanadi. Tekisliklarda shamol orqali uchib kelgan qumlarda ham kamdan-kam holda uchratishimiz mumkin. Qum to‘garakboshi tanasining yon tomonini tebratish orqali qumga tez kirib ketadilar. Inlarini o‘zlari qaziydilar va chuqurligi 10-15 sm atrofida bo‘ladi. Kunduz kunlari ham faol harakatda bo‘lishadi.Qoraqalpog’istonnning janubiy hududlarida bular mart oyining oxiri va aprel oyining birinchi yarimida qishki uyqudan chiqadilar. Bularning ozuqasiga keladigan bo‘lsak chumoli,termit,kapalak va ularning lichinkalaridan iborat. Ayrim vaqtlari o‘simliklarning yashil barglari va shirali qismlarini ham iste’mol qilishadilar. Ko‘payishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tuxumlarini aprel oyining oxiri va may oyining boshida qo‘yishadi. Bir mavsumda 3-4 marta tuxum qo‘yadi va diametri 1-1,5 sm bo‘ladi [Q.Qayipbekov, 2009: 76]. Iyun oyining oxiriga kelib esa tuxumdan yosh bolalari chiqa boshlaydi. Bular juda tez o‘sadi va kattalashdi, hattoki kelgusi yil bahorda voyaga yetganlarga tenglashib oladilar.

Tarqalishiga keladigan bo‘lsak Qoraqalpog’istonda Ustyurt, Qizilqum va Amudaryo deltasidagi qum uyumlarida ko‘plab uchratishimiz mumkin.

O‘rta Osiyo cho‘l toshbaqasi (Среднеазиатская черепаха Steppe Tortoise *Agrionemys horsfieldii* Gray, 1844)

Toshbaqalar sudralib yuruvchilarning eng qadimgi guruhi bo‘lib hisoblanadi. O‘rta Osiyo cho‘l toshbaqasi quruqlik toshbaqalari urug’i, bitta nominal oilaga (Testudinidea) va yashirin bo‘yinli toshbaqalar (Cryptodira) kenja turkumiga mansubdir [J.Laxanov, 2013: 26].

Bular asosan hududimizning cho‘l va dasht mintaqalarida ko‘plab uchrashadi. Qalqoni uncha katta bo‘lmagan yumaloq, sarg’ish-qo‘ng’ir rangli bo‘ladi. Qalqonining ustki qismida esa yoyilib ketgan qora dog’lari bo‘ladi. Tanasining uzunligi taxminan 20 sm atrofida bo‘ladi. Erkaklarining qalqoni biroz kichikroq, urg’ochilariniki esa erkaklarinikidan biroz kattaroq bo‘ladi. Oldingi oyoqlari 4

barmoqli bo‘ladi [Q.Qayipbekov, 2009: 66]. Kunduz kunlari faol va ko‘proq harakatda bo‘lishadi. Erta bahorda qishki uyqudan uyg’onishadi. Qoraqalpog’istonning jabubiy hududlarida mart oyining oxirida cho‘l toshbaqalarini uchratishimiz mumkin. Cho‘l toshbaqalari asosan kunduz kunlari faol harakatda bo‘ladilar.

Ozuqasiga keladigan bo‘lsak efemer, ko‘p yillik o‘simliklarning novdalari, bug’doy maysalari, paxta, qovun,tarvuz kabi poliz ekinlari bilan oziqlanadilar. Qumlardagi efemer o‘simliklar quriganidan keyin esa cho‘l toshbaqalari iyun oyidan boshlab uyquga ketishadi. Bularning yozgi uyqusi har xil bo‘lishi mumkin, ba’zi paytlari qisqa, ba’zida esa uzun. Bunga asosiy sabab yozgi havo haroratidir. Agarda kuz mavsumida yog’ingarchilik ko‘proq kuzatiladigan bo‘lsa, ba’zi hollarda cho‘l toshbaqalari uyg’onib oziqlanib keyin, qaytadan qishki uyquga ketishlari mumkin. Uzunligi 1-2 metr bo‘lgan in qazishadi [Qizil kitob, 2019: 130].

Ko‘payishiga keladigan bo‘lsak aprel oyidan, iyun oyigacha 2-3 marta 2 tadan 5 tagacha tashqi tomoni oq, qattiq hak bilan qoplangan tuxum qo‘yishadi. Tuxumining og’irligi 29-30 gr, uzunligi 40-57 mm [Q.Qayipbekov, 2009: 66]. Tuxum ichida embrion 70-80 kun rivojlanadi [S.Dadayev va Q.Saparov, 2011: 245]. Avgust-sentabr oylariga kelib esa tuxumdan uzunligi 3-5 sm bo‘lgan kichkina toshbaqalar chiqa boshlaydi. Tuxumdan chiqqan toshbaqalarning qalqoni juda nozik va yupqa bo‘ladi. Ular ham qishki uyquga ketishadi va bahorda uyg’onishadi. Yosh toshbaqalar 10 yoshga kirgandan keyin jinsiy voyaga yetadilar.

o‘rta Osiya cho‘l toshbaqasi tabiatda 20-25 yil umr ko‘rishadi [S.Dadayev va Q.Saparov, 2011: 245].

Hozirgi kunda Qoraqalpog’iston hududida cho‘l toshbaqalarining soni yildan-yilga kamayib bormoqda. Bunga sabab esa toshbaqalar yashaydigan va ko‘payadigan hududlarning, insonlar qishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun o‘zlashtirilishidir. Bundan tashqari Ustyurt va Qizilqum tekisliklarida brakonerlarning ko‘payishidir. Toshbaqalar sonining kamayishiga yana bir asosiy sabab, ikkinchi jahon urshi davrida o‘rta Osiyo toshbaqasi go‘shtidan ko‘p miqdorda konservalar tayyorlashda foydalanilgan [Qizil kitob, 2019: 130].

Zaif, kamayib borayotgan o‘rta Osiyo endemik turi sifatida Qizil kitobga kirtilgan. Uni himoya qilishimiz va qo‘riqlashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. J.Laxanov “o‘zbekistonning umurtqali hayvonlari aniqlagichi” Toshkent 2013
2. Qonisbay Qayipbekov Qaraqalpaqstan faunasi (Omirtqali haywanlar) Nokis «Qaraqalpaqstan» 2009
3. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 2-jildi Toshkent 2019
4. S.Dadayev va Q.Saparov Zoologiya (xordalilar 2 qism) Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2011

BUKANTOG‘ FLORASIDAGI *ASTRAGALUS TURKUMNING* ENDEM VA KAMYOB TURLARI

G.A. SEREKEEVA
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Umumiy biologiya kafedrasi dotsenti.
gserekeeva@gmail.com

Dunyo global iqlim o‘zgarishlari va antropogen ta’sirlar tabiiy ekotizim komponentlari, jumladan, tabiiy floralar tarkibining qisqarishi va transformatsiyasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bu borada, mahalliy floralarning tarkibini aniqlash hamda kamyob va endem turlar populyatsiyalarini zamonaviy holatini baholashga qaratilgan tadqiqotlar muhim sanaladi. Shunga ko‘ra, salbiy omillar ta’sirini hisobga olgan holga floralar tarkibidagi xo‘jalik ahamiyatiga molik turlarni aniqlash, ulardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish hamda raqamli ma’lumotlar bazalarini yaratish ilmiy–amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda iqlim o‘zgarishi va antropogen ta’sirlarga moyil hudud sifatida qurg‘oqchil mintaqalardagi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan botanik-geografik rayonlar florasi hamda o‘simliklar qoplamini doimiy monitoringini yuritishga katta e’tibor qaratildi. Bu borada, Markaziy Osiyo arid mintaqalarida floristik tadqiqotlarni olib borish bir asrdan ortiq tarixga ega bo‘lsada, bugunga kelib, tabiiy ekotizimlardagi o‘simlik turlari tarkibini aniqlash bilan birga geoaxborot tizimida yaratilgan yangi avlod tarqalish xaritalarini shakllantirish hamda kamyob, endem turlarni saqlab qolish borasida samarali natijalar qo‘lga kiritildi.

Ta’kidlash lozimki, Markaziy Osiyoning katta maydonini egallagan Qizilqum cho‘li, jumladan, uning qoldiq tog‘lari florasi bo‘yicha natijalar botanik-geografik tadqiqotlarda, jumladan, Turon va Tog‘li o‘rtaosiyo provinsiyalari o‘rtasidagi chegaralarni belgilash hamda floralarining shakllanishini asoslashda muhim sanaladi. Bu o‘rinda, qoldiq tog‘larning aksariyat qismi, xususan Bukantog‘ florasining zamonaviy tarkibini aniqlash, uning tarkibidagi kamyob, endem va yo‘qolib borayotgan turlarni aniqlash va muhofaza choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qizilqumning qoldiq tog‘lari xususan, Bukantog‘ florasining endem va kamyob turlarini tahlil qilish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Qizilqumning qoldiq tog‘larida uchraydigan endem va kamyob o‘simlik turlari hozirgi kungacha tadqiqotchilarning diqqat markazida. I.I. Granitov Janubiy-G‘arbiy Qizilqumning o‘simliklar qoplamini tahlil qilish bilan birga Qizilqumning qoldiq tog‘larida tarqalgan 34 turdagi endem o‘simliklarni ham keltirib o‘tgan. Ular quyidagilardan iborat: *Calligonum involutum, Salsola minkwitzae, Halimocnemis smirnovii, Acanthophyllum cyrtostegium, Delphinium bucharicum, Lepidium subcordatum, Astragalus centralis, A. subbijugus, Convolvulus divaricatus, Paraeremostachys aralensis* va boshqalar. P.K. Zakirov Nurota oldi qoldiq tog‘larining o‘simliklar qoplamini o‘rganish bilan birga Qizilqum qoldiq tog‘larining 22 turdagi endem o‘simliklarini ham keltirgan. L.A. Kapustin Bukantog‘ va Yetimtog‘ o‘simliklar qoplamini tadqiq etish bilan birga 11 turdagi endem va kamyob o‘simliklarni

aniqlagan. Ular quyidagilar: *Astragalus subbijugus, A. remanens, A. centralis, Lagochillus vvedenskyi, Lappula aktaviensis, Ferula kyzylkumica, Jurinea psammophila, Scorzonera bunge, Silene tomentella, Stipa aktauensis, Ferula ovina* (= *F.* aff. *tenuisecta*). F.O. Xasanov va boshqalar Qizilqumning qoldiq tog‘larida uchraydigan 31 endem va kamyob o‘simliklar haqidagi ma'lumotlarni keltirgan.

Astragalus holargyreus (*Fabaceae*) – xamefit. Bukantog‘ florasidagi kamyob turlardan biri bo‘lgan ushbu tur Irler tepaligida Tubabergen, Bo‘zdantog‘larning shag‘al-toshli yonbag‘irlarda o‘sadigan petrofit o‘simlik. Sibir-himoloy Oldi *Laguropsis* Bunge sektsiyasi keskin ajiralib turadigan yagona tur, *Astragalus holargyreus* mevasi yetilganda bo‘shliq hosil qilmaydigan bo‘lishi bilan farqlanadi. “Qizil Kitob” ga kiritilgan tur, kamyoblik darajasi 2. Janubiy-G‘arbiy Qizilqumda o‘sadigan kamyob, endem tur.

Astragalus subbijugus (*Fabaceae*) – xamefit. Bukantog‘ florasidagi kamyob o‘simliklardan. Irler tepaliklarida, Qulquduq, Aytim tog‘, Berder ota tepaliklaridagi mayda toshli tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadigan petrofit o‘simlik. Bu tur Qizilqum hududida joylashgan boshqa qoldiq tog‘larida ham tarqalgan, xususan, Oqtog‘, Quljuqtog‘, Sultonuvays, Arstantog‘, Tamdi tog‘, Ko‘kcha tog‘ hududlarida uchraydi. Qizilqum qoldiq tog‘ turining endem o‘simligi.

Astragalus centralis (*Fabaceae*) – xamefit. Bukantog‘ florasida juda kam uchraydigan o‘simlik. Bukantog‘ hududida tosh-shag‘alli, tog‘ning yoriqlarida va tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadigan petrofit o‘simlik. Qizilqum hududida joylashgan qoldiq tog‘lari Quljuqtog‘ning Ayakgujum, Oqtosh, Sultonbibi qudug‘i atrofida tarqalgan. hozirgi kunda areali juda qisqarib borayotgan tur, Qizilqum qoldiq tog‘larining endem o‘simligi. Qizil Kitobga kiritilgan tur, kamyoblik darajasi 1. Qizilqumdagi kamyob, endem tur.

Astragalus remanens (*Fabaceae*) – terofit. Bukantog‘ Irler tepaliklarida mayda shag‘al toshli, tog‘ yonbag‘irlarida tarqalgan. Quljuqtog‘, Sulton Uvays hududlarida uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Bukantog‘ florasining endem va subendem o‘simliklari aniqlandi. Qizilqum qoldiq tog‘larining endem turlari ushbu turlar O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan 14 turdagi kamyob o‘simliklar florada o‘z o‘rniga ega. Qizilqum qoldiq tog‘lari orasidagi Bukantog‘ florasining tutgan o‘rni va biologik xilma-xilligini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Floristik izlanishlar natijasida butasimon tur bo‘lgan *Astragalus scleroxylon* ning 2 ta populyatsiyasi (20 tupga yaqin) topilgan bo‘lib (areali butun Bukantog‘ massivi bo‘yicha tarqalgan), bu tur O‘zbekiston “Qizil Kitobi”ning navbatdagi nashriga kiritilishi mo‘ljallangan. 6 ta endem turlari (1,71%) bilan xarakterlangan Bukantog‘ florasining endemik tahlili keltirilgan. Eng originali - *Astragalus holargyreus* - Sibir-himolay oldi sektsiyasidan *Laguropsis* Bunge ajratilgan changalzorlari bilan petrofitli turlar keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гранитов И.И. Эндемики во флоре Юго-Западных Кзыл-Кумов // Труды. САГУ. №. 136. – Ташкент, 1958. – С. 46-49.

2. Закиров П.К., Абдурахманов Р.А. Новые для Кызылкума виды растений из останцовых низкогорий (дополнение к флоре) // Узбекский биологический журнал. – Ташкент, 1971. – №2. – С. 35-37.

3. Закиров П.К. Флора и растительность низкогорий Кызылкума и хребта Нуратау: Автореф. дис . … докт. биол. наук. – Ташкент, 1971. – 51 с.

4. Капустина Л.А. Закономерности распределения и антропогенные изменения растительности Букан-Джетымтауской системы останцовых гор: Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент, 1990. – 24 с.

5. Хасанов Ф.О. Шомурадов Х.Ф., Кадыров Г. Краткий очерк и анализ эндемизма флоры пустыни Кызылкум // Ботанический журнал. – Москва, 2011. – № 2 (96). – С. 237-244.

6. Хасанов Ф.О. Шомурадов Х.Ф., Горные элемент во флоре пустыни Кызылкум // Узбекский биологический журнал. – Ташкент, 2011. – № 5. – С.50-54.

7. Хасанов Ф.О. Шомурадов Х.Ф., Кадыров Г. Генезис и современное состояние флоры пустыни Кызылкум // Проблемы освоения пустынь. – Ашхабад, 2011. – № 2. – С.77-80.

BARGXO‘R QO‘NG‘IZLAR (COLEOPTERA: CHRYSOMELIDAE) CRYPTOCEPHALINAE KENJA OILASI

B.A.Sultanov[1] G.I.Matmuratova[2]
Ajinyoz nomidagi NDPI

Qattiq qanotli (Insecta: Coleoptera) hasharotlar turkumi ichida bargxo‘r qo‘ng‘izlar (Coleoptera: Chrysomelidae) oilasi eng kattasi bo‘lib, deyarli barcha iqlim mintaqalarida, tropik va subtropik hududlardan tortib Ġarbiy Sibirning kengligiga qadar keng tarqalgan. Ba’zi turlari suv havzalari yaqinida, zich o‘tloqli tog‘lar bilan qoplangan joylarda, o‘rmonlarda, cho‘l va yarim cho‘l hududlarida yashashni afzal ko‘rishadi. Boshqa turlari noyob butalar va qishloq xo‘jaligi zararkunondalari sifatida doimo tadqiqotchilarni o‘ziga jalb qilib kelgan [1,2,3,4].

Bargxo‘r qo‘ng‘izlar (Chrysomelidae)-turlarining soni bo‘yicha uzunburun (Staphylinidae) qo‘ng‘izlardan keyingi o‘rinda turadi va 2500 avlodga mansub 50 mingdan ortiq turni o‘z ichiga oladi [4]. Rossiya hududlari va yondosh mamlakatlarda 1500 ga yaqin tur, Sibirda 400 ga yaqin, O‘rto Osiyo va MDH mamlakatlarida 2000 ga yaqin va O‘zbekistonda 240 ga yaqin turi tarqalgan [1].

Markaziy Osiyoning qo‘ng‘izlar faunasiga oid ilk ma’lumotlar G.I.Fisher-Veldgeym (1820-1828), E.A.Eversman (1830-1840), V.F.Oshanin (1844-1845), A.P.Fedchanko (1868-1871) tadqiqotlarida keltirilgan bo‘lib, 500 dan ortiq qattiqqanotlilarni o‘rgangan, shundan 200 ga yaqini bargxo‘r qo‘ng‘izlar hisoblanadi [1,4].

Cryptocephalinae (yashirin boshlilar) - bargxo‘rlar (Chrysomelidae) oilasiga mansub qo‘ng‘izlar kenja oilasi bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab 4000 ga yaqin turni birlashtiradi. Bu qo‘ng‘izlarning nomi yunoncha "kephalos" ("yashirin") va "kephale" ("bosh") so‘zlaridan kelib chiqqan, chunki bu qo‘ng‘izlarning boshi ko‘pincha oldingi ko‘krakka tortilgan va yuqoridan deyarli ko‘rinmaydi.

1.Tashqi ko‘rinishi Voyaga yetgan individlar kichik qo‘ng‘izlar (2 dan 10mm gacha) silindrsimon yoki deyarli kvadrat shaklida.Ular ko‘pincha yorqin rangli, contrast ranglar – sariq va qora, qizil yoki metal ko‘k va yashil. Ko‘pchilik turlarining uzun ipsimon mo‘ylovlari bor.

2.Himoya mexanizmi: Ularning “yashirin” boshi bilan bir qatorda qiziq bir odati ham bor: xavf tug‘ilganda oyoqlari va antennalarini ichkariga tiqadi va yerga yiqiladi. Bu holatda ular quruq o‘simlik kurtaklari yoki hatto hashoratlar najaslariga o‘xshab, o‘zlarini kamuflyaj qilishga yordam beradi.

3.G‘ayrioddiy lichinkalar: Bu qo‘ng‘izlarning lichinkalari o‘zlarining axlatlari va turoq zarralaridan tuzadigan maxsus “hollarda” yashaydilar. Ular bu ishni salyangozlar kabi o‘z tanalarida olib yurishadi va uning ichida butunlay yashirinishlari mumkin.

4.Xun:kattalar ham lichinkalar ham daraxtlar, butalar va o‘tlarning barglari bilan oziqlanidi.O‘zbekiston va O‘rta Osiyoda yovvoyi va madaniy o‘simliklarda yashaydigan ko‘lab turlarni uchiratish mumkin.

Oziqlanishi: Lichinkalari asosan detritofaglar (o‘rmon to‘shamasidagi chirigan organik moddalar bilan oziqlanadi), ammo ba’zilari yashil barglarni ham iste’mol qilishi mumkin. Voyaga yetgan qo‘ng‘izlar turli o‘simliklarning changlari, gullari va barglari bilan oziqlanadi.

Chumolilar bilan aloqasi: Ba’zi turlar (ayniqsa Clytrini va Cryptocephalini tribalaridan) mirmekofillardir - ularning lichinkalari chumoli inlarida yashaydi. Chumolilar qo‘ng‘iz tuxumlari solingan paketlarni qurilish materiali yoki oziq-ovqat deb o‘ylashi va ularni uyasiga olib kirishi mumkin, u yerda lichinkalar axlat yoki hatto chumoli urug‘lari bilan oziqlanib, "chaqirilmagan mehmonlar" sifatida yashaydi.[5]

Xulq-atvori: Xavf tug‘ilganda, bu qo‘ng‘izlar ko‘pincha oyoqlari va mo‘ylovlarini qisib, shunchaki yerga yiqilib, o‘limga taqlid qiladi.

Yashash tarzi va yashash muhiti

Oilacha bir nechta yirik guruhlarni (tribalarni) o‘z ichiga oladi, ular orasida eng mashhurlari:

1. Cryptocephalini - tipik yashirin boshlilar.
2. Clytrini (klitrinlar) - ko‘pincha yorqin (to‘q sariq-qora) ogohlantiruvchi rangga ega.
3. Fulcidacini - tashqi ko‘rinishi qurtlarning axlatiga o‘xshash qo‘ng‘izlar bo‘lib, bu ularga yirtqichlardan yashirinishga yordam beradi.[5]

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Avanesova G.A. Zemlyanıe bloshki Uzbekistana - Chrysomelidae, Halticinae (fauna, zoogeografiya.) Avtoref. kand. diss.. - Tashkent, Izd-vo «Fan» UzSSR. 1967. - 86 c.

2.Bronshteyn C.G. Materialı po faune i biologii jukov-listoedov (Chrysomelidae) Zaravshanskoy dolinı. Trudı SamGU. Nov.ser., vip. 109, Samarkand. 1961.

3.Dubeshko L.N., Medvedev L.N. Ekologiya listoedov Sibiri i Dal’nego Vostoka. Irkutsk: Izd-vo Irkutskogo universiteta, 1989. - 224 s.

4.Lopatin I. K. Juki-listoedı Sredney Azii i Kazaxstana. - L.: Nauka, 1977. - 269 s.

5.Internet ma`lumotlari.

QIZIL QANOT TORTA (SCARDINIUS ERYTHROPHATHMUS LINNE), BALIQLARINING PARAZITLAR FAUNASI

Sultanov Esbosin Qosimbetovich - Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Qadambaeva Adiba Odambay qizi -Ajiniyoz nomidagi NDPI talabasi

Qizil qanot torta Scardinius erythrophathmus (Linne), balig‘i O‘rta Osiyoning Orol dengizi, Chu daryosi, janubiy Orol oldi suv omborlari, Sirdaryoning yuqori oqimi Qora daryogacha Amudaryoning yuqori oqimigacha tarqalgan.

O.Osmanovning (1971) yilgi ma’lumotlari bo‘yicha qizilqanot torta Scardinius erythrophathmus (Linne), 44 tur parazit aniqlangan. Shulardan eng yuqorisi trematoda (12), oddiy hayvonlar (8), nematodalar (7), tasmasimon chuvalchanglar (6), raksimonlar (5), monogenetik so‘ruvchi chuvalchanglar (4), suluklar va mollyuskalardan bittadan turni hisobga olgan. Topilgan parazitlarning ichidan 5 turi (Trypanosoma scardinii, Sryptobia borelli, Doctylogyrus difformis, Girodactylus wageneri scardinii,Diplozoon sp.) qizilqanot tort balig‘i uchun spetsifik tur hisoblanib, qolgan 39 turi keng xo‘jayin doirasiga ega.

V.Dogel va B.Bixovskiy (1934) Orol dengizidan qizilqanot torta Scardinius erythrophathmus (Linne), baliqdan 18 tur parazit hisobga olgan.

So‘nggi yillardagi bizning tadqiqotlarimiz bo‘yicha Oqchako‘l ko‘lidan 25 dona qizil qanot torta balig‘i to‘liq parazitologik yorish usulida tekshirildi. O‘rganilgan baliqlarimizning tana uzunligi 17,3-20,5sm, og‘irligi 139-426 gramm bo‘lib 11 turdagi parazit aniqlandi.

Umuman 1972-1973-yillarga nisbatan qizilqanot torta Scardinius erythrophathmus (Linne), balig‘ining parazitlar tur tarkibi 3 barobarga kamayganligi ma’lum bo‘ldi. Bu parazitlarning ichida ko‘proq uchragani Dactylogyrus difformis va Diplostomum spathaceim, jarohatlanish va zararlanish intensivligi juda past. Qizilqanot torta Scardinius erythrophathmus (Linne), baliqning spetsifik parazit turlaridan Dactylogyrus diffformis, Girodactylus wageneri scardinii, Diplozoon scardinii turlari hisobga olindi. Shu bilan birga Janubiy Orolbo‘yi bentofaglari hisoblangan Bothriocephalus opsariichthydis va Contracaecum microcephalum, qolgan 5 tur parazit (Myxobolus pseudodispas, dactylogyrus tuba, Gryporhynchus pusillum Clinostomum complanatum, Lernaea elagans) juda oz sonda bir donadan uchradi. Janubiy Orolbo‘yi suv havzalarida qizilqanot torta Scardinius erythrophathmus (Linne), balig‘ining parazitlar tur tarkibi keskin kamaygani bilan parazitlar uchun qulay sharoit tug‘ilsa kasallik o‘chog‘i paydo bo‘lishi kuzatilishi mumkin. Shuning uchun har bir tur parazitning biologiyasini, ekologiyasini o‘rganish bosh maqsadimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bıxovskaya-Pavlovskaya. Paraziti rıb (rukovodstvo po izucheniyu). L.,1983, s.48.
2. Osmanov S.O. Parazitı rıb Uzbekistana. Tashkent,1971,s.269-272.
3. Sultanov E.K. Yusupov O.Yu. Osobennosti parazitofaunı promıslovıx rıb ozera Akchakul`, Vestnik KKO AN RUz, 2000,№3,s.8-11.

OROL OQ (ABRAMIS BRAMA ORIENTALIS BERG.) BALIG'INING PARAZITLAR FAUNASI

Sultanov Esbosin Qosimbetovich — Katta o‘qituvchi
Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi
Rayimbergenova Gulrux Zafar qizi — Ajiniyoz nomidagi NDPI talabasi

Orol oq chavog‘i- (Abramis brama orientalis Berg) balig‘i O‘rta Osiyoning Orol dengizi, Chu daryosi, janubiy Orol oldi suv omborlari, Sirdaryoning yuqori oqimi qora daryogacha Amudaryoning yuqori oqimigacha tarqalgan.Zarafshon va Qashqadaryolarda uchramagan (Berg,1949) O.Osmanovning (1971) yilgi ma’lumotlari bo‘yicha Orol oq balig‘i- (Abramis brama orientalis Berg) balig‘i 63 tur parazit aniqlangan.

Shulardan eng yuqorisi trematoda (13), oddiy hayvonlar (15), nematoda (12), tasmasimon chuvalchanglar (8), raksimonlar (7), monogenetik so‘ruvchi chuvalchanglar (6), suliklar va mollyuskalardan bittadan turni hisobga olgan. Topilgan parazitlarning ichidan oddiy hayvonlardan (Trypanosoma abramidis,Sryptobia abramidis), 6 tur monogeniyalar (Doctylogyrus wunderi, D.falcatus, D.zandti, D.auriculatus, Girodactylus parvicopula, Diplozoon paradoxum), Orol oq balig‘i - (Abramis brama orientalis Berg) baliq uchun spetsifik tur hisoblanib, qolgan 55 tur keng xo‘jayin doirasiga ega.

C.O.Osmanov (1971) Orol dengizidan Orol oq balig‘i- (Abramis brama orientalis Berg), baliqdan 39 tur parazit, Amudaryodan-35 tur, Sirdaryoda 30 tur. A. I. Agapova va A. P. Maksimovalar (1960) Chu daryosidan 6 tur, Sariqsuv va Jezqozg‘on suv omboridan oqchavoqdan 9 tur parazit hisobga olgan.

So‘nggi yillardagi bizning tadqiqotlarimiz bo‘yicha Oqchako‘l ko‘lidan 21 dona Orol oqbalig‘i to‘liq parazitologik yorish usulida tekshirildi. O‘rganilgan baliqlarimizning tana uzunligi 16,3-19,2sm, og‘irligi 121-323 gramm bo‘lib 9 turdagi parazit aniqlandi.

Umuman 1972-1973-yillarga nisbatan Orol oq balig‘i- (Abramis brama orientalis Berg), balig‘ining parazitlar tur tarkibi 7 barobarga kamayganligi ma’lum bo‘ldi. Bu parazitlarning ichida ko‘proq uchragani Doctylogyrus wunderi va Diplostomum spathaceim, jarohatlanish va zararlanish intensivligi juda past. Orol oq balig‘i (Abramis brama orientalis Berg), balig‘ining spetsifik parazit turlaridan Trypanosoma abramidis, Doctylogyrus wunderi, Diplozoon paradoxum turlari hisobga olindi. Shu bilan birga Janubiy Orolbo‘yi bentofaglari hisoblangan Contracaecum squalii al kalgan 4 tur parazit (T.clavatuv, D.zandti, Gryporhynchus pusillum, Argulus foliaceus) juda oz sonda bir-ikki donadan uchraydi.

Janubiy Orol oldi suv havzalarida Orol oq balig‘i- (Abramis brama orientalis Berg), balig‘ining parazitlar tur tarkibi keskin kamaygani bilan parazitlar uchun qulay sharoit tug‘ilsa kasallik o‘chog‘i paydo bo‘lishi kuzatilishi mumkin. Shuning uchun har bir tur parazitning biologiyasini, ekologiyasini o‘rganish bosh maqsadimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Быховская-Павловская. Паразити рыб (руководство по изучению). Л.,1983, с.48.

2. Османов С.О. Паразиты рыб Узбекистана. Ташкент,1971,с.269-272.

3. Султанов Е.К. Юсупов О.Ю. Особенности паразитофауны промысловых рыб озера Акчакуль, Вестник ККО АН РУз, 2000,№3,с.8-11.

O‘ZBEKISTON ISHKI SUVLARIDA BALIQLARDA PARAZITLIK QILUVCHI MONOGENIYA SINFI VAKILLARI

Sultanov Esbosin Qosimbetovich -
Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Matyaqubova Mashxura Polat qizi-Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya talim yo‘nalishi talabasi

O‘zbekiston Respublikasidagi ko‘l va suv omborlarida tarqalgan karpsimon baliqlarda monogeniya sinfiga tegishli Dactylogyrus urug‘idan 56 tu‘r, Dogilius, markewitschiana, Acolpenteron, Pseudacolpenteron, Ancylodiscoides, Ancyrocephalus, Nitzchia, Tetraonchus, Ceyrodactylus, Diplozoon urig‘laridan 49 tu‘r hisobga olingan. Umumiy hisobda 105 tu‘r aniqlangan (S.O.Osmanov., 1971). Chuningdek 6 tu‘r: D.Vastator, D.extensus, D.anchoratus, D.minutus, D.achmerowi, D.osmanovi hisobga olingan (Sultanov E.Q., Yusupov O.Y., 2000).

Ilmiy adabiyotlarda Daktlogiroz kasalligining qo‘zg‘atuvchisi D.Vastator (daktilogiroz A) va D.extensus (daktilogiroz B) deb ko‘rsatilgan. Baliqlarda parazitlik qiluvchi D.Vastator asosan baliqlarning jabra yaproqchalarida parazitlik qilib, natijada jabra yaproqchalarida jarohatlar paydo qilib to‘qimalarning faoliyati buziladi va qon ketish kuzatiladi.Jarohatlangan jabra to‘qimalarining qismlari o‘la boshlaydi va yiring hosil qiladi. Bunday ma’lumotlar birinchi marta O.N.Bawerning 1959-yildagi "Shuchuk suv baliqlari parazitlarining ekologiyasi» nomli monografiyasida aniq kursatilgan. Agar, chavoqlarning jabralarida 8 tadan 100 tagacha parazit uchrasa kasallik avj oladi va chavoqlarning nobud bo‘lishiga olib keladi. Kasallangan baliqlar suvning ustki qismiga chiqib, jabraga kislorod yetishmasligi tufayli o‘lib ketadi.

D.vastator 7smlik baliq chavoqlarining ginogiyasi" degan ilmiy ishida keltirilgan. Bundan tashqari B.A.Allamuratov, G.B.Allamuratova, A.Qurbonova, S.O.Osmanov va yana boshqa olimlarning ma’lumotlarida ko‘rsatilgan. D. vastatorning ko‘payishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi ekologik omillar suvning harorati hisoblanadi. O.N.Bawer (1959) suvning harorati 4-7,5 °C da parazitning mavjudligini aniqladi. Qish oylarida harorat 1-2°C bo‘lganda parazit ko‘paya olmaydi. O.N.Bawerning fikricha parazitning tuxum qo‘yish davri suvning harorati 22-26°C bo‘lganda yuqori bo‘ladi. Harorat D.Vastatorning embrional rivojlanish davriga ham ta’sir qiladi. E.M.Lyaymanning kuzatishicha harorat 28°C da parazitning rivojlanishi 3 kun davom etgan, 24°C da 4 kun, 20°C da 5 kun, 8°C da esa 27-28 kun rivojlanganligi kuzatilgan. Suvning harorati 4°C da parazitning tuxumi 60 kungacha o‘lmaganligi, agar qulay sharoitga olib kelganda yaxshi rivojlanganligi kuzatilgan. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi baliqchilik xo‘jaliklarida suvning harorati uzoq vaqtgacha D.Vastatorning rivojlanishi uchun juda qulay bo‘lib keladi. Bahorda parazitlar tez rivojlanadi, ulardan hosil bo‘lgan lichinkalar baliqqa yuqadi. D.vastatorga qarshi kurashish uchun profilaktika tadbirlarini tashkil etish lozim. O‘zbekiston sharoitida yosh chavoqlar tabiiy ko‘llardagi katta yoshdagi karp baliqlaridan va suv havzalarida qishlab qolgan tuxumlaridan yuqtiradi. Shuning

uchun uvildiriq tashlagandan keyin katta yoshdagi ona baliqlarni hovuzdan alohida olish, tabiiy ko‘llardan baliqlarni qo‘shmaslik, hovuz tubini so‘ndirilgan ohak bilan dezinfeksiya qilish zarur.

D.vastatorga qarshi eng oddiy va samarali foyda ko‘rsatuvchi bu osh tuzining 5% li eritmasi bilan vannada 5 daqiqa ushlab turishdir. Bundan tashqari eng qulay natija 0,1% li ammiakli vannada 19-27°C haroratda 30 sekund davomida chavoqlarni solib olish kerak.

Daktilogiroz B kasalligi. Bu kasallikning qo‘zg‘atuvchisi karpsimon baliqlarda Dactylogyrus extensus. Bu parazit D.vastatorga nisbatan ancha yirikroq bo‘lib, jabra yaproqchalarida patologik o‘zgarishlar, suvning haroratiga, sho‘rligiga va yana boshqa ekologik omillarga chidamli. D.extensus karpsimon baliqlarning barcha yoshdagi turlariga zarar yetkazadi. Bu baliqning o‘rta jabra yaproqlariga yopishib parazitlik qiladi, yara hosil qilib baliqning nafas olish jarayonini buzadi. Parazitning intensiv tuxum qo‘yishi suvning haroratining yuqori bo‘lishi bilan kuzatiladi.

Ko‘pchilik hollarda tuxumning hayot faoliyati to‘liq bo‘lavermaydi. Agarda suvning harorati 13-15°C bo‘lganda D.extensus hayot faoliyati juda yuqori bo‘lgan tuxum yig‘adi. Olimlarning fikricha, bu harorat ko‘payish uchun optimal sharoit, embrional rivojlanish uchun esa yuqori harorat zarur. (O.N.Bawer va N.P.Nikolskaya 1954)

O‘zbekiston sharoitida bu parazit yil davomida ayniqsa bahor va kuz oylarida intensiv rivojlanadi. Qarshi kurashish va oldini olish uchun havzadagi baliqlarni yoshiga qarab alohida-alohida joylashtirish, tabiiy ko‘llardan baliqlarni qo‘shmaslik, havza tubini dezinfeksiyalash, quritish va quritish. Eng yaxshisi vannaga 0,2% ammiak eritmasida 10°C harorat 1 daqiqa ushlab turish katta samara beradi. (Pasovskiy, 1953).

Bizlar E.Q.Sultanov bilan birgalikda 2025-yil iyul oyida Taxtako‘pir tumani hududida Qorateren tabiiy ko‘lidan tutilgan karpsimon baliqlardan sazan, oq tolstolobik baliqlarini to‘liq parazitologik yo‘l bilan tekshirganimizda sazan 15 dona, oq tolstolobik 19 dona, jami 34 dona baliq tekshirib ko‘rilganda D.vastator bilan sazan balig‘i 21% ga, oq tolstolobik balig‘i 6% ga zararlanganligi aniqlandi. Demak, D.Vastator uchun qulay sharoitlar tug‘ilsa rivojlanishi davom etadi. Natijada bu holat baliqlar uchun juda xavfli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Алламуратов.Б.1966.Паразиты рыб бассейна реки Сурхан-дарьи.Авторефарат.кан.дисс.,Киев.

2.Османов.С.О.1971.Паразиты рыб Узбекистана.ФАН. Ташкент.

3. Бауер. О.Н.1959. Экология паразитов пресноводных рыб. изд. ВНИИОРХ, т.XLIX/

JANUBIY OROLBUYI HUDUDIDA HASHORATLAR POPULYACIYASIGA ANTROPOGEN OMILLARNING TASIRI

J.D.Tajibaeva Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti

Janubiy Orolbo‘yi hududi ekologik jihatdan eng muammoli hududlardan biri hisoblanadi. Orol dengizining qurishi natijasida hududda keskin iqlimiy va ekologik o‘zgarishlar yuz berdi. Bu esa nafaqat o‘simlik va hayvonot dunyosiga, balki hashoratlar xilma-xilligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Suv resurslarining kamayishi, tuproq sho‘rlanishi, sanoat chiqindilari, pestitsid va gerbitsidlarning qo‘llanilishi, hamda urbanizatsiya. Hashoratlar ekotizimning muhim komponenti bo‘lib, ular changlatish, organik moddalarni parchalanishi va oziq zanjirida muhim rol o‘ynaydi. Biroq antropogen omillar ularning soni va xilma-xilligini kamaytiradi. Suv tanqisligi natijasida namlikka bog‘liq bo‘lgan ko‘plab hashorat turlari yo‘qolib bormoqda. Tuproq sho‘rlanishi esa faqat moslashgan turlarni saqlab qolmoqda. Pestitsidlar esa foydali hashoratlarni ham yo‘q qilmoqda. Natijalar. Hududda entomofaunaning kamayishi kuzatilmoqda. Bu esa o‘simliklarning changlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada biologik xilma-xillik kamayadi. Janubiy Orolbo‘yida hashoratlarni saqlab qolish uchun ekologik choralar ko‘rish zarur. Pestitsidlarni kamaytirish, tabiiy muhitni tiklash va monitoring ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Antropogen omillar hashoratlarga ekosistema ahvoli va strukturasini abiotik va biotik omillarni qamrab olgan holda o‘zgartirish, ya’ni mikroiqlimiy sharoitlarni, yashash muhit kimiyoviy tarkibini, hashoratlar oziqlanadigan o‘simliklar ahvolini, parazitlarning va yirtqichlarning turlik tarkibi va sonini va boshqa omillar orqali ta’sir ko‘ratishi mumkin. Bu ta’sirlar ontogenez jarayonida ham, ya’ni organik o‘zgarish darajasida, va populyatsiya-turlik va senotik darajada mavjud bo‘lishi mumkin. Hashoratlaring javob reaksiyalari organik o‘zgarish darajasida tananing kimiyoviy tarkibining o‘zgarishida va ifloslantiruvchi jismlarning to‘planishida, rivojlanish xarakteristikalarining o‘zgarishi (rivojlanish davomliligi, o‘numdorlik, metabolizmning har xil chetlashlar yoki o‘zgarishlar)da, qulqining rivojlanishi va o‘zgarishlarida anomaliyalarning yuzaga kelishida namoyon bo‘ladi. Populyatsiyaning genetik, fazaviy, yosh va jinsiy strukturasi populyatsiya-turlik darajasida o‘zgaradi, bu esa o‘rmon himoyasi uchun ayniqsa muhimdir, populyatsiya zichligi dinamikasi o‘zgaradi (Yaxontov, 1962: 23). Ayrim turlarning rivojlanish muddati qayta moslashtiriladi va trofik zanjirlar buziladi.

Ayniqsa ahamiyatli omil o‘rmon zararkunandalari uchun, ehtimol fitotsenozning strukturasining o‘zgarishi, o‘rmon daraxtlari majmuasining tur va yosh tarkibining va ayrim daraxtlarning antropogen omillar ta’siridagi ahvolining o‘zgarishidir. Bunday turdagi keskin o‘zgarishlar kesib tashlashlar, yong‘inlardan (yong‘inlarning 80% dan ochig‘i insonlar aybi bilan paydo bo‘ladi), xo‘jalik faoliyati jarayonida yer osti suvlarining sathi o‘zgarishidan keyin amalga oshadi. To‘proqning ifloslanishi va zichlanishi, havoning ifloslanishi va boshqa omillar o‘simliklarining bardoshligini hashoratlarning ko‘payishi uchun qulay muhitni yaratgan holda pasayishiga olib

keladi. Altay yog‘och qurtining yong‘inga chalingan kichik listvennitsa o‘rmonzorida, pixta yog‘och qurtining o‘rmon daraxtlari majmuasida – texnogen ta’sir ko‘rsatish zonasida, pustloqxo‘rlarning jadal rekreatsion yuklamalar bilan zararlangan qarag‘ayzorlarda ommaviy yoyilib ketishlari ma’lum. Boshqa tomondan, bunday ta’sir ko‘rsatishlar hashoratlar rivojlanishi uchun noqo‘lay bo‘lgan daraxt o‘simliklari tarkibida biokimyoviy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, havoning oltingugurt va ftorning birikmalari bilan kuchli sanoatlik ifloslanishida azot birikmalari va barglardagi qand miqdorini keskin kamaytiradi, bu esa ularni bargdan oziqlanuvchi hashoratlar uchun yaroqsiz xolga keltirib qo‘yadi. Yong‘inga chalingan o‘rmon daraxtlari majmuasining naycha(lub) lari pustloqxo‘r qo‘ng‘iz rivoji uchun yaroqsiz bo‘lgan holda zudlik bilan quriydi.

Sun’iy biotsenozlar, agroekosistemalar va o‘rmon ekosistemalari o‘rmon o‘simliklari hisobidan tuzilgan holda ularda qaysi bir o‘simlik bir turining, masalan, oddiy qarag‘ay yoki qoraqarag‘ayning keskin ustunlik qilishi bilan farqlanadi. Bunday ekosistemalarda fitotsenozning kambag‘allashishiga qaramay, murakkab, gohida yuzlab turlarni qamrab olgan balanslangan etnomokompleks shakllanadi. Ammo, zararkundalarning ko‘p turidan bittasining ustunlik qilishi haddan tashqari yuqori bo‘ladi.

Masalan, qarag‘ay daraxtlari arrakachlari, tillaqo‘ng‘izlar, uzuntumshiq, qarag‘ay odimshi qurti, qarag‘ay tunlamasi va boshqa zararkunandalarning ko‘payishi uchun qo‘lay joy hisoblanadi. Agrotsenozning bardoshligi uning bilan chegaradosh, yirtqichlar va parazitlarning komplekslariga boy va har xil bo‘lgan tabiiy ekosistemalar hisobidan orttirilish mumkin. Hashoratlarning populyatsion darajadagi javob reaksiyalari ba’zi, birinchi navbatda kimiyoviy ta’sirlarga moslashuvi bo‘ladi. Hasharotlarning ba’zi kimiyoviy insektitsidlarga bardoshli rasa yoki mikropopulyatsiyasining paydo bo‘lishi azaldan ma’lum. 1058-yilda hashoratlarning insonda kasallik qo‘zdiruvchilarni tashuvchi 27 turida, madaniy ekinlarni zararlovchi va urug‘ omborlarida saqlanuvchi boshqa ko‘pchilik hashoratlarda xlororganik, jumladan fosfororganik insektitsidlarga orttirilgan bordoshlik aniqlandi; bunda hashoratlar juda xilma-xil sistematik guruxlar: o‘simlik bitiga, sikadka, qandala, qo‘ng‘izlar, qo‘shqanotlarga, tangaqanotlarga mansub bo‘ldi. 1964-yilda endi hashorat va kanalarning 140 turida har xil inseksidlar va akaritsidlarga bardoshdik aniqlandi. Sintetik organik inseksidlarga nisbatan bardoshli populyatsiyalarning shakllanishi 10 – 20 avlod davomida, noragnik turlariga esa - 50 – 100 avlod davomida tugallanadi. So‘ngi yillarda sanoat chiqindalari, jumladan ftor birikmalari ta’siriga hashorattlarning moslashuvining yuzaga kelishi ham kuzatilmoqda. Masalan, Bratsk alyuminiy zavodi sanoat chiqindilari zonasida 20-yil davomida ularga bardoshli chidomli yog‘oya kuyasi Anacampsis populella shakllandi.

Ammo antropogen omillarning hashoratlarga ta’sirining populyatsiya-tur darajasidagi muhim aspektlaridan biri – hashoratlarning savdo aloqalarini o‘rnatishda transport vositalari va insonlarning harakatta bo‘lishlari orqali turlarning tarqalishi.

Yangi turlarning o‘zlarining tabiiy areallaridan tashqariga yoyilishi invaziya deyiladi. Ko‘pchilik hashoratlar bir joydan boshqa joyga daraxt o‘simliklarining nihollari va ko‘chatlarida, yirik o‘lchamli ekiladigan materiallarda, o‘simliklar tugunlari va ildizlarida, insonlar yuklari va kiyimlarida, transport vositalari – avtomobil, vagonlar, korabllarda olib o‘tilishi mumkin. Hashoratlarga antropogen ta’sirning misoli sifatida o‘simlik zararkunandalari etnomofaglari introduksiyasi va yangi iqlimga moslashishlarini ham ko’rsatish mumkin.

Masalan, AQSH da 1956-yilda boshqa davlatlardan zararkunanda hashoratlarning 500 ga yaqin 90 dan ko‘p turning soniga ta’sir ko‘rsatuvchi turlari tashib keltirildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yo‘lar bo‘yidagi insonlar tomonidan iste’mol qilingan suvdan qolgan idishlarga to‘planib, qaytib chiqolmasdan nobud bo‘lgan qung‘izlar soni idishlar ko‘lamiga qarab 75 donadan, 500 donagacha yetishi, bu turlarning tuxum qo‘ymasdan nobud bo‘lishi bu foydali hasharotlarning populyatsiyalarining haddan tashqari kamayib ketishiga olib keladi. Bunday tabiiy hududlarda insonlar tomonidan suvdan bo‘shagan idishlarni qopqog‘i ochiq holda belgilanmagan joyga tashlamaslik tavsiya qilinadi. Bu esa o‘z navbatida hududning landshaft va biologik xilma-xilligini saqlab qolishda va tabiatni boshqarishni optimallashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, hamma abiotik, tuproq – edafik faktorlar yaxshi bo‘lishiga qaramay agrobiotsenozlarda Carabidae larning lichinkalari zichligi ancha past. Aksincha, daladan tashqarida tuproq – edafik va abiotik omillar ,namlik past bo‘lishiga qaramay turlar zichligi ancha yuqori.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Vasilev V.P., Levshis I.Z. –«Vrediteli plodovix kultur» 2-ye izd. M. «Kolos», 1984.
2. Muxammadiyev B.Q. “Hasharotlar ekologiyasi va tur tarkibining sistematik tahlili” // Toshkent Davlat agrar universiteti. Tashkent, 2015 y. 95-98 s.
3. Yaxontov V.V. O‘rta Osiyo qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalari va ularga qarshi kurash. Toshkent, 1962 y. 27 s.
4. Jestkokrilie (tip Chlenistonogiye, klass Nasekomie) Almati, 2014 y.
5. Lopatin I.K. Zoogeografiya. Visheyshaya shkola, Minsk: ,1989.-336 s.

EKOLOGIK TARBIYA JARAYONIDA OILA VA JAMIYAT HAMKORLIGI

Tadjibaeva M. K – Biologiya kafedrasi docenti
Joldasbaev N - Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Bugungi kunda global ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, iqlim o‘zgarishi kabi jarayonlar inson faoliyati bilan uzviy bog’liq bo‘lib, ularni bartaraf etishda ekologik tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, yosh avlodni ekologik jihatdan ongli, mas’uliyatli va tabiatga mehr bilan qaraydigan shaxslar sifatida tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.Ekologik tarbiya – bu shaxsda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik bilim, ko‘nikma va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Mazkur jarayon samarali bo‘lishi uchun nafaqat ta’lim muassasalari, balki oila va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola shaxs sifatida shakllanish jarayonini avvalo oilada boshlaydi, keyinchalik esa jamiyat ta’siri ostida rivojlanadi.

Oila – ekologik tarbiyaning ilk va eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bola tabiatga bo’lgan dastlabki munosabatini aynan oila muhitida shakllantiradi. Ota-onaning ekologik madaniyati, kundalik hayotdagi odatlari, tabiatga bo‘lgan munosabati farzand tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli oilada ekologik tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish yoshlarning kelajakdagi ekologik qarashlari uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Jamiyat esa ekologik tarbiyaning keyingi bosqichini tashkil etadi. Ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tashkilotlar va keng jamoatchilik ekologik bilimlarni targ‘ib qilish, yoshlarni ekologik faoliyatga jalb etishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali ekologik tarbiyani keng ommaga yetkazish imkoniyatlari yanada ortib bormoqda.Ekologik tarbiya jarayonida oila va jamiyatning o‘zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu ikki muhit bir-birini to‘ldirgan holda yoshlarning ekologik ongini shakllantiradi. Agar oila va jamiyat o‘rtasida uzviylik ta’minlansa, ekologik tarbiya jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Aks holda esa yoshlarning ekologik qarashlarida uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Shu bois ekologik tarbiya jarayonida oila va jamiyat hamkorligini kuchaytirish, ularning faoliyatini uyg‘unlashtirish hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ekologik madaniyatli, mas’uliyatli va faol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Ekologik tarbiyada oilaning o‘rni va ahamiyati

Ekologik tarbiya jarayonida oila eng muhim va boshlang‘ich bo‘g‘in hisoblanadi. Chunki bola dunyoqarashi, qadriyatlari va odatlari avvalo oila muhitida shakllanadi. Ota-onaning tabiatga bo‘lgan munosabati, ekologik madaniyati va kundalik hayotdagi xatti-harakatlari farzand uchun namuna vazifasini bajaradi.Oilada ekologik tarbiya berish jarayonida bolalarga tabiatni sevish, uni asrash va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish tushunchalari singdiriladi. Masalan, suv va

elektr energiyasini tejash, chiqindilarni to‘g‘ri tashlash, o‘simlik va hayvonot olamiga g‘amxo‘rlik qilish kabi oddiy odatlar orqali bolalarda ekologik ong shakllanadi. Bu esa ularning kelajakdagi hayot tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, ota-onalarning ekologik savodxonligi ham muhim omil hisoblanadi. Agar ota-onalar ekologik jihatdan bilimli va ongli bo‘lsa, ular farzandlariga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladi. Shu bois oilada ekologik tarbiyani kuchaytirish uchun ota-onalarning ham bilim va madaniyatini oshirish zarur.

2. Jamiyatning ekologik tarbiyadagi roli

Jamiyat ekologik tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u yoshlarning ekologik dunyoqarashini shakllantirishda katta ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tashkilotlar va keng jamoatchilik ekologik bilimlarni targ‘ib qilishda faol ishtirok etadi.Ta’lim muassasalarida ekologik fanlar orqali yoshlarning nazariy bilimlari shakllantiriladi. Shu bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar, ekologik aksiyalar, ekskursiyalar va loyihalar orqali ularning bilimlari mustahkamlanadi. Bu esa yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ham ekologik tarbiyada muhim rol o‘ynaydi. Turli ko‘rsatuvlar, maqolalar, videoroliklar orqali ekologik muammolar yoritiladi va ularni hal etish yo‘llari targ‘ib qilinadi. Bu esa yoshlarning ekologik masalalarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shuningdek, turli jamoat tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladigan ekologik tadbirlar, aksiyalar va loyihalar yoshlarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu jarayon ularning ekologik madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

3. Oila va jamiyat hamkorligini tashkil etishning samarali yo‘llari

Ekologik tarbiya jarayonida oila va jamiyat hamkorligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Chunki bu ikki muhitning uyg‘unligi yoshlarning ekologik ongini yanada samarali shakllantirish imkonini beradi.Hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘llaridan biri – ota-onalar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdir. Maktab va bog‘chalarda o’tqaziladigan ekologik tadbirlarga ota-onalarni jalb qilish, seminar va uchrashuvlar tashkil etish bu borada ijobiy natija beradi.

Shuningdek, ekologik loyihalar va aksiyalarda oila va jamiyat vakillarining birgalikda ishtirok etishi ham muhimdir. Masalan, daraxt ekish, hududlarni obodonlashtirish, chiqindilarni saralash kabi tadbirlar yoshlar uchun amaliy tajriba vazifasini bajaradi.Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ham hamkorlikni kuchaytirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar orqali ekologik targ‘ibot ishlarini olib borish, ota-onalar va yoshlar o‘rtasida bilim almashish samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya jarayonida oila va jamiyat hamkorligi yoshlarning tabiatga ongli munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola shaxs sifatida shakllanish jarayonini avvalo oilada boshlaydi, keyinchalik esa jamiyat ta’siri ostida rivojlanadi. Shu bois ushbu ikki muhitning o‘zaro uyg‘unligi ekologik tarbiyaning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan

biri hisoblanadi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilada berilgan dastlabki ekologik bilim va odatlar jamiyatda mustahkamlanib boradi. Ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va jamoat tashkilotlari orqali olib boriladigan ekologik targ‘ibot ishlari esa yoshlarning ekologik savodxonligini yanada oshiradi. Natijada ularda tabiatga nisbatan mas’uliyatli va ongli yondashuv shakllanadi.

Shuningdek, oila va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ekologik tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Birgalikdagi ekologik tadbirlar, loyihalar va aksiyalar yoshlarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ekologik tarbiya jarayonida oila va jamiyatning uzviy hamkorligi ekologik madaniyatli, mas’uliyatli va faol yosh avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish va kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilov B.O. Ekologik ta’lim va tarbiya asoslari. Toshkent: Fan, 2016.
2. Nurmatov S.N. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
3. Yo‘ldoshev J.G. Pedagogika va ekologik tarbiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
4. Rasulov A.R. Ekologiya va barqaror rivojlanish asoslari. Toshkent: Innovatsiya, 2020.

XALIQTIŃ DEN SAWLIǴINA TÁSIR ETIWSHI TIYKARǴI FAKTORLAR HÁM OLARDIŃ DINAMIKASI

Tadjibaeva M. K – Biologiya kafedrası docenti, NMPI.
Kızılbaeva K.E – Biologiya qánigeligi talabası, NMPI.

Xalıqtıń densawlıǵı hár qanday mámlekettiń ómir suiwlik qádiriyatlar sistemasında bárqulla birinshi orınlardan birin ieleydi. Xalıqtıń densawlıǵın saqlaw hám keselleniwdi azaytıw, mámleket hám densawlıqtı saqlaw ministrliginiń aldında turǵan eń áhmiyetli sociallıq-ekonomikalıq wazıypalar bolıp, olardı sheshiwde kóplegen ilimlerdiń (ekologiya, medicina, demografiya, gigiena) tájiriybeleri qollanıladı.

Xalıqtıń keselleniwin qáliplestiriwshi tiykarǵı ekologiyalıq faktorlar qatarına hawanıń sapası, ishimlik suwınıń sapası, topıraq sapası, medicinalıq járdem sapası, sociallıq rawajlanıw dárejesi hám hawanıń turaqli dáreklerden pataslanıwı sıyaqlı sapa ólshemleri kórsetkishleri kirgizilgen.

Transport qurallarınan atmosfera hawası, sanitariyalıq hám ximiyalıq kórsetkishler boyınsha standart emes ishimlik suwı úlgileriniń úlesi, mikrobiologiyalıq kórsetkishler boyınsha standart emes ishimlik suwı úlgileriniń qatnası, topıraqtıń awır metallar menen pataslanıw koefficienti, topıraqtıń pataslanıw koefficienti radioizotoplar, mineral tóginlerdi engiziw, pesticidlerdiń kóbeyiwi, topıraqtıń degradaciyası, xalıqtı medicina xızmetkerleri menen támiyinlew, jumıssızlıq dárejesi, xalıqtı turaq jay menen támiyinlew, ortasha miynet haqınıń ózgeriwi (aymaqlıq hám mazmunı boyınsha), bularǵa salıstırǵanda "ekologiyalıq hám ekonomikalıq jaǵday jaǵdayı"nıń ajıralmas kórsetkishi bolıp tabıladı.

Jáhán densawlıqtı saqlaw shólkemi (JDSSh) tárepinen Qaraqalpaqstan xalqınıń joqarı dárejedegi keselleniw dárejesi, sonıń ishinde, kesellikler hám nozologiya klassları boyınsha sanitariyalıq-gigienalıq hám epidemiologiyalıq usıllar menen qatnaslardı jetilistiriw zárúrligi belgilenedi, aymaqtıń ózine tán ózgesheliklerin esapqa alǵan halda qorshaǵan ortalıq penen baylanıslı bolǵan kórsetkishler kirgizilgen.

Ruxsat etilgen tásir etiw dárejesin tiykarlaw ushın qáwipli faktorlardıń insan salamatlıǵına tásiriniń aspektlerin izbe-iz kórip shıǵıw menen baylanıslı algoritmler, usıllar hám kriteriyalardıń jeterli dárejede islep shıǵılmaǵanlıǵı, zıyanlı faktorlar dárejesin joq etiw yamasa azaytıw hám qadaǵalawdı optimallastırıw boyınsha basqarıw hám texnologiyalıq sheshimler tásir dárejeleri izertlewdiń áhmietliligin anıqlaydı hám usı jumıstıń maqseti hám wazıypaların belgilew ushın tiykar bolıp xızmet etedi.

Qaraqalpaqstan Respublikasında jasawshı xalıqtıń ulıwma keselleniwdiń dinamikasın esapqa alǵan halda, tiykarǵı maksimal kórsetkishler 2003-jıldan 2006-jılǵa shekem bolǵan dáwirge tuwra kelgenligin atap ótiw múmkin (4.1-súwret). Eń joqarı kórsetkish 2005-jılı erisilgen (1000 adamǵa 1053,1).

Izertlewshilerdiń pikirinshe, Qaraqalpaqstan Respublikasında keselliklerdiń ayırım nozologiyalıq formalarınıń dúzilisi hám dinamikasi kórsetkishlerdiń turaqlı ósip barıwı: tuwma anomaliyalar, júrek ishemik keselligi, gipertoniya, asqazan jarası, qızıl óńesh ragi, ót qaltası tası, sidik shiǵarıw sisteması kesellikleri, periferik nerv kesellikleri sisteması menen baylanıslı екенлиги дәлилленген.

Bizge belgili, dem alıw sisteması "shegara," yaǵnıy sırtqı ortalıq penen tikkeley baylanısta bolıp, birinshilerden bolıp sırtqı sharayattıń ózgeriwine - hawanıń bet qatlamınıń shańlanıwı, atmosferadaǵı ximiyalıq basımǵa juwap beredi. Denedegi ishimlik suwı hám azıq-awqat, bul insannıń beyimlesiw qábiletin tómenletedi.

Sońǵı jılları xalıq arasında keselleniw sanınıń kóbeyiwine tiykarǵı sebep Qaraqalpaqstanda hawa pataslanıwınıń joqarı dárejede bolıwı bolıp tabıladı. Qaraqalpaqstan Respublikasında atmosfera hawası hám ishimlik suwı sapasın qadaǵalaw sisteması xalıqtıń densawlıǵı ushın qáwipti bahalawdıń zamanagóy talaplarına jeterli dárejede juwap bermeydi, pataslanıwdıń insan organizmine tásir dárejesin anıqlaw zárúrligin tuwdıradı. Usı kóz-qarastan, Qaraqalpaqstan Respublikasınıń pútkil regionında hawanıń pataslanıwın, ishimlik suwın hám topıraqtı xalıqtıń densawlıǵı ushın qáwipti bahalaw kóz-qarasınan monitoring etiwdiń birden-bir sistemasın jaratıw zárúrligi payda boladı.

Aqshakól kóli hám onıń átirapındaġı suwlı-batpaqlı aymaqlar quslar ushın áhmietli jasaw, azıqlanıw, dem alıw hám ayırım túrler ushın uya qurıw ornı esaplanadı. Aymaqtıń gidrologiyalıq sharayatı, qamıslıq hám ashıq suw maydanlarınıń bar ekenligi, sonday-aq, shól hám delta landshaftları menen

tutasqanlıǵı bul jerde hár qıylı ekologiyalıq toparlarǵa tiyisli quslardıń ushırasıwına imkaniyat jaratadı.

Izertlewler tiykarında Aqshakól aymaǵı hám oǵan tutasqan biotoplarda quslardıń 92 túri anıqlanıp, olar 14 otryad hám 27 tuqımlasqa tiyisli ekenligi anıqlandı. Anıqlanǵan túrler quramı aymaqta, ásirese, suw hám suw aldı biotoplarına beyimlesken quslar ústin ekenligin kórsetedi. Bul jaǵday Aqshakól kóliniń kóshpeli hám yarım suw qusları ushın áhmietli ekologiyalıq áhmietke ie ekenligin tastıyıqlaydı.

Túrler sanı jaǵınan eń bay otryadlar qatarına Anseriformes, Charadriiformes, Passeriformes hám Accipitriformes kiredi. Shańaraqlar kesiminde eń úlken úles Anatidae shańarağına tuwra kelip, onıń 19 túri dizimge alındı. Sonday-aq, Scolopacidae tuqımlasına tiyisli 10 túr, Accipitridae tuqımlasına tiyisli 9 túr, Laridae tuqımlasına tiyisli 7 túr, Ardeidae tuqımlasına tiyisli 6 túr, Charadriidae tuqımlasına tiyisli 5 túr, Podicipedidae, Falconidae hám Corvidae tuqımlaslarına tiyisli 4 túrden anıqlandı. Rallidae tuqımlasınan 3 túr, Pelecanidae, Phalacrocoracidae, Meropidae hám Motacillidae tuqımlaslarınan 2 túrden, qalgan tuqımlaslardan bolsa 1 túrden ushirasıwı atap ótsek boladı.

Aymaq quslar faunasınıń fenologiyalıq quramı da hár qıylı bolıp, onda uya quriwshı, kóship júriwshi, qıslawshı hám jıl dawamında ushırasatuǵın túrler bar. Bul bolsa Aqshakól kóliniń tek migraciya dáwirindegi toqtaw ornı emes, al ayırım túrler ushın turaqlı yamasa máwsimlik jasaw ortalıǵı ekenligin kórsetedi.

Xalıqaralıq tábiyattı qorǵaw awqamı (IUCN) statusına bola, anıqlanǵan túrlerdiń tiykarǵı bólegi LC (Least Concern) kategoriyasına tiyisli. Sonıń menen birge, aymaqta qorǵawǵa mútáj bolǵan túrler de ushırasadı. Sonıń ishinde, Podiceps auritus, Aythya ferina hám basqa da ayırım túrler kúshsizlenip atırǵan yamasa qáwipke jaqın toparlarǵa kiredi, Oxyura leucocephala hám Aquila nipalensis sıyaqlı túrler bolsa qorǵaw kózqarasınan ayrıqsha itibardı talap etedi. Bul jaǵday Aqshakól aymaǵınıń quslar biokóptúrliligin saqlawdaǵı áhmietin jáne de arttıradı.

Aqshakól kóli hám onıń átirapında alıp barılǵan izertlewler nátiyjesinde quslardıń 14 otryadqa tiyisli ekenligi bolıp, jámi 92 túri anıqlandı. Tuwıslar kesiminde túrler sanınıń bólistiriliwi tegis emes bolıp, ayırım tuwıslar joqarı hár túrliligi menen ajıralıp turadı.

Eń kóp túr sanı boyınsha Charadriiformes otryadına tuwra kelip, ol 24 túrdi quraydı. Bul otryad wákilleri tiykarınan suwlı-batpaqlı aymaqlarǵa beyimlesken bolıp, Aqshakóldiń ekologiyalıq sharayatı olar ushın qolaylı jasaw ortalıǵın jaratadı. Keyingi orında Anseriformes otryadı 19 túr menen ajıralıp turadı, bul bolsa aymaqta suw qusları, ásirese úyrek hám ǵazlar keń tarqalǵanlıǵın kórsetedi.

Sonday-aq, Pelecaniformes hám Accipitriformes otryadlarına tiyisli 9 túrden anıqlanıp, olar sáykes túrde suwǵa jaqın jasawshı hám jırtqısh quslar toparın quraydı. Passeriformes otryadı 10 túr menen kórsetilip, tiykarınan qurǵaqlıq hám aralas biotoplarǵa tán túrlerdi óz ishine aladı.

Qalgan otryadlar, sonnan Podicipediformes (4 túr), Falconiformes (4 túr),

Gruiformes (4 túr) hám de Coraciiformes (3 túr) ortasha hár túrlilikke iye. Suliformes (2 túr) bolsa azıraq túrler menen belgilengen. Eń az túr sanı Galliformes, Cuculiformes, Caprimulgiformes hám Bucerotiformes otryadlarına tuwra kelip, olardıń hár biri tek ǵana 1 túr menen dizimge alındı.

1-keste

Aqshakól kóli aymaǵında quslar faunasınıń otryadlar boyınsha bólistiriliwi

№	Otryad (Ordo)	Tur soni
1	Podicipediformes	4
2	Pelecaniformes	9
3	Suliformes	2
4	Anseriformes	19
5	Accipitriformes	9
6	Falconiformes	4
7	Galliformes	1
8	Gruiformes	4
9	Charadriiformes	24
10	Cuculiformes	1
11	Caprimulgiformes	1
12	Coraciiformes	3
13	Bucerotiformes	1
14	Passeriformes	10
	Jami	**92**

Ulıwma alǵanda, alınǵan nátiyjeler Aqshakól kóli aymaǵı tek ǵana keń tarqalǵan qus túrleri ushın emes, al qorǵawǵa mútáj hám siyrek ushırasatuǵın túrler ushın da áhmietli ekologiyalıq áhmietke ie ekenligin kórsetedi. Sonlıqtan bul aymaqta biologiyalıq kóp túrlilikti saqlaw hám ásirese, siyrek ushırasatuǵın túrlerdi qorǵawǵa qaratılǵan ilimiy-ámeliy ilajlardı kúsheytiw zárúr bolıp esaplanadı.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Аметов М. Птицы Каракалпакии и их охрана. – Нукус: Каракалпакстан, 1981. – 138 с.
2. Красная книга Республики Узбекистан. Животные. - Ташкент, 2019. Том 2. - 377 с.
3. Митропольский О.В., Митропольский М.Г. Список птиц Узбекистана. – Ташкент, 2009. - 18 с.
4. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. Qaraqalpaqstannıń haywanat dunyası. – Nókis, 2020. - 640 b.

KISHI MEKTEP JASINDAĠI BALALRDIŃ DEN SAWLIQ JAĠDAYIN BAHALAW

Ubbiniyazova J.K. – docent w.w.a., Duysenbaeva B.O. – magistrant
Ájiniyaz atındaġı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı, Nókis q.
Qaraqalpaqstan. j.ubbiniyazova@ndpi.uz

Oqıwdıń házirgi zamanzgóy sharayatlarında jańa mektep baġdarlamaları hám oqıw processiniń intensivleniwi oqıwshılardıń nerv-psixikalıq rawajlanıwına hám densawlıġına joqarı talaplar qoyadı. Mektep oqıwshılarınıń nerv sisteması burın ushıraspaġan hár qıylı tásirlerge ushıraydı. Urbanizaciya, informaciyalıq partlanıw, háreket aktivliginiń shekleniwi, rejim waqıtlarınıń buzılıwı, jalġız balalı yamasa tolıq emes shańaraq sharayatında, jaġdayı jaqsı bolmaġan shańaraqta tárbiyalanıw (ata-analarınıń ishiwshiligi hám alkogolizmi) hám t.b. sıyaqlı faktorlar mektep oqıwshılarınıń den sawlıġına tásir etpey qalmaydı [1, Афанасенко, 2000; 37].

Sońġı on jıllıqta pediatrlar, gigienistler, antropologlar fizikalıq rawajlanıwdıń hám densawlıqtıń basqa kriteriyalarınıń, háreket tayarlıġınıń ásirese keskin tómenlewin úlken qáweter menen atap ótpekte. Bilimlendiriw mákemelerinde oqıp atırġan balalar hám jas óspirimlerdiń den sawlıġı jaġdayınıń qanaatlandırarsız kórsetkishleri házirgi kúnniń aktual mashqalası bolıp esaplanadı. Rásmiy statistika maġlıwmatları balalar - óspirimler populyaciyasında psixikalıq patologiyanıń ádewir tarqalġanlıġın hám psixiatr baqlawında turġan adamlar sanınıń ádewir óskenligin kórsetedi [Ахутина, 1998; 18].

Ilimiy ádebiyatlara mektep oqıwshılarındaġı nerv buzılıwlarınıń tarqalıwı 3 procentten 47 procentke shekem bahalanadı. Bunday keń diapazon nerv-psixikalıq salamatlıqtı bahalawdıń hár qıylı kriteriyaları, awıratuġın hám awırmaytuġın nerv kórinisleriniń aralasıwı menen tusindiriledi. Awırıwlı buzılıw degende organizmniń sonday jaġdayı túsiniledi, bunda bárinen burın sociallıq funkciyalardı tolıq orınlaw qábileti joġaladı. Mektep oqıwshılarına salıstırġanda bul - tolıq oqıw, teńlesleri menen doslasıw imkaniyatınıń joq ekenligin bildiredi. Derlik deni saw balalar sanınıń barġan sayın azayıp barıwı, xronik patologiyadan azap shegetuġın hám mayıp balalar ağımınıń barġan sayın artıp barıwı búgingi kúnde kóplegen izertlewshiler tárepinen Ózbekstan Respublikasınıń milliy stragediyası sıpatında qaralmaqta. Mektep ishindegi ortalıqtıń oqıwshılardıń densawlıġına tásiriniń haqıyqıy joqarı áhmieti múnásibeti menen «mektep kesellikleri» ataması barġan sayın kóbirek aytılıp atır. Oqıw processiniń intensivleniwi oqıwdıń qolaysız sanitariyalıq-gigienalıq sharayatları, tolıq emes awqatlanıwı balalardıń kópshilik bólegi turaqlı xronikalıq patologiyanıń qálipleskenliginen derek beredi [Бабенкова, 2004; 76].

Den sawlıq jaġdayın kompleksli bahalaw balanıń fizikalıq hám nerv-psixikalıq rawajlanıwınıń dárejelerin hám úylesimliligin, organizmniń unamsız faktorlarġa qarsılıq kórsetiw dárejesin, organizmniń tiykarġı sistemalarınıń funkcionallıq jaġdayın, xronik keselliklerdiń bar yamasa joqlıġın (sonıń ishinde tuwılma patologiyasın) bahalawdan ibarat boladı. Bizge belgili, ómirdi támiyinlewshi júrek-

qan tamır sistemasınıń funkcional jaǵdayınıń kórsetkishleri júdá sezgir, joqarı maǵlıwmatlı, balalar hám úlkenlerde endogen hám ekzogen faktorlar tásirinde olardıń ózgeriwin jazıp alıw ushın qolaylı, anıq bilinip turadı. Balalardaǵı sistolik (SAB), diastolik (DAB) qan basımı násillikten basqa olardıń boyı hám salmaǵı, skelet bulshıq etleriniń rawajlanıw dárejesi, oqıw hám fizikalıq júklemeler, shańaraqtaǵı, bilimlendiriw kollektivindegi psixologiyalıq ortalıq penen baylanıslı [Васильева, 1999; 46].

Den sawlıǵınıń jaǵdayına, fizikalıq rawajlanıwına, ulıwma fizikalıq tayarlıq hám shınıǵıw dárejesine muwapıq balalar úsh toparǵa bólinedi: tiykarǵı, tayarlıq hám arnawlı.

Tiykarǵı toparǵa I densawlıq toparı, sonday-aq II toparı kiredi (bar bolǵan kesellik fizikalıq rawajlanıwına aytarlıqtay sheklewler qoyılmaǵan jaǵdaylarda). Birinshi toparǵa den sawlıǵı hám fizikalıq rawajlanıwında ózgerisleri bolmaǵan, funkcional jaǵdayı jaqsı hám jasına sáykes fizikalıq tayarlıǵı bar mektep oqıwshıları, soday-aq az muǵdarda (kóbinese funkcional) ózgerisleri bar oqıwshılar orın iyeleydi. Tiykarǵı toparǵa 8 jastaǵı balalardıń 68,0%, 9 jastaǵı balalardıń 69,7% kiredi. Tayarlıq toparǵa fizikalıq rawajlanıwında artta qalıwshılıǵı bar; fizikalıq tayarlıǵı jetkilikli bolmaǵan; den sawlıǵı jaǵdayında azı-kem ózgerisleri bar II topardı deni saw balalar kiredi. Bunday balalar 8 jaslı hám 9 jaslılar arasında 32,0% hám 30,3% ti quraydı.

Bunda birinshi orındı skelet - bulshıq et sisteması tárepinen keselliklengen balalar (qáddi-qáwmettiń buzılıwı, ayaq tabanınıń jalpaqlasıwı, ótkerilgen raxittıń aqıbetleri) ieleydi. Ekinshi orında qan aylanıw sisteması tárepinen kesellikleri bar balalar (sistolikalıq shawqım, júrek ritminiń buzılıwı, gipotoniyaǵa beyimlilik) turadı. Mektep oqıwshılarınıń úshten bir bóleginde kóriw organları hám qulaq-tamaq organları tárepinen buzılıwlar dizimge alınadı. Nerv-psixikalıq salamatlıqtıń buzılıwınıń tarqalıwınıń unamsız ósiw tendenciyaları, sonday-aq, allergiyalıq patologiyanıń sezilerli dárejede artıwı atap ótiw lazım.

Densawlıqtıń tiykarları omirdiń eń birinshi dáwirlerinde – ana qarnındaǵı rawajlanıw waqtında hám bala ómiriniń birinshi jıllarında salınadı hám kóplegen tárepten ata-analardıń, birinshi gezekte ananıń densawlıǵına tikkeley baylanıslı boladı. Biziń baqlawlarımız boyınsha analardaǵı hámledarlıqtıń patologiyası 22,0 - 28,0% jaǵdaylarda, yaǵnıy hár tórtten birinde; tuwıw jaraqatları hám tuwıwdaǵı basqa da asqınıwlar - 20,0% inde ushırasatuǵını anıqlandı.

Solay etip, qolaylı ortalıq tásirleri balanıń nerv-psixikalıq sanasınıń normal rawajlanıwın ámelge asırıwdıń zárúrli shárti bolıp esaplanadı. Balalıq jasındaǵı emocionallıq abadanlıqtıń tiykarǵı buzılıwlarınıń biri - bul affektiv buzılıwlar hám, eń aldı menen - tınıshsızlanıw hám qorqıw bolıp esaplanadı. Qáweterleniw balalardıń beyimlesiw dárejesine úlken tásir kórsetedi. Tınıshsızlanıwdıń joqarı dárejesi mektep oqıwshılarınıń stresslik tásirlerge kóbirek sezgirligin hám unamsız keshirmelerdiń kóbirek sozılıwın támiyinleydi, bul óz gezeginde vegetativlik jılјıwlardıń sozılıwında sáwlelenedi. Bul jerde shańaraqtaǵı tárbiyanıń principleri de úlken áhmiyetke iye.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

1. Афанасенко Г.Л. Медицинская валеология / Г.Л. Афанасенко, Л.А. Попова // Серия «Гиппократ». - Ростов на Дону.: Феникс, 2000. - 248 с.
2. Ахутина Т.В. Здоровьесберегающие технологии обучения, индивидуальный подход // Школа здоровья. - № 2. - с. 21 -24.
3. Бабенкова Е.А. Как помочь детям стать здоровыми. / Е.А. Бабенкова. - М.: Изд-во "АСТ" Астрель, 2004. - 206 с.
4. Васильева О.С. Здоровый образ жизни — стереотипные представления и реальная ситуация / О.С.Васильева, Е.В. Журавлева // Школа здоровья. - 1999. - №2. - С. 26-29.

QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA ASALARI OILASINI SAQLASH VA ULARNI MAVSUMIY RIVOJLANTIRISH

E.Xojabergenov-magistrant, I.Saparniyazov-dotsent
Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi

Bugungi kunda barcha sohalarda kimyoviy vositalardan foydalanib kelinmoqda xususan, zararkunandalarga qarshi kurashishda ham. Bunday sharoitda agrosenozlardan mo‘l hosil olish uchun asosan, o‘zidan changlanadigan navlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Boshqa o‘simliklar uchun baribir hasharotlar yordamga keladi. Ana shunday sharoitlarda asalari oilasini saqlash va undan ko‘zlangan asal mahsulotlarini olish bo‘yicha dunyoda juda ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Dunyo bo‘yicha bugungi kunda asal yetishtiruvchi davlatlar Xitoy (42,3%), Turkiya (9,5%), Argentina (9,3%), Ukraina (8,5%), AQSh (7,5%), Meksika (7,1%), Germaniya (6,2%), Kanada (5,1%), Hindiston (3,5%), O‘zbekiston (0,86%) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu davlatlar asal yetishtirish bilan bir vaqtda asal mahsulotlarini import qiluvchilar qatorida ham mavjud. Asalari oilasini saqlash va undan mahsulot olish bugungi kunda mashaqqatli mehnatni talab qilmoqda. Zararkunandalarga qarshi kurashda kimyoviy vositalardan foydalanish oqibatida asalari oilasini saqlash va ushbu sharoitlarda asal mahsuldorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan ishlanmalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda asalari oilasini saqlash va mahsuldorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalardan foydalanish hamda asal mahsulotlarini ko‘proq yig‘uvchi asalari zotlarini seleksiya qilishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Shuningdek, iqlimning global o‘zgarishi sharoitida, qurg‘oqchilik va suv tanqisligi kuzatilayotgan davrda fitosenozlarning soni hamda tarkibi kamayib borayotgan bir vaqtda asalari oilasini saqlash va uning asal mahsuldorligini oshirish sohadagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada, respublikamizning iqlim sharoiti boshqa mintaqalarga nisbatan noqulay bo‘lgan shimoliy mintaqasi Qoraqalpog‘istonning keskin kontinental iqlim sharoitida asalari oilasini saqlash va asal mahsuldorlini oshirishda fitosenozlarning ahamiyatini o‘rganish hamda ilmiy asoslash maqsadida tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, shu jumladan, sifatli asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar qabul qilindi. Shunga mos ravishda ayni paytda mintaqamizda 900 mingdan ziyod asalari oilasi mavjud bo‘lib, ulardan yillar hisobida 21,4 ming tonnadan ziyod asal ishlab chiqarildi.

Qoraqalpog‘iston sharoitida boshqa viloyatdagilarga qaraganda asalari oilasi bahorda kechroq rivojlanib boshlaydi. Sababi, viloyatlarga qaraganda issiq kunlar ancha kech boshlanadi. Kuzda esa aksincha, salqin kunlar ertaroq kirib keladi va qishlashga ertaroq ketadi. Shuning uchun ham Qoraqalpog‘iston sharoitida asalari oilasini qishlashga yuborishda ozuqa zahirasiga alohida e’tibor qaratiladi. Erta bahorda asalari oilasi ilk parvozini amalga oshirgandan keyin yana salqin kunlar boshlanib qoladi, ana shu paytda asalarilar to‘planib qolgan joyda ozuqasi bo‘liishi

kerak. Agarda ozuqa yo‘q joyda to‘planib qolsa, ushbu asalari oilasi kuchsizlanib qoladi, hattoki, nobud bo‘lishi ham mumkin. Shunday vaziyatlarda nazoratni kuchaytirish kerak, asalari oilasi mumkin qadar ramkalarini qisqartirib, uyaning isishini ta’minlash kerak. Ushbu vazifalar bajarilganda asta-sekinlik bilan ona asalari tuxum qo‘yib boshlaydi. Ulardan yosh arilar chiqqandan keyin asalari oilasi progressiv rivojlanishi boshlanadi. Qishlab chiqqan asalarilar birin-ketin nobud bo‘lib o‘rnini yosh asalarilar egallaydi. Aprel oxiri va may oyining dastlabki kunlarida salqin kunlar bo‘lib, uzoq davom etsa ularga qo‘shimcha kam miqdorda asal aralashmasidan tayyorlangan ozuqa berish zarur. Bunda yosh lichinkalarni saqlab qolish imkoni tug‘iladi.

Shunday qilib Qoraqalpog‘iston sharoitida asalari oilasini saqlash boshqa viloyatlarga qaraganda murakkab va qiyinchiliklarga ega. Erta bahorda kech rivojlanishi hamda kuzda qishlashga ertaroq ketishi asal mahsuldorligining mintaqamizning janubi va sharqida joylashgan viloyatlarga qaraganda sezilarli darajada kam bo‘lishiga olib keladi. Biz tadqiqotlarimizda Karnika va Bakfast zotlari rivojlanishi hamda asal mahsuldorligi bo‘yicha kuzatganimizda Karnika zotli asalarilarning asal mahsuldorligi yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Б.А.Қаҳраманов, Ф.Э.Сафарова, С.И.Исамухаммедов, Х.А.Донаев, Х.Б.Эргашев. Асаларичилик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент-2021, 214 бет.

2.B.A.Qahramonov, A.I.Isamuhamedov, U.Sh.Ballasov, S.Sh.Isamuhamedov, O.S.To’rayev. Asalarichilik. Kasb-hunar kollejlar uchun o’quv qo’llanma. T.: Iqtisod moliya, 2016, -124 bet.

3. Е.Хожабергенов, И.Сапарниязов. Карника зотли асалари оиласининг ривожланишида фитоценозларнинг аҳамияти. «ТАБИИЙ ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ» мавзусидаги VI-халқаро илмий-назарий анжуман материаллари тўплами 21 май, 2025 й.

MIRIDAE OILASI QANDALALARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyeva Ma'rifat Osimjonovna
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
hudoyberdieva86@mail.ru
Elmurodova Muhayyo Valiqul qizi
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
Obodova Dildora Sevarqul qizi
Turon Universiteti, Tibbiyot fakulteti, magistr

Kirish. Hozirgi vaqtda Yarimqattiqqanotli hasharotlarning dunyo faunasida 8 ta kenja oila (*Bryocorinae, Cylapinae, Deraeocorinae, Mirinae, Orthotylinae, Phylinae, Psallopinae, Isometopinae*) 1300 ta avlodga mansub 11130 dan ortiq turlari borligi aniqlangan [Kerzhner I. M. & Josifov M., 1999] .

Markaziy Osiyo mamlakatlari, hususan O'zbekistonda qandalalarning 32 oilaga mansub 1250 dan ortiq turi ma'lum bo'lib, Miridae oilasi qandalari 119 avlodga mansub 400 ga yaqin turni o'z ichiga oladi [Kirichenko A.N. , 1951; Yesenbekova P.A., 2013].

Yarimqattiqqanotli hasharotlar orasida so'qir qandalalar oilasiga mansub turlari nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo biotsenozlarida va qishloq ho'jaligida ahamiyati bo'yicha alohida o'ringa ega. Tadqiqotlarimizda so'qir qandalalarning hayot shakllari, oziqaga ixtisoslashishi, asosiy dominant turlarining fenologiyasi, tarqalishi kabi ekologik xususiyatlari bo'yicha tadqiqot materiallari haqida ma'lum otlar keltirilgan.

Farg'ona vodiysi sharoitida tarqalgan Miridae oilasi qandalalarining hayotiy shakllarini guruhlashtirib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Yarimqattiqqanotlilarning hayotiy shaklini guruhlashtirishda Kirichenko [Kirichenko A.N. , 1951; Kirichenko A.N., 1964] va Kerjner [Kerzhner I .M., 1962] lar taklif qilgan uslubga asoslangan holda o'rganildi. Yarimqattiqqanotli hasharotlar hayot shakliga ko'ra 11 ta guruhga (dendrobiontlar, dendro-tamno-xortobiontlar, tamnobiontlar, xortobiontlar, gerpeto-xortobiontlar, geo-gerpetobiontlar, epigeobiontlar, evribiontlar, godrobiontlar, ektoparazitlar) ajratib o'rganiladi [Yesenbekova P.A., 2013].

Material va metodika. Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish uchun 2021-2025 yillar mobaynida Farg'ona vodiysining Namangan viloyati (Pop, Chust, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on, Mingbuloq tumanlari), Farg'ona viloyati (Yozyovon, Qo'shtepa, Oltiariq, Rishton, Bag'dod, Buvayda, Uchko'prik, Dang'ara tumanlari) va Andijon (Ulug'nor, Bo'z tumanlari) viloyatining tog' va tog'oldi, cho'l hududlaridan, qishloq xo'jalik agrobiotsenozlaridan, fermer xo'jaliklardan hamda tomorqa xo'jaliklaridan hasharot namunalari yig'ildi. Namunalar asosan, mart oyidan dekabr oyiga qadar, shuningdek ma'lum qismi esa fevral oyida yig'ilib, tadqiqot ishlari davomida 1,5 mingdan ortiq hasharot

namunalari yig‘ildi va o‘rganildi.

Hasharotlarni kuzatish ishlari butun vegetatsiya davomida doimiy kuzatish joylarida har 7-10 kunda, marshrutlarda esa, oyiga 2-3 martadan amalga oshirildi.

Hasharot namunalarini yig‘ish yuzasidan tadqiqot ishlari umumentomologik uslublar va turkumlar uchun ishlab chiqilgan uslublardan foydalanilgan holda amalga oshirildi [Golub V.B va boshqalar, 2012].

Olingan natijalar. Farg‘ona vodiysining tadqiqot olib borilgan hududlarida fauna tarkibi kenja oilalar, tribalar, avlodlar va turlar soni bo‘yicha taqsimlanishi o‘rganildi. Natijada, *Bryocorinae* kenja oilasining 1ta triba 1 avlodga mansub 1 turi, *Deraeocorinae* kenja oilasining 1ta triba 1 avlodga mansub 4 turi, *Mirinae* kenja oilasining 2 ta triba 13 avlodga mansub 25 turi, *Orthotylinae* kenja oilasining 2 ta triba 5 avlodga mansub 8 turi va *Phylinae* k yenja oilasining esa 3 ta triba 7 avlodga mansub 11 turi tadqiqot olib borilgan hududlarda tarqalganligi aniqlandi .

Farg‘ona vodiysi sharoitida tarqalgan Miridae oilasi qandalalari hayot shakliga ko‘ra 5 ta asosiy va 2 ta oraliq guruhga mansub ekanligi aniqlandi.

1. Xortobiontlar - o‘t o‘simliklar qoplamida yashashga moslashgan turlar:

a) ikki urug‘pallali o‘simlik xortobiontlari-ikki urug‘pallali o‘simliklar qoplamida yashashga moslashgan turlar. Ularga Macrolophus pygmaeus, Deraeocoris punctulatus, Deraeocoris serenus, D.rutilus, Adelphocoris lineolatus, A.seticornis, Brachycoleus decolor, Creontiades pallidus, Lygus pratensis, L. gemellatus, L. punctatus, Orthops kalmi,O.pilosulus, Polymerus cognatus, P.brevicornis, P. unifasciotus, P. vulneratus, Phytocoris turkestanicus, P. undulates, Myrmecorisgracilis, Myrmecophyes alboornatus, Orthocephalus coreaceus, Globiceps flavomaculatus, Orthotylus turanicus, O.flavosparsus, Atomoscelis onusta, Asciodema obsoleta, Plagiognathus chrysantemi, Plagiognathus bipunctatus, Campylomma verbasci, C.diversicorne, Chlamydatus pullus turlari kiradi. Bu guruhga 32 tur mansub bo‘lib, Farg‘ona vodiysi Miridae oilasi qandalalari faunasining 64 % ini tashkil qiladi.

b) boshoqli o‘simlik xortobiontlari-bir urug‘pallali o‘simliklar qoplamida yashashga moslashgan turlar. Ularga *Notostira elongata, N. erratica, Stenodema calcarata, S. laevigata, S. turanica, Trigonotylus ruficornis, T. pulchellus, Chlamydatus wilkinsoni* turlari mansub bo‘lib, o‘rganilgan hudud faunasining 16 % (8 tur) ini tashkil etadi.

2. Dendrobiontlar-daraxt o‘simliklarda yashashga moslashgan turlar. Ular *Agnocoris rubicundus, Orthotylus oshanini* turlaridan iborat bo‘lib, 4 % (2 tur) ini tashkil etadi.

3. Tamnobiontlar- butazorlarda yashashga moslashgan turlar. Bu guruhga Tuponia elegans, T. roseipennis, Pilophorus sinuaticollis turlari mansub bo‘lib, umumiy turlarning 6 % (3 tur) iga teng.

4. Tamno-xortobiontlar-buta va o‘t o‘simliklarda yashashga moslashgan turlar. Bu guruhga Halticus pusillus, H. apterus, Eurystylus bellevoyei turlari mansub bo‘lib, ular umumiy turlar ichida 6 % (3 tur) ni tashkil etadi.

5. Dendro-tamno-xortobiontlar-daraxt, buta va o‘t o‘simliklarda yashashga moslashgan turlar. Bu guruhga faqat birgina *Deraeocoris ruber* turi mansub bo‘lib, umumiy turlarning 2 % ini tashkil etadi.

Farg‘ona vodiysi sharoitida tarqalgan Miridae oilasi qandalalarining aksariyat turlari o‘t o‘simliklar qoplamida yashovchi (fitofil) hasharotlar hisoblanib, tadqiqotlarimiz natijasida aniqlangan 49 tur qandalalarning 80% (40 tur) ini xortobiont turlar tashkil etdi. Qolgan 20% (9 tur) ini esa, dendrobiont (4%), tamnobiont (6%), tamno-xortobiont (6%) va dendro-tamno-xortobiontlar (2%) tashkil etdi.

Xulosa. Farg‘ona vodiysida tarqalgan Miridae oilasi qandalalarining faunasi kenja oila, triba, avlod va turlar bo‘yicha xilma-xil ekanligi aniqlandi. Eng ko‘p turlar Mirinae kenja oilasiga to‘g‘ri kelib, qolgan kenja oilalar nisbatan kam turlar bilan ifodalandi. Hayot shakliga ko‘ra esa qandalalar 5 ta asosiy va 2 ta oraliq guruhga ajratilib, ular orasida xortobiontlar mutlaq ustunlik qildi. Jami aniqlangan turlarning 80 % ini o‘t o‘simliklar qoplamida yashovchi xortobiontlar tashkil etdi, qolgan qismi esa dendrobiont, tamnobiont va aralash guruhlarga mansub bo‘ldi. Bu natijalar Farg‘ona vodiysi sharoitida Miridae oilasi vakillarining asosan o‘t o‘simliklar bilan bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kerzhner I. M. &JosifovM. Miridae . Pp. 1-577. In: Aukema B. & Rieger Ch. (eds.): *Catalogue of the HeteropteraofthePalaearctic Region. Cimicomorpha II. Vol. 3.* The Netherlands Entomological Society. Amsterdam, 1999. - 577 pp.

2. Kirichenko A.N. NastoyashiyepolujestkokrilieYevropeyskoychasti SSSR. M. L., Izd - vo AN SSSR, M., 1951. - 423 b.

3. Yesenbekova P.A. Polujestkokrilix(Heteroptera)Kazakistana. -Almata, 2013. - 349 b.

4. Kirichenko A.N. Polujestkokrilix(Hemiptera: Heteroptera)Tadjikistana. - Dushanbe, 1964. - 259 b.

5. Kerzhner I .M. Materials on the taxonomy of capsid bugs (Hemiptera, Miridae) in the fauna of the USSR. Russian , 1962. -105pp.

6. Golub V.B., Surikov M.N., Prokin A.A. Kolleksii nasekomix : sbor, obrobotka i xraneniye materiala. Moskva , 2012. - 339 b.

QASHQADARYO VILOYATI HUDUDIDA TARQALGAN QALQONDOR QANDALALAR (HETEROPTERA: PENTATOMIDAE) FAUNASI

Xudoyberdiyeva Ma'rifat Osimjonovna
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
hudoyberdieva86@mail.ru
Samadova Fotima Rajabovna
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
Yusupova Shoxista Maxmanazarovna
Turon Universiteti, Tibbiyot fakulteti, magistr

Kirish. Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bugungi kunda ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonida zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish chora-tadbirlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Haqiqiy qalqonli qandalalarning ko‘pchiligi zararkunanda sifatida qaralsa-da, ular orasida zararkunanda hasharotlarni yo‘q qilib, foyda keltiradigan turlari ham mavjud bo‘lib, ularga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, agrobiotsenozlarda tarqalgan qalqonli qandalalarning zararli va foydali turlarining bioekologiyasini hamda o‘simliklar bilan trofik munosabatlarini o‘rganish asosida biologik va kimyoviy kurash usullarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda dunyo faunasida yarimqqatiqqanotlilarning 89 oilaga mansub, 5800 avlod 42000 ortiq turlar i mavjud. Qalqonli qan dalalar (Pentatomidae) Hemiptera turkumining eng katta oilasidan biri bo‘lib, hozirgi kunda bu oilaning 800 ga yaqin avlod va 5000 dan ortiq tur i fanga ma’lum [R.T. Schuh and J.A. Slater, 1995]. Qalqonli qandalalar butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan bo‘lib , ularni asosan tr opik mintaqalarda ko‘plab uchratish mumkin.

A.P.Fedchenko, O.A.Fedchenko , V.F.Oshanin, A.G.Regelya, V.F.Russova, P.P.Semenovlar, va A.P.Semenovlar kabi yetakchi zoolog olimlar Farg‘ona vodiysi, Turkiston tizma tog‘laridan Oloy tizma tog‘lari va Oloy vodiysigacha bo‘lgan tog‘ mintaqasi bo‘ylab keng qamrovli marshrut tadqiqotlari amalga oshirilgan. Ekspeditsiyalar davomida Markaziy Osiyoda tarqalgan qandalalarning 384 turi va ularning zoogeografiyasi o‘rganilgan [Oshanin V.F., 1891].

P.A.Yesenbekova Qozog‘istonda tarqalgan qandalalar faunasini tadqiq etib, 2013 yilda "Polujestkokrilie (Heteroptera) Kazaxstana" nomli monografiyani nashr etgan. Bu monografiyada Qozog‘istonda tarqalgan 35 oila, 411 avlodga mansub 1250 tur qandala haqida ma’lumotlar berilgan [Yesenbekova P.A., 2010].

O‘zbekistonda V.V. Yaxontov shimoliy O‘zbekiston beda agrobiotsenozida 32 tur qandalani aniqlab, ularni dominant, foydali va zararli turlari borasida ma’lumotlar keltirgan [Yaxontov V.V., 1962;Yaxontov V.V va boshqalar, 1962].

L.A.Gandjayeva (2021) olib borgan ilmiy izlanishlarida Quyi Amudaryo hududida tarqalgan 17 oila 89 avlodga mansub 149 tur qandalalarni aniqlagan. Bunda qalqonlili qandalalar oilasiga mansub 28 tur kiritilgan [Gandjayeva L.A., 2021].

Material va metodika . Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish uchun 2025-2026 yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jalik agrobiotsenozlaridan, fermer xo‘jaliklardan hamda tomorqa xo‘jaliklaridan hasharot namunalari yig‘ildiva o‘rganildi.

Hasharot namunalarini yig‘ish yuzasidan tadqiqot ishlari umumentomologik uslublar va turkumlar uchun ishlab chiqilgan uslublardan foydalanilgan h olda amalga oshirildi [Golub V.B va boshqalar, 2012].

Olingan natijalar. Olingan ma’lumotlar statistik usullar asosida umumlashtirildi. Yarimqattiqqanotsimonlarning umumiy taksonomik strukturasi quyidagicha ifodalangan.

Bo‘g‘imoyoqlilar-Arthropoda tipi (Latreille, 1829)

Hasharotlar - Insecta (Linnaeus, 1758)

Yarimqattiqqanotsimonlar - Hemiptera bosh turkum (Linnaeus, 1758)

Qandalalar - Heteroptera kenja turkum (Latreille, 1810)

Kattaoila- Pentatomoidea(Leach, 1815)

Oila -Pentatomidae (Leach 1815)

Kenjaoila -Pentatominae(Leach, 1815)

Triba - Halyini (Amyot&Audinet-Serville, 1843)

Avlod -*Apodiphus*Spinola, 1837

1.*Apodiphusintegriceps* Horvath, 1888. Tarqalishi: Markaziy Osiyo (Qozog‘istoning Osiyo qismi), Eron, Qirg‘iston, Tajikistan, Turkmaniston, O‘zbekistan); Indo-Malayska - Hind yarim oroli (Hindiston, Pokiston); Yamanda qayd qilingan lekin Saudiya Arabistonda uchramagan [Ghahari H, Moulet P, Rider D. A., 2014].

Triba - *Pentatomini*Leach, 1815

Avlod - *Aelia*J.C.Fabricius, 1803

2.*Aelia acuminata* (Linnaeus, 1758). Tarqalishi : G‘arbiy , Markaziy , Sharqiy Yevropada uchraydi ; G‘arbiy va Markaziy Osiyo ; Ukrainaning ko‘p qismida , O‘rta va Quyi Volga bo‘yida , G‘arbiy Sibir , Janubiy Ural , Markaziy Qora Yer mintaqasida , O‘rta Osiyoda , Qozog‘istonda , Moldova , Belarus va Boltiqbo‘yi davlatlarida tarqalgan [Ghahari H, Moulet P, Rider D. A., 2014].

Avlod – *Acrosternum*Fieber, 1860

3. *Acrosternum breviceps*(Jakovlev, 1889). Tarqalishi:Turkiyaning Osiyo qismi, Kavkaz, Marqaziy Osiyo va Saudiya Arabistoni[Aukema B., Rieger C., Rabitsch W., 2013].

Triba – *Strachiini*

Avlod – *Eurydema* Laporte, 1833

4.*Eurydemaornata*(Linnaeus, 1758). Tarqalishi: O‘rta Yer dengizi **(**Janubiy-G‘arbiy Yevropa), Yakin Sharq va Janubiy Rossiya [Yesenbekova P.A., 2013].

Avlod – *Bagrada* Stål, 1862

5.*Bagradakaufmanni*Oshanin, 1870. Tarqalishi: Afg‘oniston, Xitoy (Shimoliy-G‘arbiy), Eron, Qozog‘iston (Osiyo qismi), Tojikiston, Turkmaniston va

O‘zbekiston[Ghahari H, Moulet P, Rider D. A., 2014].

Avlod - *Desertomenida* Kiritshenko, 1914

6.*Desertomenidaquadrimaculata*(Horvatch, 1892). Tarqalishi: O‘zbekistondan tashqari Turkmaniston [Puchkov V.G., 1965], Qozog‘iston[Yesenbekova P.A., 2013].

Kenja oila - Podopinae Amyot & Serville, 1843

Triba- *Graphosomatini*Mulsant& Rey, 1865

Avlod - *Graphosoma*Laporte, 1833

7.*Graphosomalineatum*(Linnaeus, 1758). Tarqalishi:Shimoliy Afrika (G‘arbiy Saxara, Mavritaniya, Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya), Yevropa (Shimoliy kismidan tashqari), Kavkaz, Turkiya Eron, (Janubiy-G‘arbiy va Janubiy-Sharqiy) va O‘rta Osiyo[Ghahari H, Moulet P, Rider D. A., 2014].

1-jadval

Qashqadaryo viloyati Pentatomidae oilasi qandalalarining taksonomik tarkibi

(Qashqadaryo viloyati, 2025-2026 yy)

Oila	Kenjaoila	Triba	Avlod	Tur
Pentatomidae	Pentatominae(Leach, 1815)	Halyini (Amyot & Audinet-Serville, 1843)	*Apodiphus*Spinola, 1837	*Apodiphusintegriceps* Horvath, 1888
		Pentatomini Leach, 1815	*Aelia* J.C.Fabricius, 1803	*Aelia acuminata* (Linnaeus, 1758)
			Acrosternum Fieber, 1860	*Acrosternum breviceps* (Jakovlev, 1889)
		Strachiini Mulsant & Rey, 1866	*Eurydema* Laporte, 1833	*Eurydema ornata* (Linnaeus, 1758)
			Bagrada Stål, 1862	*Bagrada kaufmanni* Oshanin, 1870
			Desertomenida Kiritshenko, 1914	*Desertomenida quadrimaculata* (Horvatch, 1892)
	Podopinae Amyot & Serville, 1843	GraphosomatiniMulsant& Rey, 1865	*Graphosoma*Laporte, 1833	*Graphosoma lineatum* (Linnaeus, 1758)
Jami:	**2**	**4**	**7**	**7**

Xulosa. Qashqadaryo viloyatida tarqalgan Pentatomidae oilasi qandalalarining faunasi kenja oila, triba, avlod va turlar bo‘yicha xilma-xil ekanligi aniqlandi. Natijalarimiz qisqa vaqtda o‘tkazilgan bo‘lishiga qaramay, 2 ta kenja oilaga, 4 ta

triba, 7 avlodga mansub 7 tur qandalalar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Golub V.B., Surikov M.N., Prokin A.A. Kolleksii nasekomix: sbor, obrobotka i xraneniye materiala. - Moskva, 2012. - 339 b.
2. Yesenbekova P.A. Polujestkokrilie (Heteroptera) Kazaxstana. - Almati: Nur-Print, 2013. - S. 349.
3. OshaninV.F. Zoogeograficheskiyxarakterfaunipolujestkokrilix Turkestana. SPb, 1891. - S. 116.
4. Yaxontov V.V. MarkaziyOsiyoqishloqho‘jaligio‘simliklarihamdamahsulotlarinizararkunandalarivaul argaqarshikurash. -Toshkent, 1962. - 696 b.
5. Puchkov V.G. ShitnikiSredneyAzii (Hemiptera, Pentatomidea). - Frunze: Ilim, 1965. - S. 5-329.
6. GandjayevaL.A Fauna, morfologiyaiekologicheskiyeosobennostipolujestkokrilix (Heteroptera) nijneyAmudari. Diss.(DSc.), Xiva: 2021. B. 5-120.
7. YesenbekovaP.A. Zoogeograficheskiyeosobennostipolujestkokrilix Kazaxstana // Tethys Entomological Research, 2010. - Vol. XIX. - C. 59-78.
8. Yaxontov V.V., Davletshina A.G., Vasenkova V.M., KorshinP.N. TipichnieimassovienasekomieGolodnoystepi // JivotniymirGolodnoystepi. - Tashkent: izd-vo AN Uzb. SSR, 1962. - S. 41-109.
9. Aukema B., Rieger C., Rabitsch W. Catalogue of theHeteroptera of the Palaearctic Region 6: Supplement. - Amsterdam: Netherlands Entomological Society, 2013. - B. 653.
10. Ghahari H, MouletP, Rider DA. An annotated catalog of the Iranian Pentatomoidea (Hemiptera : Heteroptera : Pentatomomorpha). Zootaxa. 2014 Jul 15; 3837: B.1-95. doi: 10.11646/zootaxa.3837.1.1. PMID: 25081577.
11. Schuh R.T., and J.A. Slater. 1995. The true bugs of the world (Hemiptera: Heteroptera). Ithaca: Cornell University Press, 336 B.

XORAZM VOHASIGA KENG BARGLI DARAXT TURLARINI INTRODUKSIYA QILISHNING AHAMIYATI.

K.R.Yo‘ldashev, b.f.f.d. (PhD) - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti,Urganch sh.Xorazm.
A.B.Ajiyev, b.f.d. (DSc), professor- Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti,Nukus sh. Qoraqalpog‘iston.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm vohasining Urganch, Beruniy va To‘rtko‘l tumanlarida keng bargli daraxt turlarini introduksiya qilish bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar natijalari tahlil qilingan. Har bir tumanda daraxtlarning maqsadli ekilishi (manzarali, himoya zonalari, rekreatsiya hududlari) muhokama qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, to‘g‘ri tanlangan introduksiya turlari vohaning ekologik barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: introduksiya, keng bargli daraxtlar, ko‘kalamzorlashtirish, ekologik moslashuv,sho`r hududlar,qo`rg`oqchil hududlar.

Аннотация. В данной статье проанализированы результаты наблюдений по интродукции широколиственных древесных пород в Ургенчском, Берунийском и Турткульском районах Хорезмского оазиса. В каждом районе рассмотрены цели посадки деревьев (декоративные, защитные зоны, рекреационные территории). Результаты показали, что правильно подобранные интродуцированные виды играют важную роль в повышении экологической устойчивости оазиса.

Ключевые слова: интродукция, широколиственные деревья, озеленение, экологическая адаптация, засолённые территории, засушливые регионы.

Abstract. This article analyzes the results of observations on the introduction of broad-leaved tree species in the Urgench, Beruniy, and Turtkul districts of the Khorezm oasis. In each district, the purposes of tree planting (ornamental, protective zones, recreational areas) were examined. The results showed that properly selected introduced species play an important role in improving the ecological stability of the oasis.

Keywords: introduction, broad-leaved trees, landscaping, ecological adaptation, saline areas, arid regions.

Kirish. Hozirgi kunda urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, iqlim o‘zgarishi va cho‘llanishning kuchayishi Markaziy Osiyo hududlarida, xususan Xorazm vohasida yashil hududlarni kengaytirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Xorazm vohasi keskin kontinental iqlimga ega bo‘lib, yozning issiq va quruq, qishning esa sovuq bo‘lishi bilan ajralib turadi. Tuproqning sho‘rlanish darajasi yuqoriligi va sug‘orish suvlarining cheklanganligi o‘simlik turlarini tanlashda muhim omil hisoblanadi [Karimov,2023;46].

Introduksiya – bu o‘simliklarni yangi hududlarga olib kirish va ularni moslashtirish jarayoni bo‘lib, ko‘kalamzorlashtirishda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa keng bargli daraxtlar shahar mikroiqlimini yaxshilash, changni ushlash, kislorod

ishlab chiqarish va estetik muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi [Islomov,2022;5].

Mazkur tadqiqotning maqsadi – Xorazm vohasining turli tumanlarida keng bargli daraxt turlarini introduksiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish va ularning amaliy ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot hududi va usullari. Hududning keskin kontinental iqlimi, sho‘rlanish darajasi va suv tanqisligi sharoitida turli introduksiya qilingan daraxt turlarining moslashuvchanligi o‘rganildi. Tadqiqot davomida 15 ta keng bargli daraxt turi tanlab olinib, ularning ekologik xususiyatlari, yashovchanligi va ko‘kalamzorlashtirishdagi roli baholandi.

Kuzatishlar Xorazm vohasining uchta hududida olib borildi:Urganch tumani – asosan urban hudud, Beruniy tumani – qisman cho‘lga yaqin hudud, To‘rtko‘l tumani – Amudaryo ta’siridagi sug‘oriladigan hudud. Har bir hududda introduksiya qilingan daraxtlarning yashovchanligi, o‘sish sur’ati, ekologik moslashuvi va manzaraviy xususiyatlari baholandi.

1-jadval.Introduksiya qilingan daraxt turlarining tavsifi.

№	O‘zbekcha nomi	Lotincha nomi	Ekologik xususiyati
1	Chinor	*Platanus orientalis*	Issiqqa chidamli, namsevar, changni yaxshi ushlaydi
2	Yapon saforasi	*Sophora japonica* L	ssiqsevar, qurg‘oqchilikka chidamli, shahar sharoitiga moslashgan, tuproq tanlamaydi, azot to‘plash xususiyatiga ega
3	Aylanma bargli zarang	*Acer negundo*	Moslashuvchan, sho‘rga nisbatan chidamli
4	Qayrag‘och	*Ulmus pumila*	Qurg‘oqchilikka chidamli
5	Soxta kashtan	*Aesculus hippocastanum*	Namsevar, manzarali
6	Jo‘ka	*Tilia cordata*	Soyaga chidamli, havoni tozalaydi
7	Katalpa	*Catalpa bignonioides*	Issiqsevar, dekorativ
8	Oq akatsiya	*Robinia pseudoacacia*	Sho‘r va qurg‘oqchilikka chidamli
9	Yasen	*Fraxinus excelsior*	Namsevar, tez o‘suvchi
10	Aylant yoki Xitoy shumtoli	*Ailanthus altissima* Swingle.	Juda tez o‘sadi, ifloslangan havoga chidamli, invaziv tur, kambag‘al tuproqlarda ham o‘sadi
11	Pensilvaniya shumtoli	*Fraxinus pennsylvanica* March.	Sovuqqa chidamli, namsevar, daryo bo‘ylarida yaxshi o‘sadi, shamolga chidamli
12	To`q malla tusli maklura	*Maclura pomifera* Schneid	Qurg‘oqchilikka chidamli, issiqsevar, sho‘r tuproqlarga moslashadi, himoya daraxti sifatida ishlatiladi

13	Oqqayn	*Betula pendula* Roth	Sovuqqa chidamli, yorug‘sevar, nam tuproqlarni afzal ko‘radi, tez o‘sadi
14	Amerika shumtoli	*Fraxinus americana* L.	O‘rtacha namlikni talab qiladi, unumdor tuproqlarda yaxshi o‘sadi, sovuqqa chidamli
15	Oddiy eman	*Quercus robur*.	Uzoq umrli, chuqur ildiz tizimiga ega, nam va unumdor tuproqlarni yoqtiradi, sovuqqa chidamli

Hududlar bo‘yicha tahlil.

Urganch tumani: Bu hududda daraxtlar asosan shahar ko‘kalamzorlashtirish va rekreatsiya maqsadida ekilgan. Chinor, Jo‘ka , Katalpa,Yapon saforasi,Zarang, kabi turlar markaziy ko‘chalar va bog‘larda ekilib, estetik muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Beruniy tumani: Bu hududda shamol eroziyasiga qarshi yashil himoya zonalari yaratish maqsadida qayrag‘och, oq akatsiya,zarang,maklura turlari introduksiya qilingan. Ushbu turlar qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga chidamliligi bilan ajralib turadi.

To‘rtko‘l tumani: Sug‘oriladigan hudud bo‘lgani sababli bu yerda namsevar daraxtlar – Penselvaniya shumtoli,oddiy shumtol,oqqayin,soxta kashtan va chinor ekilgan. Ular agroekotizimni barqarorlashtirish va mikroiqlimni yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa. Xorazm vohasida keng bargli daraxt turlarini introduksiya qilish ekologik va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Urganch, Beruniy va To‘rtko‘l tumanlarida olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, har bir hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib daraxt turlarini tanlash yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Sho‘r va qurg‘oqchil hududlarda qayrag‘och,oq akatsiya,yapon saforasi va maklura kabi turlar, nam hududlarda esa chinor, shum tol turkumi daraxtlari ,oddiy eman va soxta kashtan kabi daraxtlar yaxshi natija beradi. Introduksiya qilingan daraxtlar ko‘kalamzorlashtirish, ekologik barqarorlikni oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Islomov B.S., Hasanov M.A. O’simliklar introduksiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.324 b.

2.Abdullaev A.A., Raximov O.X. O‘zbekiston sharoitida introduksiya qilingan manzarali daraxtlar. – Toshkent: Fan, 2021.

3.Karimov Sh.K. Xorazm vohasida ko‘kalamzorlashtirish muammolari va yechimlari // “Qishloq xo‘jaligi ilmiy jurnali”, 2023, №4, 45–52-betlar.

4.Rasulov A.B., Matyakubov K.A. Xorazm viloyatida introduksiya qilingan o‘simliklar monitoringi // “Biologiya fanlari axborotnomasi”, 2024, №1.

TALABA QIZLARDA NAFAS OLISH TIZIMINING XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Shirliyeva Guncha Davletgeldiyevna tayanch doktoranti 3 kurs
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus sh, Qoraqalpog‘iston.
shgd.111988@gmail.com

Kirish. So‘nggi yillarda yoshlar salomatligini saqlash va mustahkamlash muammosi jahon miqyosida dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Talabalarning salomatligi haqida yetarli darajada informativ ma’lumotlar olish ularning jismoniy holatini baholash, funksional buzilishlarni erta aniqlash hamda sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ilmiy asosda rejalashtirish imkonini beradi [1, 2, 3]. Yashash muhitining noqulay ekologik holati, xususan atmosfera havosining ifloslanishi, sanoat va transport chiqindilarining ko‘payishi yoshlar organizmining moslashuv mexanizmlariga qo‘shimcha yuklama beradi [4, 5]. Ushbu omillar respirator tizim faoliyatining susayishiga, jismoniy ish qobiliyatining pasayishiga hamda umumiy funksional holatning yomonlashishiga olib kelishi mumkin [5].

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqot talaba qizlarning respirator tizimi holatining xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Material va metodlar. 2025-yilning bahor mavsumida Qoraqalpoq davlat universitetining Biologiya fakultetida tahsil olayotgan va Qoraqalpog‘iston Respublikasida doimiy yashayotgan 19-21 yoshli 332 nafar ko‘ngilli talaba qizlarda funksional tekshiruvlar o‘tkazildi. Nafas olish tizimi funksiyalarini baholash uchun talabalarda o‘pkaning tiriklik sig‘imi (O‘TS), dinamik spirometriya, nafasni ushlab turish mashqlari (Shtange va Genchi sinamalari) o‘tkazildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Tadqiqotlarda ishtirok qilgan talaba qizlarning o‘rtacha yoshi 20,5±0,08 ni tashkil qiladi. Shtange va Genchi sinamalari bo‘yicha olingan o‘rtacha qiymatlar normativ ko‘rsatkichlardan past ekanligi aniqlandi va normativ ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganlar ulushi 23,5% (Shtange sinamasi bo‘yicha) va 30,1% (Genchi sinamasi bo‘yicha) ni tashkil qildi. Dinamik spirometriya natijalarini baholashda sinovda ishtirok qilgan qizlarning 15,06% “yaxshi” kategoriyasiga, 39,46% “qoniqarli” kategoriyasiga va 45,48%i “qoniqarsiz” kategoriyasiga mansub bo‘lishdi.

Nafas olish tizimini baholashda Shtange va Genchi sinamalari bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlarning normativ qiymatlardan past bo‘lishi talaba qizlarda gipoksiyaga chidamlilikning pastligini va tashqi nafas olish tizimi rezerv imkoniyatlarining yetarli emasligini ko‘rsatishi mumkin [6]. Ushbu sinamalar bo‘yicha normativ darajaga ega bo‘lganlar ulushining kamligi nafas olish mushaklari faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda jismoniy faollikning pastligi bilan izohlanishi mumkin [7]. Dinamik spirometriya natijalariga ko‘ra, qizlarning deyarli yarmi (45,48%) “qoniqarsiz” toifaga mansub bo‘lib, bu o‘pkaning tiriklik sig‘imi va ventilyatsiya ko‘rsatkichlarining yosh me’yorlariga mos kelmasligidan dalolat berishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari talaba qizlarda respirator tizimning funksional

holatini yaxshilashga qaratilgan kompleks profilaktik va sog‘lomlashtirish tadbirlarini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, ularda jismoniy mashqlar, nafas olish gimnastikasi, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida aerobik mashg‘ulotlar ulushini oshirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ширлиева Г.Д., Есимбетов А.Т., Нажимов И.И. Сравнение морфофункционалных показателей у девушек-студентов с различной двигателной активностю. Вестник Хорезмской академии Мамуна, 2024-12/1. С. 154-158.
2. Rozumbetov KU, Matchanov AT, Esemuratova SP, Nisanova SN. Characteristics of the distribution of somatotypes and assessment of physical development in girls living in the Republic of Karakalpakstan. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (98). 2021:130-4.
3. Rozumbetov KU, Esimbetov AT. Assessment of the functional state of the cardiovascular system in males and females. Theoretical & Applied Science. 2021(8):376-80.
4. Голиков Р.А., Суржиков Д.В., Кислицына В.В., Штайгер В.А. Влияние загрязнения окружающей среды на здорове населения (обзор литературы). Научное обозрение. Медицинские науки. 2017. № 5. С. 20-31
5. Бортновский В.Н., Карташева Н.В., Мамчиц Л.П., Климович С.В. Экологическая медицина: учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2014. 184 с.
6. Розумбетов К.У., 2022. Оценка продолжительности задержки дыхания у жителей экологически неблагоприятных регионов. FORCIPE, 5(S3), pp.537-538.
7. Rozumbetov K.U., Shirliyeva G.D., Esimbetov A.T. Study of Physical Development Indicators and Characteristics of the Cardiorespiratory System in Female Athletes Engaged in Various Sports. International Journal of Genetic Engineering. Vol. 14 No. 1, 2026, pp. 17-27. doi: 10.5923/j.ijge.20261401.04.

BALIQLARDIŃ PARAZITAR KESELLIKLERINIŃ ALDIN ALIW USILLARI

[1]L.Zaripova, magistr.,**[2]R.A.Niyazbaev,** magistr.,
[3]K.Kızılbaeva, student
[1]Ajniyaz atındaġı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı
[2]Berdaq atındaġı Qaraqalpaq Mámleketlik universiteti.
[3]Ajniyaz atındaġı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

niyazbaevrauaj@gmail.com

Búgingikúnde balıqlardı jaqsı kóbeytiw hám suw basseynleriniń joqarı ónimdarlıġın támiyinlew ushın balıqlarda eń kóp ushırasatuġın keselliklerin anıqlaw hám analiz qoyıw, sonday-aq, profilaktikalıq ilajlardı nátiyjeli ótkeriw oġada áhmiyetli. Balıq kesellikleri hár qıylı faktorlar tásirinde júzege keledi, ayırım jaġdaylarda kesellik balıq denesine kiretuġın patogen (parazit) sebepli, basqa waqıtları bolsa balıqlardıń kerekli bolġan ayırım elementleriniń jetispewshiligi yamasa kerisinshe, suwda erigen ayırım zatlar muġdarınıń hádden tıs kóbeyiwi, suw temperaturasınıń keskin ózgeriwi, jaraqatlanıwı, sonday-aq, jeterli azıqlanbawlar sebepli payda boladı.

Balıq ónimleri joqarı biologiyalıq qunlılıqqa iye bolıp, quramında áhmietli aminokislotalar, vitaminler hám mineral zatlardıń bar ekenligi menen ajıralıp turadı. Sol sebepli balıqshılıq tarmaġında keselliklerdiń aldın alıw tek ġana ekonomikalıq emes, al azıq-awqat qáwipsizligi kózqarasınan da áhmietli bolıp esaplanadı. Balıq kesellikleri dushshı suwlı akvakulturaġa úlken zıyan jetkeredi. Emlew hám profilaktika ilajlarınıń óz waqtında rejeli ámelge asırılıwı balıqlardıń ólimin azaytıw, ónimniń sapasın arttırıw hám xojalıq qárejetlerin qısqartıw imkaniyatın beredi [Абилхадиров, А,2009; 1].

Birdey bolmaġan ortalıqta “Balıq-parazit” sisteması óz-ara qatnasıqların úyreniw tiykarında ortalıqtın fizikalıq hám biologiyalıq hár túrliligin, parazit hám xojayın minez qulqına tásir kórsetiwin úyreniw.

Balıq keselliklerinıń aldın alıwda polikultura usılı nátiyjeli esaplanadı. Máselen, aq hám shubar mańlaylı, aq amur hám karptı óz-ara birgelikte jetistiriw sazannıń qáwipli keselliklerge shıdamlılıġın arttıradı hám suw basseynleriniń ekologiyalıq jaġdayın sezilerli dárejede jaqsılaydı.Bul balıqlar kóplegen endoparazitlerdiń aralıq xojayınları bolġan zooplankton hám bentoslardı jew arqalı parazitar kesellikler dárejesin páseytedi.

Balıq keselliklerinıń aldın alıw hám balıq shabaġın tasıw ústinen veterinariyalıq qadaġalawdı ornatıw arqalı import etilgen balıqlar arqalı tarqalatuġın parazitlerdiń aldın alıwdı ańsatlastıradı.Bunda epizootik jaġdaydıń kórsetkishi bolġan balıqshılıqxojalıqları ajıratıp kórsetilgen halda keń kólemli monitoring jumısları alıp barıladı.

Kól-tovar xojalıqlarınıń epizootiyalıq jaġdayın jaqsılaw ushın suw basseynleriniń parazitologiyalıq jaġdayın turaqlı qadaġalaw, olardıń parazitologiyalıq

jaǵdayın esapqa alǵan halda balıq jetistiriwde balıq túrin durıs tańlaw, balıqlardıń qadaǵalawsız tasılıwına (veterinariyalıq gúwalıqsız)tasılıwına shek qoyıw, meliorativlik jumıslardı ámelge asırıwǵa ayrıqsha itibar qaratqan halda sanitariyalıq-profilaktikalıq ilajlardı turaqlı túrde ótkerip turıw, sonday-aq, cestodalarǵa qarsı gúresiwde turaqlı túrde meliorativlik jaǵdaydı jaqsılaw hám zıyanlanǵan balıqlardı joq etiw jumısların alıp barıw zárúr.

Balıq keselliklerine qarsı gúresiw baǵdarında sonday-aq, tiykarǵı hám aralıq xojeyinler arasındaǵı biologiyalıq shınjırdı úziw ilajların kóriw, máekhámlichinkaların joq etiw ushın báhárde basseynge balıq taslamastan aldın keptiriw, gúzde bolsa, balıq uslanǵannan keyin onı muzlatıw hám hák penen dezinfekciyalaw ilajların ótkeriw maqsetke muwapıq bolıp esaplanadı.

1. *Maydıń tazalıǵı* yaǵnıy refrakciya kórsetkishiniń norma sheńberinde boliwi may quramında basqa aralaspalar joqlıǵın kórsetedi.

2. *Oksidleniw dárejesi*. Eger may oksidlengen bolsa, oniń refrakciya kórsetkishi ózgeredi. Alınǵan nátiyje maydıń oksidlenbegenligin bildiredi.

3. *May kislotaları quramı.* Joqarı refrakciya kórsetkishi may quramında toyınbagan may kislotaları bar ekenligin kórsetedi. Bul bolsa maydıń biologiyalıq qunınıń joqarı ekenliginen derek beredi.

4. *Sapa bahası*. Nátiyjeler tiykarında jantaq mayı joqarı sapalı, tábiyǵıy hám standartlarǵa sáykes ekenligin bahalaw mùmkin.

Demek Aralboyı aymaǵında òsken jantaq mayınıṅ refrakciya qubılısın izertlewler sonı kórsetti, refraktometriya usılı jantaq mayınıń sapasın bahalawda nátiyjeli hám isenimli bolıp, onıṅ tábiyiy hám taza, oksidlenbegen toyınbaǵan may kislotalarınıṅ jeterli muǵdarda bar bolıwı farmatsevtika, kosmetika hàm azıqawqat sanaatı ushın ekologiyalıq jaqtan qàwipsiz, jergilikli hàm tàbiyǵıy bahalı resurs bolıp tabıladı.

Adebiyatlar:

1. Нишанбаев С.З., Бобакулов Х.М. и др. Компонентный состав экстрактов и эфирного масла Alhagi persarum, произрастающего в Узбекистане, и их антимикробная активность // Химия растительного сырья. 2018. №4. С. 125–132. DOI: 10.14258/jcprm.2018043804.
2. Frank D. Gunstone. Vegetable Oils in Food Technology. -2011.-p.37–45
3. Fereidoon Shahidi. Bailey’s Industrial Oil and Fat Products.-2005.-p.210–220

ISHQORIY METALLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Arislanbaeva Nesibeli Nokisbay kizi – *magistrant*
nesibeli0498@gmail.com
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) asosidagi vositalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, samaradorligini oshirish hamda murakkab mavzularni osonroq o‘zlashtirish imkonini bermoqda. Kimyo fanining muhim bo‘limlaridan biri hisoblangan ishqoriy metallar mavzusi o‘quvchilar uchun ko‘pincha murakkab va abstrakt tushunchalarga boy bo‘lib, uni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar talab etiladi.

Mazkur tezisda ishqoriy metallarni o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari va pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi.

Ishqoriy metallar mavzusining o‘ziga xosligi

Ishqoriy metallar (litiy, natriy, kaliy, rubidiy, seziy va fransiy) davriy jadvalning I-guruh elementlari bo‘lib, ularning fizik va kimyoviy xossalari o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Ushbu mavzuni o‘rganishda quyidagi qiyinchiliklar yuzaga keladi:

- elementlarning yuqori reaktivligi sababli tajribalarni real sharoitda ko‘rsatish murakkabligi;
- atom tuzilishi va elektron konfiguratsiyasini tushunishdagi abstraktlik;
- reaksiyalar mexanizmini tasavvur qilish qiyinligi;
- xavfsizlik talablarining yuqoriligi.

Shu sababli, an’anaviy o‘qitish usullari ba’zan yetarli samarani bermaydi va qo‘shimcha vizual hamda interaktiv vositalarga ehtiyoj tug‘iladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni

Sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson intellektiga xos funksiyalarni bajarish qobiliyatidir. Ta’lim jarayonida SI quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- o‘quv materiallarini individuallashtirish;
- o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik tahlil qilish;
- interaktiv simulyatsiyalar yaratish;
- murakkab jarayonlarni vizual modellashtirish;
- virtual laboratoriyalar tashkil etish.

Kimyo ta’limida SI asosidagi dasturlar orqali o‘quvchilar real tajribalarni xavfsiz muhitda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.

Ishqoriy metallarni o‘qitishda SI’dan foydalanish yo‘llari

1. Virtual laboratoriyalar

Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan virtual laboratoriyalar orqali ishqoriy metallarning suv bilan reaksiyasi, kislorod bilan birikishi kabi jarayonlarni xavfsiz

tarzda kuzatish mumkin. Bu o‘quvchilarga tajriba natijalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

2. Interaktiv simulyatsiyalar

SI asosidagi simulyatsiyalar yordamida:

- atom tuzilishi;
- elektron qavatlar;
- ionlanish energiyasi;

kabi tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish mumkin. Bu esa abstrakt bilimlarni konkretlashtiradi.

3. Adaptiv o‘qitish tizimlari

Sun’iy intellekt o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni taqdim etadi. Masalan:

- kuchli o‘quvchilar uchun murakkab masalalar;
- qiynalayotganlar uchun sodda tushuntirishlar.

Bu yondashuv individual ta’limni ta’minlaydi.

4. Chatbot va virtual yordamchilar

SI asosidagi chatbotlar o‘quvchilarning savollariga tezkor javob berib, mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan:

- “Natriy nega suv bilan tez reaksiyaga kirishadi?”
- “Kaliy va natriy o‘rtasidagi farq nima?”

kabi savollarga darhol tushuntirish berilishi mumkin.

5. Vizualizatsiya va 3D modellar

Sun’iy intellekt yordamida 3D modellar yaratilib, ishqoriy metallarning kristall panjarasi yoki reaksiyalar mexanizmi jonlantirilgan holda ko‘rsatiladi.

SI’dan foydalanishning pedagogik afzalliklari

Sun’iy intellektni qo‘llash quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- O‘zlashtirish darajasi oshadi – vizual va interaktiv ta’lim tufayli bilim mustahkamlanadi.
- Motivatsiya kuchayadi – zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi.
- Xavfsizlik ta’minlanadi – xavfli tajribalar virtual muhitda bajariladi.
- Vaqt tejaladi – murakkab jarayonlar tez va aniq tushuntiriladi.
- Individual yondashuv – har bir o‘quvchiga mos ta’lim beriladi.

Muammolar va cheklovlar

Shunga qaramay, SI texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar mavjud:

- texnik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi pastligi;
- sifatli SI platformalarining cheklanganligi;
- internetga bog‘liqlik.

Ushbu muammolarni hal etish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash, zamonaviy dasturlarni joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Ishqoriy metallar mavzusini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim

samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar va adaptiv o‘qitish tizimlari yordamida murakkab kimyoviy tushunchalarni oson va tushunarli tarzda yetkazish mumkin.

Kelajakda SI texnologiyalarining rivojlanishi bilan kimyo ta’limi yanada takomillashib, o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vositaga aylanadi. Shu bois, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy kimyo / N.X. Hamroyev, T.R. Usmonov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 320 b.
2. Anorganik kimyo / A.S. Sodiqov, B.R. Tursunov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 356 b.
3. Kimyo o‘qitish metodikasi / M.J. Yo‘ldoshev. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2020. – 240 b.
4. Pedagogik texnologiyalar / B.X. Xodjayev. – Toshkent: Fan, 2017. – 276 b.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANIDAN UCHINCHI GURUH ELEMENTLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING ANALITIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Artiqov Maqsud Bahodirovich p.f.f.d.(PhD)
Sagidullaeva Ulbosín Atabay qizi,4-kurs talaba
Maksetbaeva Dilfuza Baxtiyarovna, 1-kurs talaba
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituiti

Annotatsiya: Mazkur ish umumta'lim maktablarida kimyo fanidan uchinchi guruh elementlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning analitik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan. Ishda uchinchi guruh elementlarining nazariy asoslari, ularning kimyoviy xossalari va o'qitish metodikasi tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarda tahliliy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi yoritilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, uchinchi guruh elementlarini o'qitishda muammoli ta'lim, laboratoriya ishlari va integratsiyalashgan metodlardan foydalanish o'quvchilarning analitik kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlangan. Ish natijalari umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Uchinchi guruh elementlari, kimyo ta'limi, analitik kompetensiya, tahliliy fikrlash, umumta'lim maktablari, o'qitish metodikasi, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, laboratoriya mashg'ulotlari, fanlararo integratsiya, kimyoviy xossalar, pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayoni samaradorligi.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ularni tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda o'quvchilarning analitik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi [1].

Kimyo fanining muhim bo'limlaridan biri bo'lgan uchinchi guruh elementlari (B, Al, Ga, In, Tl) o'zining fizik-kimyoviy xossalari, tabiatda tarqalishi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar murakkab tushunchalar, qonuniyatlar va o'zaro bog'liqliklarni anglab yetishi zarur bo'ladi. Bu esa ularda analitik fikrlash, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi.

Mazkur tezisda uchinchi guruh elementlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning analitik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda samarali metodlari yoritiladi [2].

Asosiy qism. Analitik kompetensiyaning mohiyati

Analitik kompetensiya — bu o'quvchining olingan bilimlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash va ilmiy xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Kimyo fanida bu kompetensiya quyidagi ko‘nikmalar orqali namoyon bo‘ladi:

- moddalarning tarkibi va tuzilishini tahlil qilish
- kimyoviy reaksiyalarni tushuntirish
- elementlarning xossalarini solishtirish
- tajriba natijalarini izohlash
- grafik va jadval ma’lumotlarini sharhlash [3]

Uchinchi guruh elementlarining o‘rganilish xususiyatlari

Uchinchi guruh elementlari (bor, alyuminiy, galliy, indiy, talliy) davriy sistemada o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ularning xossalarini o‘rganishda quyidagi jihatlar muhim:

- atom radiusining o‘zgarishi
- metallik va metallmaslik xususiyatlari
- oksid va gidroksidlarining amfoterligi
- kimyoviy faollik darajasi

Masalan, bor elementi metallmas xossaga ega bo‘lsa, alyuminiy va undan keyingi elementlar metall xossalarni namoyon qiladi. Shu o‘zgarishlarni tahlil qilish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi [4].

Analitik kompetensiyani rivojlantirish metodlari

a) Taqqoslash metodi

O‘quvchilarga elementlarning xossalarini jadval shaklida taqqoslash topshiriladi. Masalan:

Element	Atom radiusi	Kimyoviy xossalari	Oksid xossalari
B	Kichik	Metallmas	Kislotali
Al	Kattaroq	metall	amfoter

Bu metod o‘quvchilarda tahliliy fikrlashni shakllantiradi.

b) Muammoli ta’lim

O‘qituvchi quyidagi savolni beradi:

“Nima sababdan bor metallmas, alyuminiy esa metall xossaga ega?”

O‘quvchilar bu savolga javob izlash orqali:

davriy qonuniyatlarni tushunadi

sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlaydi [5]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida kimyo fanidan uchinchi guruh elementlarini o‘qitishda o‘quvchilarning analitik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun interfaol metodlar, muammoli ta’lim, tajriba ishlari va taqqoslash usullaridan keng foydalanish lozim.

Analitik kompetensiyalarning shakllanishi o‘quvchilarning nafaqat kimyo fanini chuqur o‘zlashtirishiga, balki ularning kelajakdagi ilmiy va kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5712-son farmoni.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son.

2. Incheon declaration.// Education 2030: Towards intensive and eatable geniality quality education and lifelong learning for all (Word Eduction Forum, 19-22 may 2015 y. Incheon, respublic of Korea).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli qarori.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020y., 07/20/4805/1174-son.

4. Нишонов М., Мамажанов Ш. Педагогика таълим муассасалари «Кимё ўқитиш методикаси» босқичининг тузилиши ва мазмунини такомиллаштириш // Педагогик таълим. – Тошкент. -2004. – 2 - сон. 52-53. – Б.

5. Artikov M.B. The value of creative tasks for consolidating interdisciplinary connections in the study of natural sciences.//Annals of forest research.Romania.2022. https://www.e-afr.org /2701-2706.-B

6. Артиков Максуд Бахадирович. Методы преодоления тридностей возникаюших учашихся при выполнении творческих заданий. Guliston davlat universiteti axborotnomasi. Sirdaryo. 2023. №1. (13.00.00. (OAK rayosati 18.02.2022. 312/6-sonli qarori).57-61.-B.

INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANIB "MASSALAR TA'SIRI QONUNI" MAVZUSINI O'QITISH

Artiqov Maqsud Bahodirovich p.f.f.d.(PhD)
Abdullayev Ahror Birodar o'g'li, 4-kurs talaba
Genjemuratov Abatbay Begdullaevich, 4-kurs talaba
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituiti

Annotatsiya: Mazkur ish umumta'lim maktablarida kimyo fanidan "Massalar ta'siri qonuni" mavzusini interfaol usullar asosida o'qitish masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqotda kimyoviy muvozanatning nazariy asoslari hamda massalar ta'siri qonunining mohiyati yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning mavzuni chuqur o'zlashtirishini ta'minlashda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Ish jarayonida muammoli ta'lim, guruhli ishlash, "aqliy hujum", "klaster" kabi metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari interfaol yondashuv asosida dars tashkil etish kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Massalar ta'siri qonuni, kimyoviy muvozanat, interfaol usullar, kimyo ta'limi, o'qitish metodikasi, analitik fikrlash, muammoli ta'lim, laboratoriya tajribalari, ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, o'quv faoliyati, kompetensiyaviy yondashuv.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni chuqur o'zlashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo fanini o'qitishda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, murakkab qonuniyatlarni oson va tushunarli shaklda yetkazish dolzarb masaladir [1].

"Massalar ta'siri qonuni" kimyo fanining asosiy qonunlaridan biri bo'lib, kimyoviy reaksiyalar tezligi va muvozanatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni o'qitishda an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarda yetarli darajada tushuncha hosil qilmasligi mumkin. Shu sababli interfaol usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish va bilimlarni mustahkamlash zarur [2-3].

Ushbu tezisda "Massalar ta'siri qonuni" mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi.

Asosiy qism. Kimyo fanidan maktab kursining asosiy vazifalari: dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish va tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish; kimyoni insoniyatning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan markaziy fan sifatida taqdim etish; kundalik hayotda moddalar bilan xavfsiz ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. Maktab kimyo kursini o'rganishdagi qiyinchiliklar: Ta'lim usullari ... "Usul" so'zi yunoncha "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" degan ma'noni anglatadi. O'qitish usullari deganda o'qituvchiga ta'lim berish va o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal

qilishda o'quvchilarning o'quv-kognitiv faoliyatini tashkil etish usullari tushunilishi kerak.

PASSİV TA'LIM USULLARI – o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shakli bo‘lib, bunda o‘qituvchi asosiy aktyor bo‘lib, darsning borishini nazorat qiladi, o‘quvchilar esa o‘qituvchi ko‘rsatmalariga bo‘ysunuvchi passiv tinglovchilardir.

FAOL - bu o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir shakli bo'lib, unda o'qituvchi va talabalar dars davomida bir-birlari bilan muloqot qilishadi va bu erda o'quvchilar passiv tinglovchilar emas, balki darsning faol ishtirokchilaridir.

INTERAKTİV - ("Inter" - o'zaro, "act" - harakat qilish) - o'zaro aloqada bo'lishni anglatadi, suhbat, suhbat tarzida bo'ladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, faol usullardan farqli o'laroq, interfaollar o'quvchilarning nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-biri bilan ham kengroq o'zaro munosabatlariga va o'quv jarayonida o'quvchilarning faolligi ustunligiga qaratilgan [5-6].

Massalar ta’siri qonuni kimyoviy reaksiyaning tezligi reaksiya ishtirokchilarining konsentratsiyasiga bog‘liqligini ifodalaydi. Bu qonunga ko‘ra, reaksiya tezligi reaktantlar konsentratsiyalari ko‘paytmasiga proporsional bo‘ladi.

Masalan:

aA + bB → cC + dD reaksiyasi uchun:

v = k · [A]*a · [B]*b

Bu yerda:

v — reaksiya tezligi

k — tezlik konstantasi

[A], [B] — moddalarning konsentratsiyasi

Mazkur qonun o‘quvchilarga abstrakt ko‘rinishda berilganda tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli uni interfaol metodlar orqali o‘qitish samarali hisoblanadi.

Mavzuni o‘qitishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar

a) “Aqliy hujum” (Brainstorming)

Dars boshida o‘quvchilarga quyidagi savol beriladi:

“Reaksiya tezligi nimaga bog‘liq?”

O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildiradi va shu orqali yangi mavzuga kirish amalga oshiriladi.

b) “Muammoli ta’lim” metodi

O‘qituvchi quyidagi muammoli vaziyatni beradi:

“Agar moddalarning konsentratsiyasi oshirilsa, reaksiya tezligi qanday o‘zgaradi?”

O‘quvchilar tajriba yoki mantiqiy tahlil orqali xulosa chiqaradi.

d) “Guruhlar bilan ishlash”

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruhga topshiriq beriladi:

1-guruh: qonun formulasi

2-guruh: grafik ifodasi
3-guruh: hayotiy misollar
4-guruh: masalalar yechish
Bu metod o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.
e) “Venn diagrammasi”
Massalar ta’siri qonuni va boshqa kimyoviy qonunlar (masalan, muvozanat qonuni) solishtiriladi. Bu usul tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi.
Interfaol usullardan foydalanish natijasida:
- o‘quvchilarning mavzuga qiziqishi ortadi
- murakkab formulalar oson o‘zlashtiriladi
- bilimlar uzoq muddat saqlanadi
- dars samaradorligi oshadi
Shuningdek, o‘quvchilar nazariy bilimlarni real hayotiy jarayonlar bilan bog‘lashni o‘rganadi [4].

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, “Massalar ta’siri qonuni” mavzusini interfaol usullar asosida o‘qitish o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi, balki o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi. Shu sababli kimyo darslarida interfaol metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5712-son farmoni.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son.

2. Incheon declaration.// Education 2030: Towards intensive and eatable geniality quality education and lifelong learning for all (Word Eduction Forum, 19-22 may 2015 y. Incheon, respublic of Korea).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-sonli qarori.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020y., 07/20/4805/1174-son.

4. Нишонов М., Мамажанов Ш. Педагогика таълим муассасалари «Кимё ўқитиш методикаси» босқичининг тузилиши ва мазмунини такомиллаштириш // Педагогик таълим. – Тошкент. -2004. – 2 - сон. 52-53. – Б.

5. Artikov M.B. The value of creative tasks for consolidating interdisciplinary connections in the study of natural sciences.//Annals of forest research.Romania.2022. https://www.e-afr.org /2701-2706.-B

6. Artikov M.B., Ajieva M.B., Umrbekova M.U. Kimyo fanini o‘rganishda talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismlari.// Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar.2022. №7. Toshkent. (13.00.00. №18). 112-118.-B.

ORGANIK KIMYO KURSINI O‘QITISHDA STEAM YONDASHUVI ASOSIDA INNOVATSION METODLARNI QO‘LLASH METODIKASI

Artiqov Maqsud Bahodirovich, p.f.f.d., katta o‘qituvchi
Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi, 1- kurs magistrant
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni, jumladan organik kimyoni o‘qitishda an’anaviy metodlar bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarur. STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Organik kimyo murakkab tuzilishli moddalarning xossalari va reaksiyalarini o‘rganadigan fan bo‘lib, uni samarali o‘qitish uchun integrativ va interaktiv metodlar talab etiladi. Shu sababli STEAM yondashuvi asosida organik kimyoni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir [1-2].

Asosiy qism. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda STEAM yondashuvi keng o‘rganilgan. Ko‘plab ilmiy ishlar ushbu yondashuv o‘quvchilarning:

- muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini
- kreativ fikrlashini
- mustaqil izlanish ko‘nikmalarini
- rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kimyo ta’limiga oid ilmiy adabiyotlarda esa organik kimyoni o‘qitishda: vizual modellashtirish, laboratoriya tajribalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, samarali ekanligi ta’kidlangan. Biroq STEAM yondashuvini aynan organik kimyo kursiga moslashtirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilmagan [3].

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi:

- Nazariy tahlil – pedagogik va metodik adabiyotlarni o‘rganish
- Kuzatish – dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini aniqlash
- Tajriba-sinov ishlari – STEAM asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligini tekshirish

Taqqoslash metodi – an’anaviy va zamonaviy metodlarni solishtirish

STEAM yondashuvi asosida organik kimyoni o‘qitishda quyidagi metodlar samarali deb topildi:

1. Fanlararo integratsiya

Organik kimyo mavzulari fizika, biologiya va matematika bilan bog‘lab o‘rganiladi. Masalan: uglevodorodlar – energiya manbai sifatida (biologiya), reaksiyalar tezligi – matematik hisoblashlar orqali.

2. Loyiha asosida o‘qitish.

- O‘quvchilar kichik guruhlarda ishlaydi va loyiha tayyorlaydi:
- “Ekologik toza yoqilg‘i”;

- “Polimerlarning kundalik hayotdagi o‘rni”.
3. 3D modellashtirish va vizualizatsiya.
- Molekulalarning fazoviy tuzilishini tushuntirishda:
- 3D modellar;
- animatsiyalar;
- katta samara beradi.
4. Amaliy va muammoli vazifalar.
O‘quvchilarga real hayotiy muammolar beriladi:
- plastik chiqindilar muammosi;
- dori moddalarining ta’siri.
- Bu ularning fikrlashini rivojlantiradi.
5. Ijodiy (Art) elementlarini qo‘llash.
- molekulalarni rasm yoki maket orqali ifodalash;
- kimyoviy jarayonlarni sahnalashtirish;
- Natijada o‘quvchilarning qiziqishi ortadi [4].

Organik kimyoni STEAM metodida o‘qitish (jadval)

Bosqich	S (Science)	T (Technology)	E (Engineering)	A (Art)	M (Mathematics)
Kirish	Organik moddalar haqida tushuncha	Video va animatsiyalar	Oddiy model ko‘rsatish	Rasm orqali ifodalash	Oddiy hisoblash-lar
Asosiy qism	Reaksiyalar va tuzilish	3D modellashtirish	Molekula modeli yasash	Ijodiy maketlar	Formulalar hisoblash
Amaliy mashg‘ulot	Tajriba o‘tkazish	Virtual laboratoriya	Qurilma loyihalash	Sahnalash-tirish	Natijalarni tahlil
Mustahkamlash	Savol-javob	Test platformalar	Muammo yechish	Diagramma chizish	Masalalar yechish

Xulosa. Organik kimyo kursini STEAM yondashuvi asosida o‘qitish o‘quvchilarning:
- bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga;
- mustaqil fikrlashiga;
- amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishiga;
- katta yordam beradi.
Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur yondashuv:
- dars samaradorligini oshiradi.
- o‘quvchilarning faolligini kuchaytiradi.
- fanlararo bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авлиякулов Н., Мусаева Н. Педагогик технология. –Т.: Тафаккур бўстони, 2012.
2. Азизхўжаева Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. –Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси нашриёти, 2006.
3. Abdusamatov A.va boshqalar “Organik kimyo” Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti 2004-yil, 30-33 betlar.
4. M.M.Abdulxayeva, O‘.M.Mardonov. Kimyo. T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2002. – 670b. 427-431betlar.
5. I.A.Toshev, R.I.Ismoilov va boshqalar. Organik kimyo. T.: G’ofur G’ulom nashriyoti, 2004. -528b. 16-24betlar

MAKTABDA KIMYO KURSIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR, OLIMPIADALARNI TASHKILLASHTIRISH METODIKASI

Babanazarova A.O.– Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-bosqich tayanch doktoranti

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning bilimini faqat dars jarayoni bilan cheklab qo‘ymasdan, ularning qiziqishi va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi qo‘shimcha faoliyat turlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyo fani murakkab tushunchalar, formulalar va tajribalarga boy bo‘lgani sababli uni o‘rganishda sinfdan tashqari ishlar alohida o‘rin tutadi.

Kimyodan sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning mustaqil bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Shu bilan birga, kimyo fan olimpiadalari va kimyo kechalari orqali iqtidorli o‘quvchilar aniqlanadi hamda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratiladi.[1]

Ushbu maqolada maktabda kimyodan sinfdan tashqari ishlar, olimpiadalar va kimyo kechalarini tashkil etish metodikasi hamda ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Umumta’lim maktablar o‘qituvchilari ushbu jarayonning asosiy tashkilotchilari sifatida faqat darslik doirasida qolib ketmasdan, o‘quvchilarga keng dunyoqarash va fanlararo yondashuvni shakllantirishda faol rol o‘ynaydilar. Bu jarayonda o‘quvchilarni chuqur bilimli, mustaqil fikrlovchi, izlanishga intiluvchi shaxs sifatida tarbiyalash o‘qituvchilarning bosh vazifasidir. Ana shu maqsadni amalga oshirishda sinfdan tashqari ishlar muhim vosita sifatida maydonga chiqadi. Ular tomonidan puxta rejalangan sinfdan tashqari faoliyatlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, muloqot madaniyatini va jamoaviy ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.[2]

Kimyodan sinfdan tashqari ishlar – bu o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda, ixtiyoriy asosda olib boriladigan, ularning bilim va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Ushbu ishlar orqali o‘quvchilar kimyo fanining nazariy asoslarini chuqurroq o‘zlashtiradilar va amaliy tajriba o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllariga kimyo to‘garaklari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, viktorinalar, tanlovlar, tajribalar ko‘rgazmasi va ekskursiyalar kiradi. Kimyo to‘garaklari o‘quvchilarning individual qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etilib, murakkab masalalar va qiziqarli tajribalar orqali bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.[3]

Kimyo fan olimpiadalarini tashkil etish metodikasi

Kimyo olimpiadalarini tashkil etishda topshiriqlar mazmunan boy, ilmiy asoslangan va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Topshiriqlar nazariy savollar, hisoblashga oid masalalar hamda tajribaviy vazifalarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir. Olimpiadaga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlashi va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim

hisoblanadi.

Kimyo fan olimpiadalari maktab o‘quvchilari uchun nafaqat raqobat maydoni, balki ularning ilmiy fikrlashini, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini va fan olamiga bo‘lgan qiziqishini chuqurlashtiruvchi samarali ta’lim-tarbiya vositasidir. Samarali olimpiadani tashkil etish ma’lum pedagogik prinsiplarga, professional yondashuvga va puxta tayyorgarlikka asoslanadi.

Olimpiadani tashkil etishdan oldin uning **asosiy maqsad va vazifalari** aniq belgilanishi lozim:

Maqsadlar:

o‘quvchilarning kimyo faniga qiziqishini kuchaytirish;

mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va rag‘batlantirish;

natijada kimyo fanini chuqur o‘rgatishga pedagogik yondashuvni takomillashtirish.

Vazifalar:

murakkab nazariy savollarni mantiqan hal eta olish;

amaliy va tajribaviy bilimlarni qo‘llay olish;

jamoada hamda individual ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

o‘quvchilarda motivatsiya va o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirish.

Kimyo fan olimpiadalari odatda bir nechta bosqichda o‘tkaziladi:

Maktab bosqichi – barcha qatnashchilar uchun ochiq bo‘lib, o‘quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlaydi.

Mazmuni:

test shaklidagi nazariy savollar;

oddiyroq hisoblarga asoslangan masalalar;

kichik tajribaviy topshiriqlar (jumladan, reaksiyalar tavsifi yoki eksperiment natijalarini tahlil qilish)..

Tuman / Viloyat bosqichi – bu bosqich qatnashchilarni tanlab olish uchun chuqurroq baholashni talab qiladi.

Mazmuni:

murakkab nazariy testlar;

strukturali masalalar, formulalar va reaksiya mexanizmlari;

mustaqil fikrlash talab qiluvchi topshiriqlar.

Respublika (yoki oliy daraja) bosqichi — eng murakkab, yuqori intellekt talab qiluvchi bosqich bo‘lib, o‘quvchilarning fan bo‘yicha chuqur bilim va izlanish salohiyatini sinovdan o‘tkazadi.

Mazmuni:

integratsiyalangan nazariy masalalar;

tajribaviy laboratoriya topshiriqlari;

ilmiy-amaliy loyihalar.

Topshiriqlar turlari va ularni yaratuvchi metodika

Olimpiada muvaffaqiyati juda ko‘p jihatdan topshiriqlar sifatiga bog‘liq.

Quyidagi turlar keng qo‘llaniladi:

Nazariy testlar:
qisqa javoblar;
farazlar asosida yechiladigan savollar;
nazariy bilimni tez va aniq aniqlovchi vazifalar.
Hisoblash masalalari:
muammoni tahlil qilish;
matematik yechim topish;
natijani kimyoviy kontekstda tushuntirishni talab etadi.
Tajribaviy topshiriqlar:
moddalar bilan xavfsiz ishlash;
eksperiment o‘tkazish tartibini to‘g‘ri belgilash;
natijalarni tahlil qilish.

Baholash mezonlari va natijalarni tahlil qilish

Olimpiada natijalarini adolatli va aniq baholash juda muhim:
Baholash mezonlari:
Nazariy bilim: to‘g‘ri javoblar soni va murakkab savollarni yecha olish.
Mantiqiy tahlil: masalani tuzish, yechim yo‘lini izohlash.
Amaliy ko‘nikma: tajribalarni to‘g‘ri bajarish va tahlil qilish.
Innovatsion yondashuv: ijodiy fikrlash va yangi yechimlarni taklif etish.
Baholar adolatli bo‘lishi uchun:
ballar tizimi oldindan qatnashchilarga e’lon qilinadi;
har bir topshiriqning aniqlangan vazni bo‘ladi;
hakamlar hay’ati tomonidan o‘zaro tekshiruv va muvofiqlashtirish o‘tkaziladi.

Olimpiadani tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar

Reja tuzish:
sanasi, joyi, qatnashchilari soni;
olimpiada formatini belgilash.

Topshiriqlarni ishlab chiqish

nazariy, hisoblash va tajribaviy bo‘limlarni aniqlash;
topshiriqlarning darajasi bosqichga mos bo‘lishi.

Imkoniyatlar bazasini yaratish

laboratoriya jihozlari, reaglar, himoya vositalari;
ishonchli texnik qo‘llanmalar.

Xavfsizlik

Kimyo olimpiadasi ayniqsa tajribaviy vazifalar bo‘lsa, quyidagilar muhim:
shaxsiy himoya vositalari;
xavfsizlik yo‘riqnomalari;
o‘qituvchi hamda o‘quvchi uchun xavfsizlik bo‘yicha qisqacha trening.

Hakamlar hay’ati

Baholashning ob’yektiv bo‘lishi uchun malakali o‘qituvchilar, kimyogarlar yoki olimlar jalb qilinadi. Har bir hakam mezonlar bilan oldindan tanishtiriladi.

Olimpiadaning ta’lim jarayonidagi roli

Kimyo fan olimpiadalari o‘quvchilarda:

mustaqil o‘rgangan bilimni sinovdan o‘tkazish motivatsiyasini oshiradi;

fan olami bilan yaqindan tanishish imkonini beradi;

ijodiy yechimlar izlashni rag‘batlantiradi;

kelajakdagi ilmiy faoliyatga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Kimyo fan olimpiadalarini samarali tashkil etish — bu nafaqat raqobatni o‘tkazish, balki o‘quvchilarning fikrlash madaniyati, ilmiy izlanish salohiyatini shakllantirish uchun muhim pedagogik jarayondir. Metodik jihatdan to‘g‘ri yondashuv, aniq rejalashtirish, adolatli baholash va pedagogik qo‘llab-quvvatlash — bu omillar olimpiadalarni muvaffaqiyatli amalga oshiradi.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, D. (2019). Kimyo ta’limida noan’anaviy dars va sinfdan tashqari ishlar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

2. Mamatqulov. I., Ergashev, B. (2018). Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: Innovatsiya.

3. PQ-4805-son 12.08.2020 “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”

4. Nazarova, D., To‘xtayeva, N. (2020). Umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitish metodikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.

ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ В ПРАКТИКЕ ОБУЧЕНИЯ ХИМИИ

Бекманова Гулбахар Бегдуллаевна, д.ф.п.н. (PhD),
Каракалпакский медицинский институт
Кафедра «Медицинская химия»
г.Нукус, Республика Каракалпакстан

Реализация компетентностного подхода в учебном процессе осуществляется за счет активных и интерактивных форм обучения. Значит изложение только теоретического материала и экспериментальных фактов в процессе прочтения лекционного материала с целью формирования и развития профессиональных навыков обучающихся недостаточно. Здесь большую роль играет внедрения компьютерных симуляций.

Цель компьютерных симуляций – это представить перспективу использования виртуальной химической лаборатории при изучении общей и неорганической химии студентами. Современный стандарт образования требует такого построения учебного процесса, при котором студенты усваивают не только теоретические знания, но и основы методов научного познания. Виртуальные лаборатории становятся все более актуальными в практике обучения химии. Виртуальный лабораторный практикум по химии может выступить в роли замены или дополнения к натурному лабораторному практикуму, который является обязательным элементом образовательной программы по химии. Однако теоретико-методические основы их внедрения не до конца разработаны и только начитают складываться. Само понятие «виртуальная химическая лаборатория» до сих пор не имеет точного определения.

С точки зрения ряда авторов виртуальной лабораторией является программное обеспечение, позволяющее моделировать лабораторные опыты. В эту систему входят компьютерная программа, программный комплекс, набор компьютерной информации. Другие исследователи под виртуальной лабораторией понимают лабораторную установку с удаленным доступом - цифровые и дистанционные химические и физические лаборатории. Третья точка зрения свидетельствует о том, что виртуальная лаборатория – это обучающая система как часть информационной или виртуальной образовательной среды, включающей учебные, учебнометодические, практические, справочные, контрольно-обучающие и контрольнотестирующие материалы.

Виртуальная лаборатория «представляет собой программноаппаратный комплекс, позволяющий проводить опыты без непосредственного контакта с реальной установкой или при полном отсутствии таковой. Здесь мы имеем дело с лабораторной установкой с удаленным доступом, в состав которой входят реальная лаборатория, программноаппаратное обеспечение для управления установкой и оцифровки полученных данных, а также средства коммуникации.

В другом случае все процессы моделируются при помощи компьютера.

Учёные, объединяя вышерассмотренные понятия, определяют виртуальную лабораторию в обучении химии как компьютерную имитацию учебной химической лаборатории, реализующую ее основную функцию – проведение химического эксперимента в образовательных целях. Технически функционирование виртуальной лаборатории обеспечивается программно-аппаратными средствами компьютерной техники, дидактически – содержательно и методически обоснованным сценарием.

Виртуальные лабораторные работы имеют огромное количество преимуществ:

- Они не являются полноценной заменой натурного эксперимента, однако представляют собой единственную возможность прохождения практикума студентами заочных и дистанционных форм обучения, набирающих популярность в условиях возрастающей глобализации образовательного процесса, а также для закрепления знаний и умений как в аудиторной, так и во внеаудиторной самостоятельной деятельности.
- Могут выступать в роли дополнения к натурным аналогам, например, при проведении эксперимента на уникальном оборудовании, доступ к которому ограничен, так как многие явления и опыты провести в условиях учебного заведения нельзя или очень сложно.
- Виртуальные лабораторные работы обеспечивают безопасность даже неподготовленных пользователей в условиях работы с высокими напряжениями или химическими веществами высокой токсичности.
- Позволяют наблюдать процессы, трудноразличимые в реальных условиях из-за малых размеров наблюдаемых частиц (молекулы, атомы) или процессов, протекающих за доли секунды или, напротив, длящихся в течение нескольких лет.
- Виртуальные лабораторные работы можно демонстрировать в аудитории во фронтальном режиме (с демонстрацией компьютерных моделей с помощью проекционного оборудования), во время лекции как дополнение к лекционным материалам или при подготовке учащихся к выполнению натурной лабораторной работы.
- Позволяют экономить время и ресурсы для ввода результатов в электронный формат. Некоторые работы требуют последующей обработки достаточно больших полученных цифровых данных.

В виртуальной лаборатории данные могут заноситься в электронную таблицу результатов непосредственно при выполнении опытов экспериментатором или автоматически. Таким образом, экономится время и значительно уменьшается процент возможных ошибок.

При создании виртуальных лабораторий могут использоваться различные подходы. Прежде всего, виртуальные лаборатории разделяются по методам доставки образовательного содержания.

Подход первый - виртуальные лаборатории, в которых представление знаний о предметной области основано на отдельных фактах, ограничены набором заранее запрограммированных экспериментов. Этот подход используется при разработке большинства современных виртуальных лабораторий с низкой степенью интерактивности, главным достоинством которых является большой дидактический материал.

Другой подход позволяет учащимся проводить любые эксперименты, не ограничиваясь заранее подготовленным набором результатов. Это достигается с помощью использования математических моделей, позволяющих определить результат любого эксперимента и соответствующее визуальное представление. Такие виртуальные лаборатории по химии бывают со средней степенью интерактивности, которые предоставляют обучающемуся возможность выбора реактивов и оборудования из небольшого числа объектов, участвующих в данной сцене, и с высокой степенью интерактивности, предоставляющие широкий выбор оборудования и реактивов и определенную свободу действия.

Для реализации компетентностного подхода в учебном процессе необходимо внедрение активных и интерактивных форм обучения. В рамках курса «Общая и неорганическая химия» наиболее целесообразно сочетание реального и виртуального эксперимента, что позволяет студенту лучше изучить тот или иной химический процесс, а значит, глубже осмыслить изучаемые процессы и явления.


Литература:

1. Белохвостов А.А., Аршанский Е.Я. Электронные средства обучения химии; разработка и методика использования. – Минск: Аверсэв, 2012. – 206 с.
2. Гавронская Ю.Ю., Оксенчук В.В. Виртуальный учебный химический эксперимент как специфический метод обучения и познания // Методика преподавания химических и экологических дисциплин сборник научных статей VIII Международной научно-методической конференции. Брест, 26-27 ноября 2015 г. – Брест: БГТУ. – 2015. – С. 33-36.
3. Ли В.Г., Дроздов Ю.А. Виртуальные лаборатории как перспективные информационные технологии в учебном процессе // Известия Южного федерального университета. Технические науки. – 2003. – Т. 30. – № 1. – С. 221.
4. Трухин А.В. Виды виртуальных компьютерных лабораторий // Открытое и дистанционное образование. – 2003. – № 3. – С. 12–20.

ФОРМАТЫ РЕАЛИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ СВЯЗИ ХИМИИ И БИОЛОГИИ

Бектурганова Зульфия Казиевна, д.ф.п.н. (PhD),
Старший преподаватель кафедры «Химия»
Нукусский Государственный Педагогический Институт
E-mail: bekturganova70@bk.ru

Межпредметная связь химии и биологии — это фундамент для понимания живой природы на молекулярном уровне, объединяющий изучение строения веществ с их функциями в организмах. Химия объясняет структуру (белки, ДНК), а биология — работу систем (обмен веществ, наследственность). Основные области: биохимия, молекулярная биология, экология и фармакология.



Ключевые темы для интеграции химии и биологии:

- *Органические вещества в клетке:* Изучение состава и функций углеводов, липидов, белков, нуклеиновых кислот, их роли в жизнедеятельности.
- Обмен веществ (метаболизм): Химические реакции окисления-восстановления, фотосинтез ($6CO_2 + 6H_2O \rightarrow C_6H_{12}O_6 + 6O_2$), клеточное дыхание, ферментативные процессы.
- Ферменты и гормоны: Биологические катализаторы, механизм их действия, зависимость от химической структуры.
- Химический состав организма: Элементы-органогены (C, H, O, N), макро- и микроэлементы, их роль (например, Fe в гемоглобине).
- Фармакология и медицина: Химическая структура лекарств и их

взаимодействие с рецепторами, токсикология, методы лечения.

Форматы реализации связи в обучении:



Форматы реализации связи в обучении:


- *Интегрированные уроки:* Проведение совмещенных уроков (например, «Химия клетки»).
- *Практические работы:* Лабораторные исследования, такие как качественные реакции на белки, изучение денатурации, определение кислотности сред.
- *Проектная деятельность:* Темы, требующие знаний из обеих дисциплин: «Химия в экологии», «Ферменты в пищеварении», «Биополимеры».

Значение связи: Использование межпредметных связей позволяет формировать целостную научную картину мира, углубляет понимание процессов, происходящих в живой природе, и развивает навыки, необходимые для изучения современных наук, таких как биотехнология, генетика и биоинженерия.

Межпредметные связи выступают как средство развития биологических понятий, способствуют усвоению связей между ними и общими естественнонаучными понятиями. Развивающая функция межпредметных связей определяется их ролью в развитии системного и творческого мышления учащихся, в формировании их познавательной активности, самостоятельности и интереса к познанию природы. Межпредметные связи помогают преодолеть предметную инертность мышления и расширяют кругозор учащихся. Воспитывающая функция межпредметных связей выражена в их содействии всем направлениям воспитания школьников в обучении биологии, Учитель биологии, опираясь на связи с другими предметами, реализует комплексный подход к воспитанию.

Методологическая функция выражена в том, что только на их основе возможно формирование у учащихся диалектико-материалистических взглядов на природу, современных представлений о ее целостности и развитии, поскольку межпредметные связи способствуют отражению в обучении методологии современного естествознания, которое развивается по линии

интеграции идей и методов с позиций системного подхода к познанию природы. Образовательная функция межпредметных связей состоит в том, что с их помощью учитель биологии формирует такие качества знаний учащихся, как системность, глубина, осознанность, гибкость.



Конструктивная функция межпредметных связей состоит в том, что с их помощью учитель биологии совершенствует содержание учебного материала, методы и формы организации обучения. Реализация межпредметных связей требует совместного планирования учителями предметов естественнонаучного цикла комплексных форм учебной и внеклассной работы, которые предполагают знания ими учебников и программ смежных предметов.

Виды межпредметных связей в содержании обучения биологии и химии. Совокупность функций межпредметных связей реализуется в процессе обучения тогда, когда учитель биологии осуществляет все многообразие их видов. Различают связи внут рицикловые (связи биологии с физикой, химией) и межцикловые (связи биологии с историей, трудовым обучением).

Виды межпредметных связей делятся на группы, исходя из основных компонентов процесса обучения (содержания, методов, форм организации) : содержательно-информационные и организационно-методические. Содержательно- информационные межпредметные связи делятся по составу научных знаний, отраженных в программах биологических курсов, на фактические, понятийные, теоретические, философские. Межпредметные связи на уровне фактов (фактические) — это установление сходства фактов, использование общих фактов, изучаемых в курсах физики, химии, биологии, и их всестороннее рассмотрение с целью обобщения знаний об отдельных явлениях, процессах и объектах природы. Так, в обучении биологии и химии учителя могут использовать данные о химическом составе человеческого тела.

Понятийные межпредметные связи — это расширение и углубление признаков предметных понятий и формирование понятий, общих для родственных предметов (общепредметных) .

К общепредметным понятиям в курсах естественнонаучного цикла относятся понятия теории строения веществ — тело, вещество, состав, молекула, строение, свойство, а также общие понятия — явление, процесс, энергия и др. Эти понятия широко используются при изучении процессов ассимиляции и диссимиляции. При этом они углубляются, конкретизируются на биологическом материале и приобретают обобщенный, общенаучный характер.

Ряд общебиологических понятий отражает такие сложные процессы живой природы, которые невозможно раскрыть даже на первом этапе их введения без привлечения физико-химических понятий. Так, понятие фотосинтеза сложилось в науке в результате изучения этого процесса физиологией растений и пограничными науками — биофизикой и биохимией.

Теоретические межпредметные связи — это развитие основных положений общенаучных теорий и законов, изучаемых на уроках по родственным предметам, с целью усвоения учащимися целостной теории. Типичным примером служит теория строения вещества, которая представляет собой фундаментальную связь физики и химии, а ее следствия используются для объяснения биологических функций неорганических и органических веществ, их роли в жизни живых организмов.

в) Планирование и пути реализации межпредметных связей в обучении биологии. Использование межпредметных связей — одна из наиболее сложных методических задач учителя биологии. Она требует знаний содержания программ и учебников по другим предметам.

Реализация межпредметных связей в практике обучения предполагает сотрудничество учителя биологии с учителями химии, физики, географии; посещения от крытых уроков, совместного планирования уроков и т .д.

Учитель биологии с учетом общешкольного плана учебно-методической работы разрабатывает индивидуальный план реализации межпредметных связей в биологических курсах.

Методика творческой работы учителя включает ряд этапов: 1) изучение раздела «Межпредметные связи» по каждому биологическому курсу и опорных тем из программ и учебников других предметов, чтение дополнительной научной, научно-популярной и методической литературы; 2) поурочное планирование межпредметных связей с использованием курсовых и тематических планов; 3) разработ ка средств и методических приемов реализации межпредметных связей на конкретных уроках; 4) разработ ка методики подготовки и проведения комплексных форм организации обучения; 5) разработ ка приемов контроля и оценки результатов осуществления межпредметных связей в обучении.

Таким образом, межпредметные связи позволяют вычленить главные элементы содержания образования, предусмотреть развитие система образующих идей, понятий, общенаучных приемов учебной деятельности,

возможности комплексного применения знаний из различных предметов в трудовой деятельности учащихся.

